O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

DINIY EKSTREMIZM, MISSIONERLIK VA XALQARO TERRORIZMGA QARSHI KURASH

(METODIK QO'LLANMA)

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

M.LAFASOV, X.S.JUMANIYOZOV, G.K.MASHARIPOVA,
E.XOLIQOV, E.M.MALLAEVA

DINIY EKSTREMIZM, MISSIONERLIK VA XALQARO TERRORIZMGA QARSHI KURASH

(METODIK QO'LLANMA)

Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi
nashriyoti

TOSHKENT–2010.

66.4(0)
D53
Diniy ekstremizm, missionerlik va xalqaro terrorizmga qarshi kurash : (metodik qo'llanma) / M. Lafasov [va boshq.] ; O'zR Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi. – T.: A. Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 128 b
1. Lafasov, M.
ББК 66.4(0)+66.3(5Ў)3+86.38

Taqrizchilar: TTESI falsafa kafedrasi mudiri, f.f.n. dotsent **A.Nasriddinov**
Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, f.f.n. **O'.Yusupov**

Mazkur metodik qo'llanma Oliy va o'rta-maxsus ta'lim vazirligi tomonidan «Ekstremizm, terrorizm: tarixi va mohiyati» kursi yuzasidan tavsiya etilgan namunaviy dasturga muvofiq tayyorlandi. Metodik qo'llanma Pedagogika universitetlarining «Milliy g'oya, huquq va ma'naviyat asoslari» yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Metodik qo'llanmada mazkur kursni o'qish jarayonida talabalar bilib olishi lozim va zarur bo'lgan mavzularga asosiy e'tibor qaratilib, quyidagi masalalar yoritib berilishiga ahamiyat berildi: Davlat va din; O'zbekistonda davlatning din va diniy tashkilotlar bilan munosabati; Jahon dinlari tizimida Islom; Islomning Markaziy Osiyo mintaqasidagi o'rni va ahamiyati; ekstremizm va terrorizm tarixi; ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga tahdidi; Musulmon olamining terrorizmga qarshi kurashi; Markaziy Osiyodagi barqarorlik va havfsizlikka tahdid solayotgan diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlar; Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning halqaro siyosiy-huquqiy asoslari va boshqalar yoritib beriladi.

Metodik qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU Ilmiy kengashining 2010-yil 25-noyabrdagi yig'ilishida muhokama qilinib 5-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

Metodik qo'llanma ITD-4-161 "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlashning takomillashtirilgan mazmunini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish" mavzusidagi granti doirasida bajarilgan.

N1506-4825/2010.
ISBN 978-9943-06-329-1

KIRISH

XX asr oxiriga kelib ikki qutbli dunyoning yemirilishi, ya'ni jahonning deyarli yarmiga hukmronlik qilib kelgan sotsializmning inqirozga yuz tutishi, uning bosh qurg'oni hisoblangan Sho'rolar saltanatining qulashi natijasida bir qancha davlatlarning mustaqil taraqqiyot yo'liga o'tishi yillar davomida berkitib kelingan din buloqlari ko'zining qaytadan ochilishiga imkon yaratdi. Bunga uzoq yillar tashna bo'lgan xalqlar tushunib – tushunmay din sohasidagi hamma narsani qabul qilaverdi. Bu narsa dindan siyosiy maqsadlarini amalga oshirishni ko'zlab yurgan qator kishilar va kuchlarning tegirmoniga suv quydi. Bizning yurtimiz geostrategik jihatdan qulay joyda joylashganligi, moddiy resurslarga boy bo'lganligi uchun ularning o'qiga nishon vazifasini o'tadi va tajriba maydoniga aylandi.

Lekin Yurtboshimizning qat'iy siyosati, xalqimizning birligi, ahilligi mamlakatimizni katta falokatlardan asrab qoldi. Shu sabab bo'lib o'tgan voqealarni haqqoniy o'rganish, orttirilgan tajribani yoshlar ongiga singdirish, yurtimiz kelajagini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, diniy ektremizm va xalqaro terrorizm, osongina taslim bo'ladigan kuch emas. Uning Vatani, millati yo'q. U vaqti-vaqti bilan o'zini ko'rsatib, yurt tinchligini buzib turadi. Prezidentimiz Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida qilgan ma'ruzasida (2004-yil 29 aprel) asosiy e'tiborni mamlakatimizga ko'z tikkan yovuz kuchlarning 2004-yil 29-30 mart va 1 aprel kunlari amalga oshirgan qabih qilmishlari hamda terrorizmning jirkanch qiyofasini ochib berishga qaratib o'tdi: «Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, g'animlarimizning asosiy niyati – O'zbekistonda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni, jamiyatimizdagi bunyodkorlik muhitini, bugun barpo etayotgan farovon va osuda hayotni buzish, tobora

kuchga kirayotgan davlatimizni ag'darish, tanlagan yo'limizdan qaytarishdir».

Yangi ming yillik arafasida ikki qarama-qarshi mafkuraviy tuzumning kurashi intihosiga etsa-da, dunyo ko'pchilik kutganidek osoyishta bo'lib qolgani yo'q. Unda o'z yechimini kutayotgan muammolar talaygina ekan: bir qator mamlakatlarda yangi demokratik qadriyatlar qiyinchiliklar bilan qaror topmoqda; milliy o'zlikning anglashning faollashuvi; etnik ziddiyatlar; diniy qadriyatlarning qayta qaror topish jarayoni bilan bog'liq masalalar.

Ushbu muammolar o'tmishda qolib ketmasdan, shakllantirilayotgan yangi dunyo andozalarini ishlab chiqish jarayoniga to'siq bo'lib ham qolmoqda. Mana shunday sharoitda turli kurash va musobaqalardan toygan insoniyat yangi hayotni barpo etishga kirishdi. "Shu nuqtai nazardan qaraganda, muqaddas islom dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodimizga to'g'ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib etish vazifasi hamon dolzarb bo'lib qolmoqda"[1]

Ma'rifiy jamiyat o'zi barpo etishga kirishgan tizimning ba'zi xususiyatlarini, qirralarini oldindan tasavvur etishi lozim. Bizning nazdimizda, hozirdan yangi tizimning mohiyatini ochib beruvchi bir qator masalalar ustida bosh qotirishga to'g'ri keladi. Jumladan:

- yangi barpo etilajak tizim qanday bo'ladi?
- unga qanday boshqaruv qoidalari asos etib olinadi?
- u qanday ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga tayanadi?
- uning ijtimoiy-axloqiy tizimida bir guruh aqidaparastlar tomonidan ilgari surilgan g'oyalarga o'rin beriladimi?
- eng asosiysi, unga ma'rifiy dunyo qay darajada o'z hissasini qo'sha oladi?

Mustaqillik mamlakatimiz ma'naviy taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi: dinga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi; tom ma'nodagi vijdon erkinligi ta'min etildi; diniy bag'rikenglik hayotiy tamoyilga aylandi; milliy-diniy qadriyatlar tiklandi; diniy tashkilotlar soni oshdi, 10 dan ortiq diniy o'quv muassasasi faoliyat ko'rsatmoqda.

[1] Каримов И.А. Юксак маънавият-енгилмас куч. –Т: "Маънавият", 2008. 37-б.

Mamlakatimizda mustaqillik yillari amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan bir qatorda, hali o'z yechimini kutayotgan muammolar ham yo'q emas. 1999 yidagi fevral voqealari, 2004-yildagi 29-30 mart kunlari sodir etilgan qo'poruvchiliklari ta'lim-tarbiya, targ'ibot sohasidagi ishimizda nuqsonlar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Ularni bartaraf etish uchun barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, harakat qilishimiz talab etiladi. Bu yo'lda bir-biri bilan uzviy bog'liq muammolarni yechishga alohida e'tibor berishda:

- sog'lom fikr va dunyoqarashga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash, ularning salohiyatini yurt osoyishtaligi va xalq farovonligi yo'lida safarbar qilishga keng imkoniyatlar yaratib berish.
- dinning asl insonparvarlik mohiyatini asrash, uning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy hamkorlik, konvensiyalararo hamjihatlikni mustahkamlashga yo'naltirish borasidagi ishlarda tadrijiylikni ta'minlashdan iboratdir.

Mavjud muammolarni hal etish oliy ta'lim muaassalari oldiga qator vazifalarni qo'ymoqda. Jumladan:

- Davlatimizning vijdon erkinligi sohasida olib borayotgan siyosatini hamda uning amaliy natijasi bo'lmish qaror topgan diniy bag'rikenglik muhitini yoshlar orasida keng yoritishga qaratilgan tadbirlarning samaradorligini oshirish;
- Islom dinini siyosatga aylantirayotgan, yovuzlik va terrorchilik mafkurasini yaratayotgan ko'plab radikal va ekstremistik markazlarning, birinchi navbatda, yoshlar ongini zaharlab, zombiga aylantirib, ulardan terrorchilar tayyorlash bo'yicha konveyer tashkil etayotgan, halifalik tuzishdek turli xom-xayollarni amalga oshirishga urinayotgan qabih kuchlarning ildizini qirqib tashlash borasidagi ma'rifiy ishlarni kuchaytirish;
- Turli millat va din vakillari orasida totuvlikni mustahkamlash tomon qaratilgan tadbirlarning hozirjavobligi va ta'sirchanligini oshirish;
- Missionerlik harakatining oldini olish, yoshlarni chet el OAV orqali tarqatilayotgan turli xabarlar ta'siriga berilib ketishining oldini olish bo'yicha tadbirlar uyushtirish va boshqalar.

OTM xatti-harakatlarlarida ta'lim olayotgan talaba-o'quvchilarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash, ularda milliy g'urur va iftixor

tuyg'ularini kuchaytirish, zararli g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish hamda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari bo'yicha bilimlarini boyitishga tomon qaratilgan o'quv-tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni izchil tashkil etish, uning ta'sirchanligini yanada oshirish maqsadida qo'llanma tayyorlandi.

Ilgari Respublikamizda vahhobiylar, diniy fundamentalizm, ekstremizm va xalqaro terrorizm haqida ma'lumotlar deyarli yo'q edi. Prezidentimiz I.A.Karimovning "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "Xushyorlikka da'vat", "Vatan tinchligini saqlamoq kerak", "Tinchlik uchun kurashmoq kerak", "Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch-qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq", "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" va boshqa asarlarida diniy fundamentalizm va ekstremizmning mohiyati va xavfi haqida batafsil tushuntirish berilgan.

Keyingi yillarda Respublikamizda vahhobiylikning kelib chiqishi, diniy fundamentalizm, ekstremizm va xalqaro terrorizmning kirdikorlari haqida bir qator asarlar, ko'plab maqolalar paydo bo'ldi.

Muallif ushbu qo'llanmaning yuzaga kelishida Abdurashid qori Bahramov, Muhammadbobur qori Yo'ldoshev, Najmiddin Komilov, Qutbiddin Burxonov, Maxsudxo'ja Nuriddinov, Abdiqayum Azimov, Yunus Abdullaev, Xoji Ismatulloh Abdulloh, Sobir O'nar, Shodiqul Xamroev, Hamrobonu Musurmonova, Zohidilla Munavvarov, Yevgeniy Abdullaev, Ismoil Saifnazarov, G'affor Xotamov, Abdusalom Umarov, Abdullajon Begmatov, Zuxriddin Xusniddinov, Aydin Gudarzi va boshqalarning asarlari va maqolalaridan foydalandi. Shu sababli, muallif ularga o'z minnatdorchiligini bildiradi. Shuningdek, IKT nizomi, turli tashkilotlarning ustavlari, xalqaro shartnomalar, Internet materiallaridan keng foydalanildi.

O'ylaymizki, mazkur qo'llanmani o'rganish jarayonida yoshlarimiz umuman dinlar, xususan Islom dini tarixi, ta'limoti to'g'risida, mamlakatimizda vijdon erkinligining amalga oshirilishi, tinch-osoyishta hayot tarzimizni din niqobi ostida buzishga intilayotgan kuchlarning asl niyati nima ekanligi haqida to'g'ri, haqiqiy bilimga ega bo'ladilar.

1-MAVZU: DAVLAT VA DIN. O'ZBEKISTONDA DAVLATNING DIN VA DINIY TASHKILOTLAR BILAN MUNOSABATI

Darsni o'tish texnologiyasi:

Mavzuni tushuntirish va uning samaradorligini oshirish uchun "B-B-B" chizmasi usulini qo'llash maqsadga muvofiq.

B-B-B chizmasi

Bilamiz	Bilishni xohlaymiz	Bildik

Mavzu bo'yicha o'quvchilarga bilganlarini yozish taklif etiladi. O'quvchi daftariga "Bilamiz" - deb bilganini yozadi. Bunga 5 daqiqa vaqt beriladi. Ushbu vazifa bajarilgach, guruh o'zaro bilganlarini bir-biriga aytib beradi, keyin hammaning fikrini umumlashtirib, 5 daqiqa muhokama qilinadi. So'ngra har bir guruhdan bir kishi 3 daqiqa ichida guruh nomidan taqdimot o'tkazadi. O'quvchilarga Z daqiqada "Mavzu bo'yicha nimani bilmoqchisizlar?" savoliga javob yozish topshiriladi. Ular "Bilmoqchiman" - degan fikr yozadilar. Har bir guruhdan bitta o'quvchi guruhning fikrini umumlashtirib so'zga chiqadi. Keyingi bosqichda o'quvchilarga mavzu bo'yicha matnlar tarqatiladi. O'quvchilar matndan yangi bilganlarini "Bilib oldim"- deb yozadilar.

Mashg'ulotlarda bunday texnologiyalardan foydalanish asarda ilgari surilgan g'oyalarni o'quvchi yoshlar ongiga chuqurroq singdirishga xizmat qiladi.

Muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechimini topish jadvali

Muammoli vaziyat	Muammoli vaziyatning kelib chiqish sabablari	Muammoli vaziyatdan chiqish yo'llari
Ma'naviy tajovuzlar: mafkuraviy hurujlar, diniy ekstremizm, fundamentalizm, terrorizm, missionerlik, prozelitlik	Noma'qul odatlar, illatlar: xudbinlik, befarqlik, loqaydlik, mahalliychilik, manfaatparastlik, sotqinlik, hasad	Insonning yuksak ma'naviyati: irodalilik,sabr-qanoat, jamiyatimizdagi siyosiy, ijtimiy-iqtisodiy,ma'naviy munosabatlarning rivoji, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarida zamonaviy informatsion, kompyuter texnologiyalarini joriy etish, jamiyatning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish hamda qo'llash.

Yoshlarni o'z fikrlariga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo'llanmalarni tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini anglab etiishimiz zarur.

Vaqti-2 soat	Talabalar soni 25-30 nafar
Ma'ruza mashg'uloti rejasi	1. Din masalasida mavjud xalqaro me'yor (normalar). 2.O'zbekistonda vijdon erkinligining konstitutsion kafolatlanishi 3. Vijdon erkinligi – diniy e'tiqod erkinligidir 4. O'zbekistonda din bilan munosabatning asosiy tamoyillari. 5. Mustaqillik: dinga va diniy tashkilotlarga munosabatning o'zgarishi.
	Din masalasida mavjud xalqaro me'yor (normalar) bilan tanishtirish, O'zbekistonda vijdon erkinligining konstitutsion kafolatlanishini hamda vijdon erkinligi – diniy e'tiqod erkinligi ekanligini tushuntirish, O'zbekistonda din bilan munosabatning asosiy tamoyillarini va mustaqillik: dinga va diniy tashkilotlarga munosabatning o'zgarishini yoritishdan iborat.
Pedagogik vazifalar: - ma'ruza olingan bilimlarni mustahkamlash va ular asosida dokladlar tayyorlash ko'nikmalarini hosil qilish; - bilimlarni tizimlashtirish, taqqoslash, umumlashtirish va taxlil qilish; -Darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash, ko'nikmalarni hosil qilish.	O'quv faoliyatining natijalari: Talaba: - Din masalasida mavjud xalqaro me'yor (normalar)ni yoritish; - O'zbekistonda vijdon erkinligining konstitutsion kafolatlanishini talabalarga tushuntirish; - vijdon erkinligi – diniy e'tiqod erkinligini yoritish; - talabalarga O'zbekistonda dinga munosabatning asosiy tamoyillarini tushuntirish; - mustaqillik: dinga va diniy tashkilotlarga munosabatning o'zgarishini yoritiishdan iborat.

O'qitish usullari va texnikasi	Muammoli usul, guruh bilan ishlash, suhbat, aqliy hujum, munozara, galereya, tayanch atamalar, "B-B-B", "Muammoli vaziyatni yechimini topish" pedagogik texnologiyalardan foydalanish va diniy ekstremizm, missionerlik va xalqaro terrorizmga qarshi kurashga oid film namoyish qilish.
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, o'quv materiallari, marker, skotch, qog'oz, kompyuter texnika vositalari, videodan foydalanish.
O'qitish shakllari	Guruxlarda, kollektiv, yakka
O'qitish sharoitlari	Auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	o'qituvchi	talaba
1-bosqich Kirish (10 daq.)	1.1. Mavzuni, maqsadi, rejadagi o'quv natijalarini e'lon qiladi, ularning ahamiyatini va dolzarbligini asoslaydi. 1.2. Olingan bilimlarni tekshirish maqsadida asosiy tushunchalar borasida savol-javob o'tkazadi. 5-ilova. 1.3. dars mashg'uloti guruxlarda ishlash texnologiyasidan foydalangan holda amalga oshirilishini e'lon qiladi	1.1. Eshitadilar, mavzuni yozadilar, savollarga javob beradilar va aniqlashtiradilar.

	Guruhda ishlash qoidalarini eslatadi. Ish tartibi va vaqtini aniqlashtiradi.	
2-bosqich Asosiy (60 daq.)	2.1.Talabalarning diqqati ma'ruzaga qaratiladi.	2.1.O'quv topshiriqlari, baholash mezonlari bilan tanishadi, topshiriqni guruhga taqsimlaydi, umumiy ma'ruzani shakllantiradi. 2.2. Natijalarni prezentatsiya qiladi, nazorat savollariga javob beradi. Qolgan ishtirokchilar taqdimotni to'ldiradilar va savollar beradi. Ekspertlar baholaydi.
3-bosqich Yakuniy (10 daq)	3.1. O'quv faoliyatini yakunlaydi. Talabalar diqqatini asosiy jihatlarga qaratadi. 3.2. Mustaqil ish uchun vazifa beradi.	3.1.Tinglaydilar, aniqlashtiradilar. Mustaqil ish uchun vazifalarni yozib oladilar.

1. Din masalasida mavjud xalqaro me'yor (normalar). Vijdon erkinligi ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u mazmun-mohiyatiga ko'ra quyidagilarni bildiradi: har kimning o'z e'tiqodiga ko'ra, mazkur jamiyatdagi mavjud ijtimoiy me'yorlarni buzmagan holda, vijdoni buyurganicha yashash, ishlash imkoniyati. Bunda dinga munosabat masalaning bir tomoni hisoblanadi. Siyosiy jihatdan esa,, unga demokratiya ko'rinishlaridan biri sifatida qaraladi. Yuridik nuqtai nazardan vijdon erkinligi insonning asosiy shahsiy huquqlari sirasiga kiradi va demokratik erkinliklardan biri hisoblanadi.[1] Ko'rinadiki, vijdon

[1] Қаранг. Ислом энциклопедия. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. Тошкент, 2004., 63-бет.

erkinligi zamirida shahsning huquqi, demokratiya, adolatparvarlik va insonparvarlik kabi katta ijtimoiy-siyosiy, huquqiy va axloqiy tushunchalar yotadi. Hozirgi vaqtda vijdon erkinligi demokratiyaning ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Biz bu o'rinda vijdon erkinligini fuqarolarning din erkinligi nuqtai nazaridan izohlashni maqsad qilib qo'yganmiz. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar masalasi barcha davlatlarning ijtimoiy hayotida muhim va shu bilan birga murakkab masalalaridan biri bo'lib kelgan.

Bu masalada xalqaro me'yorlar masalasi haqida gap borganida o'qituvchi BMTning Ustavidan tortib, barcha xalqaro hujjat va shartnomalarda, dunyoviy davlatlarning Konstitutsiya va qonunlarida vijdon erkinligi masalasi o'z ifodasini topganligiga talabalar e'tiborini qaratishi lozim. 1948 yil 10 dekabarda qabul qilingan «Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi»ga muvofiq har bir inson erkin fikrlash, vijdon va din erkinligi huquqiga ega. Bu huquq o'z dini va e'tiqodini o'zgartirish erkinligini, diniy ibodatlarni bajarishda va diniy marosimlarda yakka tartibda va odamlar bilan birgalikda qatnashish erkinligini o'z ichiga oladi.

«Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt» ning 18-moddasida esa., «Din yoki e'tiqodga sig'inish erki qonunda belgilab qo'yilgan va jamoat havfsizligini saqlash, tartib, sihat-salomatlik va axloq-odobni saqlash uchun, ayni vaqtda boshqa shahslarning asosiy huquqlari va erkinliklarini saqlash uchun zarur bo'lgan cheklashlargagina nozil bo'ladi», - deb ta'kidlangan.

Din va vijdon erkinligi to'g'risida xalqaro hujjatlardagi yana bir muhim masala – turli dunyoqarash va e'tiqodda bo'lgan kishilar o'rtasidagi, davlat, din, diniy tashkilotlar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarning amalda huquqiy ta'minlanishini ham nazarda tutadi. Shu o'rinda, bu masalaning milliy g'oyamizning asosiy tamoyillarida, Yurtboshimizning qator asarlarida o'z yechimini topganligiga talabalar e'tiborini qaratish muxim ahamiyat kasb etadi.

2. O'zbekistonda vijdon erkinligining konstitutsion kafolatlanishi

Vijdon erkinligining kafolatlari ko'p qirralidir. Bu, avvalo, dinlarning va diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilganligi; barcha

fuqarolar uchun ularning dinga e'tiqod qilish yoki qilmasligidan qat'i nazar maorif va madaniyat maskanlari eshiklarining ochiqligi; maktabning dindan va diniy tashkilotlardan ajratilganligi; dindorlarning diniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo'lgan sharoitlarning yaratib berilganligi va boshqalardan iborat.

Mamlakatimiz fuqarolarining Vijdon erkinligi huquqini ta'minlash va kafolatlashga xizmat qiluvchi «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar» to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni birinchi bor mustaqilligimiz e'lon qilinishidan ikki yarim oy ilgari 1991-yil 14 iyunda qabul qilingan. Shu o'rinda ushbu qonunning MDH mamlakatlari ichida birinchi bo'lib O'zbekistonda qabul qilinganligiga ham alohida talabalar e'tiborini qaratish lozim.

1991–1999-yillarda mamlakatimizda din niqobi ostida sodir etilgan jinoyatlar ko'paya boshladi, natijada vaziyat keskinlashdi. Ayrim kimsalarning o'z siyosiy manfaatlarini amalga oshirish uchun dindan va diniy tashkilotlardan foydalanishga urinishlari kuchaya boshladi.

Bunday sharoitda dinning va diniy tashkilotlarning jamiyatdagi o'rnini yana bir karra aniqlab olish ehtiyoji tug'ildi. Mamlakatimizda aholining ma'naviyatini rivojlantirishga xizmat qilayotgan, vijdon erkinligi va e'tiqodini amalga oshirishda muhim o'rin egallagan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» gi Qonunni takomillashtirgan holda yangi tahrirda qabul qilish zarurligini hayot taqozo etmoqda edi. Shu maqsadda 1994-yilda bu qonunga ma'lum o'zgarishlar kiritildi. Shundan so'ng mazkur qonunni qayta tayyorlash jaryonida Qonundagi ko'p normalar mazmunan boyitildi, ularning ba'zi birlari taqiqlovchi xususiyatga ega bo'ldi. Chunki ayni paytda tashqaridan davlatimiz hududiga kirib kela boshlagan turli norasmiy diniy-siyosiy ekstremistik oqimlar, partiya, yo'nalish va mazhablar faoliyatini to'xtatishga ehtiyoj sezilgan edi. Shu bois bu Qonun 1998 yilning 1 mayida Oliy Majlisning XI-sessiyasida yangi tahrirda qabul qilindi.

Yangi tahrirdagi bu qonun avvalgisidan har bir moddasining aniqligi va lo'nda yozilganligi bilan farq qiladi. Ilgari 30 moddadan iborat bo'lgan mazkur qonun ihchamlashtirilib 23 moddaga keltirildi.

Mazkur qonunda, avvalo, har bir fuqaroga mustaqil ravishda, biron-bir tarzda majburlashsiz o'zining dinga munosabatini belgilash, dushmanlik va adovat uyg'otish, ularning diniy yoki dahriylik e'tiqodi

munosabati bilan bog'liq xis-tuyg'ularini haqorat qilish mumkin emasligi belgilab qo'yilgan. Shuningdek,, muqaddas qadamjo hisoblangan diniy inshootlar – masjid, madrasa, maqbaralarni oyoqosti qilish qonunga muvofiq jazolanishi, hech kimning o'zining diniy e'tiqodiga ko'ra, qonunda belgilangan majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlashi mumkin emasligi belgilab qo'yildi.

Qonunning 5-moddasi «Dinlarning va diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilishi» deb yuritiladi. Bu qanday ma'noni anglatadi? Bu degani – mamlakatimizda dinlar va diniy tashkilotlar davlat ishiga aralashmaydi, ayni paytda esa, davlat diniy tashkilotlarning va dindorlarning qonunlarga zid bo'lmagan faoliyatiga aralashmaydi, jamiyatda davlat o'z vazifasini va din ham o'z vazifasini bajarishi lozim.

Davlat dindor fuqarolarning diniy e'tiqod va haq-huquqlarini qanchalik hurmat qilsa, dindorlar ham davlat qonunlarini va siyosatini shunchalik hurmat-ehtirom qilishlari shart. Diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, ular jamiyatdan ajratilmagan. Binobarin, dindorlar va diniy tashkilotlar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida qatnashish huquqiga egadirlar.

Shu o'rinda talabalarning diniy tashkilot nima ekanligi, uning maqomlari qandayligini bilib olishlari ham foydadan holi emas. Diniy tashkilot – diniy ehtiyojlarni birgalikda qondirish yoki qondirishga ko'maklashish maqsadida tuziladigan va diniy marosimlarni ado etish asosida ish ko'radigan ixtiyoriy, teng huquqli va o'z-o'zini boshqaruvchi uyushma. U ayni vaqtda fuqarolarning vijdon erkinligini kafolatlovchi tuzilmalardan biri sanaladi. Diniy tashkilotlarning eng muhim belgisi ularning o'z-o'zini boshqarishidir, ya'ni ular ma'muriy jihatdan davlat idoralaridan ajratilgan.

Diniy tashkilotlar o'z Nizomlariga asosan mustaqil ish olib boradilar.

Yangi taxrirdagi qonunga binoan diniy tashkilot O'zbekiston Respublikasining 18 yoshga to'lgan va respublika hududida doimiy yashayotgan 100 kishidan kam bo'lmagan fuqarolar tashabbusi bilan tuzilishi mumkin. Tuzilgan uyushma va tashkilotlar Respublika Adliya vazirligi tomonidan, joylarda tegishli viloyat, tuman, shahar, qishloq hududida bo'lgan adliya boshqarmalari tomonidan ro'yhatga olinadi.

1991-yilda qabul qilingan qonunda diniy tashkilot 20 kishining tashabbusi bilan tuzilishi mumkinligi ko'rsatilgan edi. Natijada diniy tashkilotlar tuzish va machitlar qurilishi 1990–1992-yillarda avj oldi. Bu ichki va tashqi ta'sirlar asosida ro'y berdi. Ichki omil bu dinga berilgan erkinlik bo'lsa, tashqi omil ko'plab musulmon mamlakatlaridagi vatandoshlarning machit qurilishiga moddiy yordam berganligidir... Agar 1990-yillarda respublikamizda 119 ta diniy tashkilot mavjud bo'lgan bo'lsa, 1997-yilga kelib ularning soni 5000 tadan ham oshib ketdi va ularda faoliyat ko'rsatgan imomlarning 23 foizi diniy ma'lumotga ega edi xalos. Bu diniy tashkilotlarning ko'plari ro'yxatdan o'tmagan va noqonuniy asosda faoliyat ko'rsatmoqda edi. Madrasalarning soni ham 100 dan oshib ketgan bo'lib, shularning 20 tasigina O'zbekiston musulmonlar idorasiga bog'liq edi xolos.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo'yicha qo'mita MDH davlatlari orasida birinchilardan bo'lib O'zbekistonda 1992-yil 7 mayda tashkil etilgan. Bu tashkilot davlatning din sohasidagi siyosatini muvofiqlashtirish, axborot va nazorat qilish, maslahat va tavsiya berish vazifalarini bajaradi. Bunday tashkilot qo'shni mamlakatlarda yo'q.

1998 yilning aprel oyidan boshlab mamlakatimiz hududida barqaror ijtimoiy-siyosiy muhitni saqlash, diniy idoralar faoliyatini o'rganish, yashirin faoliyat ko'rsatayotgan diniy tashkilotlarni aniqlash, bu sohada yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida diniy tashkilotlar qayta ro'yhatdan o'tkazildi. Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari Adliya vazirligi tomonidan, diniy tashkilotlar esa,, mazkur vazirlikning joylardagi boshqarmalari tomonidan Vazirlar Mahkamasi xuzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan kelishilgan holda hal qilinadi. Ro'yhatga olish haqidagi ariza bir oy davomida ko'rib chiqiladi.

Hozirga kelib Adliya vazirligi tomonidan ro'yhatga olingan diniy tashkilotlarning umumiy soni 2200 dan ortiq bo'lib, shundan 2000 tasi islom diniga, 163 tasi xristian va 47 tasi boshqa dinlarga mansub tashkilotlar hisoblanadi. Bular 16 ta diniy konvensiyaga uyushgan holda faoliyat olib bormoqda. Ularning eng yirigi O'zbekiston musulmonlar idorasi, Rus provaslav cherkovi, Rim katolik cherkovi, Toshkent va O'rta Osiyo Eparxiyasi, Yahudiylar jamoalari va boshqalar. Qonunga

muvofiq diniy tashkilotlarning rahbari O'zbekiston fuqarosi bo'lishi va kamida O'zbekistonda 5-yil yashagan bo'lishi kerak.

Mazkur Qonunning 13-moddasiga binoan diniy tashkilotlar quyidagi holatlarda tugatilishi belgilangan:

1. Bu tashkilot o'zini o'zi tarqatib yuborsa;
2. Bu tashkilot ushbu Qonun yoki uning faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonun hujjatlari talabalarini buzganda.

Qonunga muvofiq, diniy tashkilotlar biron bir siyosiy partiya faoliyatida qatnashish, siyosiy partiyalarga moliyaviy yordam ko'rsatish huquqiga ega emas. Shuningdek, diniy-siyosiy partiyalar tuzish taqiqlangan.

Diniy tashkilotlar, dindorlar va boshqa fuqarolarning dindan davlatga, Konstitutsiyaga qarshi targ'ibot olib borishiga, dindan o'z siyosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun niqob sifatida foydalanishga davlat yo'l qo'ymaydi.

«Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi qonunda belgilangan tartiblarni buzganlar qonunga binoan javobgarlikka tortiladi.

O'qituvchi talabalar diqqatini qonunning yana bir muhim moddasi «Maktabni dindan va diniy tashkilotlardan ajratish» deb ataluvchi moddasiga qaratishi lozim. Buni qanday tushunmoq va izohlamoq kerak? Mamlakatimizdagi davlat bilim yurtlari dunyoviy bilimlar beruvchi bilim yurtlaridir. Umumiy ta'lim, kollejlar, akademik liцeylar, oliy o'quv yurtlari o'quv rejalariga diniy bilim berish dars sifatida kiritilmaydi. Biroq bu fuqarolar diniy ta'lim olish huquqiga ega emas, degan gap emas.

Mamlakatimizda diniy ta'lim qanday tarzda amalga oshiriladi. Buni ham bilib qo'yish muhimdir. Qonunning 3-moddasi 2-qismida ko'rsatilganidek «Voyaga etmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek,, ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o'rnini bosadigan shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitishga yo'l qo'yilmaydi». Mazkur qonunga zid ravishda voyaga etmagan bolalarni dinga o'qitish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 145-moddasiga muvofiq – eng kam ish haqining ellik barobaridan etmish besh baravarigacha jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yohud uch yilgacha ozodlikdan maxrum etish bilan jazolanadi. Qonunga binoan diniy ta'lim maxsus diniy o'quv yurtlarida amalga

oshiriladi. Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ruhoniylar va o'zlariga zarur bo'lgan diniy xodimlar tayyorlash uchun diniy o'quv yurtlari tashkil etishga haqlidirlar.

Dindan saboq beruvchilar, murabbiylar tegishli puxta bilimga va uni o'qitish haqidagi maxsus ruhsatnomaga ega bo'lishlari shart.

Qonunda xususiy tartibda, ya'ni uyda diniy ta'lim berish man etilgan.

Hozirda O'zbekistonda 10 ta diniy o'quv yurtlari faoliyat ko'rsatmoqda. Bular Toshkentdagi Imom al-Buxoriy nomli Islom instituti, «Ko'kaldosh», Buxorodagi «Mir Arab» madrasalari; shuningdek,, Toshkentdagi «Xadichai Kubro», Buxorodagi «Jo'ybori Kalon» ayol-qizlar islom o'rta-maxsus bilim yurtlari; Namangandagi «Mulla Qirg'iz», Urganchdagi «Faxriddin ar-Roziy», Andijondagi «Said Muxyiddin Maxdum» islom o'rta-maxsus bilim yurtlari va boshqalar. O'zbekistonda din davlatdan ajratilgani uchun diniy o'quv yurtlari davlat xalq ta'limi tizimiga kirmaydi.

Endi ana shu diniy bilim yurtlarining ba'zilari haqida ma'lumot beramiz.

Imom al-Buxoriy nomidagi Toshkent Islom instituti oliy diniy o'quv yurti bo'lib, 1970-yilda tashkil etilgan va 1971-yil oktabridan faoliyatini boshlagan. O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufida. U dinlar tarixi va nazariyasini chuqur egallagan, islom dini asoslarini o'zlashtirgan, arab tilida so'zlasha oladigan mutaxassislar, imom xatiblar tayyorlaydi. O'qish muddati 4-yil. Toshkent Islom instituti O'zbekiston musulmonlar idorasi tomonidan tasdiqlangan qoidalar asosida o'rta umum ta'lim hamda o'rta-maxsus diniy ma'lumotga ega bo'lgan 35-yoshgacha yoshlarni qabul qiladi. Bu erda 130 talaba taxsil oladi. Bu ta'lim maskani mustaqilligimizga qadar sobiq Ittifoqda yagona oliy islom o'quv yurti bo'lgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Toshkent Islom universiteti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 7 apreldagi Farmoniga binoan tashkil etilgan.

Farmonda ta'kidlanishicha bunday nufuzli ilm o'chog'ini tashkil etishdan maqsad: «Xalqimizning muqaddas e'tiqodi – islom diniga oid boy ma'naviy-madaniy merosimizni asrab-avaylash, diyorimizdan etishib chiqqan buyuk allomalarning ilmiy g'oyalari va asarlarini chuqur

va har tomonlama o'rganish, tahlil etish va zamonaviy ruhda rivojlantirish, shu sohada ilmiy-nazariy tadqiqotlar olib borish, zamon talablari darajasida malakali mutaxassis kadrlar tayyorlashni ta'minlash, ularga lozim bo'lgan shart-sharoitlar yaratish hamda ajdodlarimizdan qolgan noyob manbalar asosidagi tadqiq etilgan ma'lumotlar bilan xalqimizning diniy savodxonligini oshirish...»[1] ekanligi ta'kidlangan. Mazkur universitetda hozirgi kunda 500 dan ziyod talaba dinshunoslik, islomshunoslik, islom falsafasi, islom huquqi, sharq va g'arb tillari, jahon dinlarini qiyosiy o'rganish va boshqa fanlarni chuqur o'rganmoqda. Universitet tarkibida tashkil etilgan Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazida: Qur'on, tafsirlarini o'rganish, islom tarixi va falsafasi, shariat, manbashunoslik, qo'lyozmalarni o'rganish kabi bo'limlar samarali faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizda malakali diniy mutaxassislar tayyorlaydigan bilim yurtlaridan yana biri Buxorodagi Mir Arab madrasasi sanaladi. U 1530–1536-yillarda qurilgan. Sobiq Sho'rolar davrida uning faoliyati vaqtincha to'xtatilgan va 1945-yilda yana qayta tiklangan. O'quv yurtiga 15-yoshdan 35-yoshgacha bo'lgan o'rta va to'liqsiz o'rta ma'lumotli kishilar qabul qilinadi.

Dunyoviy umumta'lim maktablarida va boshqa bilim yurtlarida dinlar tarixi, jumladan Islom dini tarixi – dinshunoslik sifatida o'rganiladi.

1998 yildagi qonunda missionerlik – ya'ni biror-bor din vakilining boshqa din vakillari orasiga kirib o'z dinini targ'ib qilishi taqiqlangan. Bunday holat yuz bersa bunday shahslarga nisbatan jazo chorasi ko'rish belgilangan. Lekin shunga qaramay, ayrim kimsalar qonunga hilof ravishda yurtimizda missionerlik faoliyatlarini yashirin holda o'zbek tilidagi adabiyotlarni, video va audio kasetalarni tarqatish, ma'ruza va suhbatlar orqali olib borishga harakat qilmoqdalar. Biz yoshlar bunday missionerlik xatti-harakatlarlarga nisbatan befarq bo'lib qolmasligimiz lozim. O'qituvchi talabalarga Asosiy Qonunimizning 18, 31, 57 – moddalariga, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar» qonunining tegishli moddalariga yana bir bor murojat etishlarini ta'kidlab masalaga yakun yasaydi.

[1] «Халқ сўзи» газетаси, 1999 йил 8 апрел.

3. Vijdon erkinligi – diniy e'tiqod erkinligidir

Mazkur masalaning bayonini o'qituvchi vijdon erkinligining diniy va dunyoviy tomonlariga talabalar e'tiborini qaratishdan boshlashi lozim. Din erkinligi nuqtai nazaridan, vijdon erkinligi bu – fuqarolarning u yoki bu dinga e'tiqod qilish yohud hech qanday dinga e'tiqod qilmaslik huquqidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida qayd etilganidek, «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi»[1]. Mazkur qonuniy kafolatga muvofiq, biron-bir kishi boshqa odamlarga sen u dinga, sen bu dinga e'tiqod qilasan. Sening biror dinga e'tiqod qilishga haqqing yo'q, Sen bedinsan deb ayta olmaydi. Ayni paytda u yoki bu aqidaga bo'ysunishga majbur eta olmaydi. Hech kim dindor kishini «Diniy e'tiqodingizdan qayting» deb majbur ham qilolmaydi. Bunday xolatlarga qonun yo'l bermaydi. Dindor yoki daxriy bo'lish, o'zi xohlagan dinga ishonish yoki hech qaysi dinga ishonmaslik har kimning shahsiy ishi. Bu huquq O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 31-moddasida qonun bilan mustahkamlangan.

4. O'zbekistonda din bilan munosabatning asosiy tamoyillari

Mustaqitllik ma'naviy hayotda ham yangilanish jarayonini, tub o'zgarishlar davrini boshlab berdi. Dinga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi: sobiq sovet tizimining dinga qarshi olib borgan ateistik hujumkor siyosatiga barham berildi, diniy qadriyatlar tiklandi, vijdon erkinligi qonun yo'li bilan kafolatlandi. Din va dunyoviy davlat o'rtasidagi munosabat haqida gap borar ekan, eng avvalo, dinning davlatdan ajratilishi tamoyilini ta'kidlash zarur bo'ladi. Bu haqda konstitutsiyamizning 61-moddasida shunday deyiladi: «Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi».[2]

[1] Ўзбекистон Республикаси Конституциясы. Тошкент, «Ўзбекистон»; 2003. 8-бет.
[2] Ўзбекистон Республикаси Конституциясы.-Т.: Ўзбекистон, 2003. 13-бет.

Bugungi kunda mamlakatimizda 16 ta diniy konvensiyaga mansub 2200 tadan ortiq diniy tashkilot emin-erkin faoliyat olib bormoqda. Diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan xolidir.

O'qituvchi shu bilan birga diniy tashkilotlar davlatdan ajratilgan bo'lsa-da, bu dinning jamiyatdan ajratilganini anglatmasligini talabalarga alohida ta'kidlashi zarur. Din va jamiyat hayotidagi aloqadorlikdan din va dunyoviy davlat munosabatini belgilovchi boshqa bir tamoyil- din sohasida kechayotgan o'zgarishlarni xolis va ilmiy o'rganish va shundan kelib chiqib, ijobiy jarayonlar rivojiga yanada kengroq imkoniyat yaratish, salbiy holatlarning oldini olishdir.

Davlatning dinga bo'lgan munosabatini ifoda etuvchi yana bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni xalq ma'naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi. Bunga asos qilib kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy yo'nalishlaridan biri ta'lim jarayonida, yoshlarda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni qaror toptirishda diniy tashkilotlar imkoniyatlaridan foydalanish ekanini aytib o'tish joiz. I.A.Karimov Ikkinchi chaqitriq Oliy Majlisning o'n to'rtinchi sessiyasida so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek, «Mamlakatimizni demokratik tamoyillar, ilm-fan yutuqlari, yuksak texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish bilan birga, muqaddas dinimizni, milliy o'zligimizni asrab-avaylab yashashni maqsad qilib qo'yganmiz»[1]

O'zbekiston Respublikasining din va diniy tashkilotlar bilan munosabati, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tegishli moddalarida aks etgan vijdon erkinligi, shuningdek, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» qonun xalqaro hujjatlardagi talablarga mos tuzilganligi bilan ajralib turadi.

Prezident I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida O'zbekiston dunyoviy davlat sifatida rivojlanar ekan, din bilan munosabatini quyidagi tamoyillarga asoslangan holda amalga oshirilayotganini ta'kidlagan edi:

[1] Каримов И.А. Ватанимиз тинчлиги ва хавфсизлиги ўз куч-кудратимизга, халқимизнинг букилмас иродасига боғлиқ.-Т.: Ўзбекистон, 2004. 8-бет.

1. Dindorlarning diniy tuyg'ularini hurmat qilish;
2. Diniy e'tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
3. Diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta'qib qilishga yo'l qo'ymaslik;
4. Ma'naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot yo'llarini izlash zarurati;
5. Dindan buzg'unchilik maqsadlarida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmasligini e'tirof etish.

O'qituvchi talabalarga Prezident I.A.Karimovning «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarining diniy ekstremizm va fundamentalizm masalasiga bag'ishlangan alohida paragrafidagi xulosalarga murojaat etishlarini ta'kidlab mavzuga yakun yasaydi.

5.Mustaqillik: dinga va diniy tashkilotlarga munosabatning o'zgarishi

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, dinga va diniy tashkilotlarga munosabat tubdan o'zgardi. Bu o'zgarishlarning mohiyatini va ahamiyatini teran anglab etmoq uchun sobiq Sho'ro davrida dinga va diniy qadriyatlarga nisbatan bo'lgan salbiy munosabatni bilish bizni o'ylash va fikr yuritishga, mustaqillikning qadrini anglashga yo'llaydi.

Sobiq Sho'ro davrida «Din xalq uchun afyundir», «Din ma'naviy og'uning bir turidir» degan g'oya asosida dinga ateistik yondoshuv shakllangan edi. Bu esa, amalda fuqarolarning vijdon erkinligini kamsitish, diniy qadriyatlarga nisbatan ma'lum ma'noda salbiy munosabatning shakllanishiga olib kelgan edi. Kommunistik mafkuraning yalovbardorlari deyarli 70-yil mobaynida daxriylikka asoslangan jamiyatni qurishga harakat qildilar. Oqibatda halqimizning ma'naviy boyligi bo'lgan diniy ruhdagi kitoblar xalq ko'zidan yashirildi, ko'plari yo'qotildi. Din ravnaqi yo'lida zahmat chekkan Al-

Buxoriy, At-Termiziy, Baxouddin Naqshband, Moturudiy, Zamaxshariy kabi o'nlab buyuk bobokolonlarimiz yaratgan ma'naviy meros reaktsion madaniyat deb qoralandi.

Diniy-ma'muriy obidalar, ulug' allomalar mangu uyquga ketgan maqbaralar qarovsiz, tashlandiq holga kelib qoldi. Bunga istagancha misol topiladi.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston fuqarolari uchun tom ma'nodagi vijdon erkinligi ta'minlandi.

Milliy va diniy qadriyatlarimiz qayta tiklandi va tiklanmoqda. Jumladan Ramazon va Qurbon xayitlari 1990-yildan boshlab har yili ommaviy ravishda, emin-erkin bayram sifatida nishonlanib kelinmoqda.

Diniy-ma'rifiy sohada Imom Buxoriy, Imom Moturudiy, Imom at-Termiziy, Baxouddin Naqshband, Burxoniddin Marg'inoniy va boshqa ulug' mutafakkirlarimizning yubileylari o'tkazildi.

Mustaqillik tufayli respublikamiz fuqarolari Haj safariga borish, muqaddas qadamjolarni ziyorat qilish imkoniga ega bo'ldilar. Agar o'tmishda sobiq Sho'ro bo'yicha har yili 25–30 kishi Hajga borgan bo'lsa, 1991-yilda O'zbekistondan 1500 kishi, 2003-yilda 3800 nafar kishi Haj ibodatini bajarish imkoniga ega bo'ldi. Mustaqillikning o'tgan o'n uch yili davomida ja'mi 48000 dan ortiq yurtimiz fuqarolari Haj va Umra kabi diniy farzni ado qilish imkoniga ega bo'ldilar[1].

Mavzuni yoritishda mustaqillikkacha bor-yo'g'i 2 ta diniy o'quv yurti faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, hozirda ularning soni 10 taga etganiga talabalar e'tiborini qaratish zarur. Imom al-Buxoriy nomidagi Toshkent Islom institutini 1975–1990-yillar orasida 153 kishi, Mir Arab madrasasini 1950–1990-yillarda 272 kishi bitirgan bo'lsa, 1991–2003-yillar orasida ularni 4732 kishi bitirib chiqdi. Bu imomlarning diniy ma'lumot darajasi keskin oshganligini ko'rsatadi. Mustaqillik yillari o'rta-maxsus diniy ma'lumotga ega bo'lgan imomlar ulushi 2,6 foizdan

[1] Қаранг. Жўраев У., Саиджонов Й. Дунё динлари тарихи. «Шарқ» нашриёт-матбаа концернининг бош таҳририяти. Тошкент, 1998., 13-бет.

47 foizga, oliy diniy ma'lumotga ega bo'lganlarning ulushi 1,6 dan 23 foizga o'sdi.

O'tgan yillar davomida xalqimizning ma'naviy boyligi bo'lgan noyob manbalarni tizimli o'rganish yo'lga qo'yildi. Ularning natijasi o'laroq, Imom Buxoriyning hadislar to'plami 4 jildda, Burxoniddin Marg'inoniyning «Al-Hidoya»si, Imom at-Termiziyning «Sunan at-Termiziy» asarlari o'zbek tilida ilk bor nashr etildi. Muqaddas Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi 2 marotaba nashr etildi.

Buyuk diniy ulamo va mutafakkirlarning yubileylari muntazam o'tkazilib kelinmoqda, maqbaralari ta'mirlanib xalqimizning ziyoratgohiga aylantirilmoqda. Chunonchi 1993-yilda Baxouddin Naqshband tavalludining 675-yilligi; 1995-yilda Najmiddin Kubro tavalludining 850-yilligi; 1998 yilda Imom Buxoriyning 1225-yillik; 2000-yilda Imom Moturudiyning 1130-yilligi va Burxoniddin Marg'inoniyning 910-yilligi; 2001-yilda «Avesto» yaratilganligining 2700-yilligi; 2003-yilda Abduxoliq G'ijduvoniyning 900-yillik yubileylari nishonlangan bo'lsa, 2004-yilda Hoja Axror Valiy tavalludining 600-yilliklari nishonlandi. Mana shularning hammasi mustaqillik yillari O'zbekistonda vijdon erkinligi, din, diniy tashkilotlar va dindorlarga nisbatan davlat siyosatida tub o'zgarishlar bo'lganligini isbotlovchi dalillardir.

Mustaqillik yillari dinning jamiyatdagi mavqei tiklandi, barcha diniy uyushmalarga, mazhab va jamoalarga qonun doirasida ochiq va dahlsiz faoliyat imkoniyati yaratildi.

O'zbekiston ko'pmillatli, ko'p konvensiyali davlatdir. Yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashab, turli dinlarga e'tiqod qiladilar. Bunday sharoitda diniy bag'rikenglik mamlakatimizda qurilayotgan demokratik jamiyatning asosiy tamoyillaridan biri bo'lib qolayotganligi tabiiy xoldir.

«Diniy bag'rikenglik g'oyasi xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi»[1].

Azal-azaldan diyorimizda islom, nasroniylik, iudaizm kabi dinlar yonma-yon yashab kelgan. Tariximizning eng murakkab, og'ir damlarida ham ular o'rtasida diniy asosda mojaro va ziddiyatlar bo'lmagan. Hozirda Vatanimizda turli dinlar va din vakillari o'rtasida umumbashariy qadriyatlar asosida birodarlikni mustahkamlashga muhim ahamiyat berilmoqda. Bunda respublikamizda mavjud bo'lgan 16 ta diniy konvensiya birlashmalari faoliyati katta ahamiyat kasb etayotir. Ularning o'z faoliyatini amalga oshirishi va mamlakat hayotida faol ishtirok etishi uchun hamma sharoitlar yaratilgan.

Bu boradagi huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida» gi qonunda o'z ifodasini topgan. Diniy bag'rikenglik g'oyasining amaldagi tasdig'ini 1995-yilda musulmon va xristian ilohiyotchilari ishtirokida «Bir samo ostida» mavzuidagi xalqaro xristian-musulmon konferensiyasi; shuningdek, Rus pravoslav cherkovi Toshkent va O'rta Osiyo eparxiyasining 125-yilligi hamda Evangel – Lyuteran jamoasining 100-yilligi nishonlanganligida; hamda 1998 yildan Toshkent Pravoslav diniy seminariyasi, Samarqand Protestant seminariyalari faoliyat ko'rsatib kelayotganligida ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda din va diniy tashkilotlarga nisbatan munosabatning tubdan o'zgarganligini ko'rsatuvchi dalillardan yana biri Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 23 avgustdagi «Din sohasidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni va faoliyatini yanada takomillashtirishda ijtimoiy ko'mak va imtiyozlar berish to'g'risida» gi 364-qaroridir. Ushbu qarorga muvofiq:

[1] Миллий истиклол гояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Тошкент. «Ўзбекистон» 2000 йил. 60-бет.

1. O'zbekiston Musulmonlar idorasi tasarrufidagi diniy bilim yurtlari diplomlari davlat ta'lim tizimidagi attestatsiya haqidagi hujjat bilan tenglashtirildi.
2. Diniy tashkilotlar tomonidan to'lanadigan kommunal to'lovlar aholidan olinadigan ta'rifga tenglashtirildi.
3. Bir qator ziyoratgohlar O'zbekiston Musulmonlar idorasi tasarrufiga o'tkazildi.

Shunday qilib, mazkur mavzuga xulosa qilib shuni aytish joizki, mustaqillik yillari O'zbekiston davlatining din va diniy tashkilotlar bilan munosabatining asosiy tamoyillari bu borada mavjud xalqaro me'yor (normalar)ga asoslangan holda ishlab chiqildi. Bu esa., O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Vijdon erkinligi to'g'risidagi 31-moddasida hamda 1998 yil 1 mayda Oliy Majlis sessiyasi tomonidan qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunda to'liq o'z ifodasini topgan.

Mazkur mavzu to'g'risida yanada to'liqroq ma'lumotga ega bo'lish uchun talabalarga yuqorida qayd etilgan Qonunning har bir bandi mazmun va mohiyati bilan tanishib chiqishlarini tavsiya etamiz. Bu esa, talaba-yoshlarda mustaqillik yillari mamlakatimizda din va diniy tashkilotlarga munosabatning ijobiy tomonga tubdan o'zgarganligi to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishlariga yordam beradi.

2-MAVZU: DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZM – JAMIYAT BARQARORLIGIGA TAHDID

Dars o'tish texnologiyasi:

Ushbu mavzuni o'rganish jarayonida o'quvchilar kichik guruhlarga ajratiladi.

Mavzu va undan kutilayotgan natijalar e'lon qilinadi.

Guruhlar vahhobiylik va uning paydo bo'lishi, diniy ekstremizm va terrorizm haqida o'zaro fikrlashib, navbat bilan o'z mulohazalarini bildiradilar.

"So'z o'yini" da guruhlar jildxatlar tanlab, ularda joylashtirilgan ma'lumotlardan vahhobiylik, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizmga oid ma'lumotlarni ajratadilar. Bu mashq uchun bir daqiqa vaqt beriladi va natijalar doskada yoritiladi, izohlanadi.

Yana bir mezon muqaddas dinimiz haqidagi fikrlar ham o'rganiladi.

O'qituvchi "Islom dini" so'zi yozilgan format qog'ozlarni guruhlarga tarqatadi. Guruhlar tarqatilgan qog'ozlarda klaster mashqini bajarib bo'lgach, o'qituvchi so'zlarni mantiqiy guruhlashtirish to'g'risida topshiriq beradi. Masalan: ta'limiy, tarixiy yoki tarbiyaviy yo'nalishlarda guruhlashtirish. Topshiriq bajarilgach guruhlarning fikr-mulohazalari tinglanadi.

Keyingi yillarda bizning mamlakatimiz qanday xavf-xatarlar ostida qolgani, tinch-osoyishta hayotimizga qarshi qanday xurujlar bo'lganligi hammamizga ma'lum.

Bunday nojo'ya harakatlar, avvalo, muqaddas dinimizning sha'niga dog' bo'lishini, oxir–oqibatda esa, ma'naviy hayotimizga salbiy ta'sir ko'rsatishini barchamiz chuqur anglab olishimiz va shundan xulosa chiqarishimiz zarur.

Xalqimiz azaldan islom dini va madaniyatiga beqiyos hissa qo'shib kelgan. Butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan buyuk allomalar va aziz-avliyolarimiz orasida Abdulxoliq G'ijduvoniy va Bahouddin

Naqshbandning muborak siymosi alohida ajralib turadi. Ota-bobolarimiz ulug' avliyo Bahouddin Naqshbandga chin dildan ixlos qo'yib, uni "Bahouddini Balogardon" deb ta'riflab kelishida teran ma'no bor. Uning "Diling Ollohda, qo'ling mehnatda bo'lsin" degan hayotbaxsh hikmati dinimizning olijanob ma'no-mohiyatini yorqin ifodalab, xuddiki shu bugun aytilgandek jaranglaydi.

Bu borada "Chechanlik" o'yini o'quvchilarning hadislarni yoddan bilishlari darajasini aniqlashga yordam beradi.

Hadislarning yarmi yozilgan qog'ozlarni tanlab olgan guruh a'zolari hadisning davomini yoddan aytishlari kerak bo'ladi, agar davom ettira olmasalar boshqa guruh a'zolari shartni bajarishlari mumkin.

Keyingi mashg'ulot jadval yordamida qiyosiy tahlil bo'lib, bunda o'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar (-) salbiy yoki (+) ijobiy baholanadi.

Qiyosiy tahlil jadvali

T\R	Milliy qadriyatlar	Davlat munosabati		Jamiyatdagi o'rni		Ruhiy qoniqish	
		Sobiq ittifoq davrida	Mustaqillik davrida	Sobiq ittifoq davrida	Mustaqil-lik davrida	Sobiq ittifoq davrida	Mustaqil-lik davrida
1.	Milliy meros						
2.	Islom dini						
3.	Buyuk allomalar va ularning ilmiy merosi						
4.	Tarixiy qadamjolar						

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun o'quvchilar 10 kishidan iborat 3 ta guruh tashkil etadi va "Charxpalak" mashqi o'tkaziladi. Buning uchun har bitta kichik guruhga alohida sarlavhali plakatlar va turli rangdagi markerlar tarqatiladi:

1. Vahhobiylikning yuzaga kelishi va asosiy g'oyalari...
2. Diniy fundamentalizm va ekstremizm tushunchalari: mohiyati va mazmuni...
3. Missionerlik tushunchasi, mazmuni va mohiyati...
4. Musulmon dunyosi va diniy ekstremizm...
5. Diniy ekstremizm va uning jamiyat barqarorligiga tahdidi

Guruhlar har bir plakat bilan 3 daqiqa davomida ishlaydi to o'z plakati qaytib kelgunicha, ya'ni uch marta plakatlarni o'zaro almashadi. Mashg'ulot oxirida har bir guruh o'z plakatini taqdim etadi.

Ushbu mashg'ulotni integral texnologiyalar, ya'ni bir-biriga bog'lanib, dars davomida uning yakunini yasovchi samarali natijasini ta'minlovchi usullar tashkil etadi. Ushbu usullar o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini, o'z-o'zini o'qitish jarayonini uzviy bog'liq ravishda rivojlantiradi. Mavzu bo'yicha mukammal bilimlarga ega bo'lish imkoniyatini yaratadi.

1.Vahhobiylikning yuzaga kelishi va asosiy g'oyalari

Vahhobiylik paydo bo'lishi arafasida Arabiston Yarim orolidagi shart-sharoit va vahhobiylikning ildizlari. Biz bu mavzuni o'rganishdan oldin vahhobiylik tarixi haqida asosiy manba bo'lib xizmat qilayotgan A.M.Vasilevning "Puritane Islama?" (M.Nauka, 1967), Yu.Abdullaevning "Vahhobiylik tarixi" (T.1999) kitoblari va Saudiya Arabistoni tarixi bilan yaxshi tanish bo'lishimiz lozim. Ayni paytda, sho'ro davrida nashr etilgan adabiyotlarga tanqidiy yondashishni unutmaslik maqsadga muvofiqdir.

Undan tashqari, vahhobiylikning kelib chiqishi haqida Yu.Abdullaevning "Maqsad asli nima edi?" (O'zbekiston adabiyoti va

san'ati, 1998 yil 27 mart), H.Hotamov, Sh.Hamroevlarning "Ko'ngildagi buzilish" (Xalq so'zi, 1998 yil 4,5,7 mart) maqolalar turkumida qimmatli ma'lumotlar bor.

Vahhobiylik haqida evropaliklar, shuningdek,, arab, turk, rus sharqshunoslari XIX asrdayoq yirik tadqiqotlar yaratishgan bo'lsa-da, bu haqda bizning matbuotimizda yaqin vaqtlargacha to'la ma'lumot beruvchi asar yoki maqolalar chop etilmagan. Vahhobiylikning o'zi haqida keyingi yillarda ba'zi kishilar og'zidan yarim yorti ma'lumotlar eshitilgan yoki din vakillari Imom A'zam mazhabiga qarshi fikrlar aytilganda muxoliflarga qarshi chiqqanlarini hisobga olmaganda, ko'pchilik aholi bu harakat yoki oqim haqida etarli ma'lumotga ega emas edi.

Shuning uchun ham, vahhobiylikning ildizlariga nazar solish, uning kelib chiqish sabablarini tahlil qilish zarur.

Albatta, har bir hodisaning vujudga kelishiga aniq omillar sabab bo'ladi. Bu fan tilida ob'ektiv yoki sub'ektiv sabablar, yoki hodisani vujudga keltirgan vaziyat, deb yuritiladi. Vahhobiylikning paydo bo'lishiga ham o'ziga xos sabablar bor edi.

Vahhobiylik paydo bo'lishi arafasida Arabiston Yarim orolida feodal, yarim qullik munosabatlari xukm surardi. Viloyatlarda sinfiy bo'linish, karta belgilari, ko'chmanchi qabilalar o'rtasida o'zaro birodarqushlik urushlari davom etardi. Shu sababli, mamlakatni yagona markazga birlashtirish ijtimoiy zarurat edi.

Ikkinchidan, Arabiston Yarim oroli bu davrda, garchi, rasmiy mustaqil hisoblansa-da, Usmon imperiyasi tarkibida bo'lib, bu saltanat yildan-yilga yemirilib bormoqda va uning tarkibidagi hududlar mustaqillik uchun harakat boshlagan edilar.

Uchinchidan, butun Arabiston Yarim orolida Usmonli turklar hukmronligi davrida hanbaliy mazhabiga zid o'laroq, bir qator "yangiliklar" kirgan edi. Jumladan, muqaddas joylarga, ya'ni Islomdagi sahobalar, yirik diniy arboblar, avliyolar, so'fiylarga sig'inish avj oldi. So'fiylar musiqani tashviqot qildilar va ularning yig'inlari musiqasiz o'tmas edi. Ko'p joylarda tarkidunyochilik, bangilik, folbinlik, yulduzlarga qarab bashorat qilish, ziyoratgoh joylardan mushkulni oson qilishni so'rash, mozorlarga qurbonlik qilish odat tusiga kirib qoldi. Magiya, animizm va fetishizm belgilari ham mavjud edi. Mana shunday

sharoitda Islomni dastlabki uch asridagi holatiga qaytarishni tashviqot qilib vahhobiylik paydo bo'ldi.

Muhammad Ibn Abdul Vahhob Ibn Sulaymon – vahhobiylik asoschisi

Muhammad ibn Abud Vahhob ibn Sulaymon 1703-yilda Arabiston Yarim orolidagi, Najd viloyatining Ayayna shahrida tug'ildi. Uning otasi qozi edi. Muhammad Abud Vahhob 10 yoshida Qur'onni o'qib chiqadi va 12 yoshida tafsirni egallaydi, jamoat ibodatida qatnashadi va uylanadi. "Qo'shni davlatlarda", ya'ni Hijoz, Basra, Xas, Bag'dod, Hamadon, Xalab, Damashq, Quddus va Qohirada bo'ladi. Makka va Madinani borib ko'radi. Uni yoshligidan ustozi Abdullo ibn Ibrohim ibn Sayfo hanbaliy mazhabi bo'yicha vahdoniyat (yakkaxudolik) aqidasi bo'yicha tarbiyaladi va bu sohada juda ko'p kitoblar bilan ta'minladi. Ayniqsa, uning dunyoqarashida Ibn Taymiya asarlari katta rol o'ynadi, chunki Ibn Taymiya hatto hanbalizmning ham ba'zi tomonlarini inkor etuvchi ashaddiy vahdoniyatchi bo'lib, undan 500 dan ortiq kitob qoldi.

Vahhobiylar ta'limoti umumiy qilib aytganda, Islom mohiyatiga, shariatga asoslangan bo'lib, ular Islomni Qur'on va hadislar asosida poklashga, Muhammad (s.a.v.) davridagi (ya'ni asri saodatdagi) asli holiga keltirishga, arablarni chinakam Islom bayrog'i ostida birlashtirishga harakat qilganlar. Ular muqaddas joylarni ziyorat qilishni, avliyo va mozorlarga sig'inishni, zohidlikni qoralaydilar. Oddiy kiyinish, kamtarona hayot kechirish, ayshu ishratga va ko'p boylik to'plashga berilmaslikni targ'ib qiladilar. Shu bilan ular musiqani, qo'shiq aytishni qoralab, ma'naviy madaniyatga qarshi chiqdilar.

Vahhobiylikning yuzaga kelishida ingliz josuslik xizmatining roli

Yu.Abdullaevning maqolasida ta'kidlanishicha, vahhobiylikning paydo bo'lishiga, hatto ingliz josuslik xizmati ham aloqador ekan. Masalan, turk islomshunos olimi M.Siddiq Kumushning 1997-yili Istanbuldagi "Haqiqat kitobi" nashriyotida chop etilgan "Ingliz josusining aytganlari yoki Angliyaning Islomga qarshi dushmanlik faoliyati" kitobida yozilishicha, Muhammad Abdul Vahhob tahsil olayotgan vaqtlari ingliz josusi Xemper bilan uchrashib, uning ta'siriga tushib qoladi. Buyuk Britaniya qirolligi Mustamlakalar vazirligi o'sha yillari musulmon Sharq mamlakatlariga – arab, fors, turk tillarini

mukammal biladigan, o'zini musulmon deb yuritadigan ko'plab josuslarni yuborgandi. Keyinchalik, Xemper o'z xotiralarida Muhammad Abdul Vahhobni qanday uchratganini va uni o'z manfaatlari yo'lida foydalanish uchun qo'lga olganligini yozadi.

Muhammad Abdul Vahhob Basrada bo'lgan chog'ida dastlab "haqiqiy yakkaxudolikka" qaytishni targ'ib qila boshlaydi, lekin u yerdan quvib yuboriladi. 1726–27-yillarda Huraymilda yashab, o'z g'oyalarini targ'ib qilishga tushadi va hatto otasi bilan arazlashib qoladi. Ko'p o'tmay Bag'dodga ketadi va u erda boyvuchcha xotinga uylanadi, lekin u xotin to'satdan vafot etib, butun boyliklar Muhammad Abdul Vahhobga qoladi. Shundan keyin u Isfaxon va Qum shaharlariga borib Islom falsafasini o'rganadi va Ibn Hanbalning g'oyalariga butunlay beriladi.

Yuqorida kitobda yozilishicha, asta-sekin Xemper yigit ongida islom aqidalari mustahkamligiga ham shubha uyg'ota boshlaydi. Masalan, ro'za tutish va besh vaqt namoz o'qishni doim ham shart emasligi kabi "fikri Qalat" xatti-harakatlarlarni uqtiradi.

"Namoz o'qishdan kuzatilgan maqsad Ollohni yodga olishdir, - deydi u Muhammad. Demak, namoz o'rniga faqat Ollohning nomini cheksiz takrorlab, salovat aytsa ham bo'laveradi".

Bir kuni Xemper Muhammad Abdul Vahhobga: "Yo Olloh! – deya hayajon bilan murojaat qiladi, - Ollohning amri bilan shu kecha tushimda janobi Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo sallollohu alayhi vassallamni ko'ribman. U kishi taxti muborakda o'tirganmishlar. Atroflarida chahoryorlar, sahobalar, ulamolar. Shu pallada sen kirib kelding. Yuzingdan porloq nur taralardi. Payg'ambarga yaqinlashding. Shunda ul zot o'rinlaridan turib peshonangdan o'pdi va:

- Ey mening adashim, birodarim, - dedilar, - Sen mening davomchim, diniy va dunyoviy ishlarda xalifam bo'lgaysan!

- Yo Ollohning rasuli! Men ta'limotimni odamlarga targ'ib qilgani cho'chiyapman! – deya javob qilding.

Payg'ambarimiz esa,:

- Sen barcha buyuklardan buyuksan! Cho'chima! – deya lutf qildilar".

Bu yolg'on tushni eshitgan Muhammad Najdiy go'yo qanot bog'lab samoga parvoz qiladi va o'zini mujtahid-Islomda ijtihod huquqiga ega

bo'lgan, ya'ni mustaqil ravishda diniy-aqidaviy masalalar bo'yicha xulosa bera oladigan va hukm chiqara oladigan shaxs, deya e'lon qiladi. Bu esa, islomiy masalalarda muslimlar ongida o'zgartirish yaratish uchun bag'oyat qulay omil edi.

Xemper asta-sekin bu yigitning qo'ltig'iga kirib, ongidagi islomiy e'tiqodni bid'at bilan almashtirishga harakat boshlaydi. Islomni chuqur o'rgangan josus go'r, ammo o'zini shariat ilmining eng buyuk bilimdonlaridan hisoblovchi mullavachchani turli yo'llar bilan aynitishga kirishadi. Masalan, aroniylar orasida mavjud bo'lgan siyqa-nikoh an'anasini dalil qilib, yigitni biror ayol bilan vaqtincha birga yashashga undaydi.

Xemper Muhammadni yana bir ingliz josus ayoli Sofya bilan tanishtiradi. Sofya ham musulmon ayoli qiyofasida Basrada razvedka ishlari bilan shug'ullanadi. Muhammad Abdul Vahhob Basra va Damashq shaharlarida tahsil olib qaytgach, ona yurtida uch oy chillada o'tiradi. Uch oy hamma tomoni o'rab tashlangan uy ichida yakka-yolg'iz xudoga toat-ibodat qilib vaqt o'tkazadi. Yurtdoshlari uni katta bilim egasi – islomiy olim, ulamo, deya bilganlar. Ingliz razvedkasi topshirig'iga muvofiq Xemper uni shu yerdan ham izlab topadi. Muhammad Xemperni o'zining quli deb aytadi va doim yonida olib yuradi. Muhammad Abdul Vahhob madrasa ko'rgan olim, mujtahid sifatida eldoshlari orasida birmuncha obro' qozongach, taxminan, milodiy 1730–1740-yillar o'z aqidalarini ommaviy tashviq qilishga kirishadi. Xemperning yozishicha, u Muhammad Abdul Vahhobni pul va boshqa narsalar bilan ta'minlab turgan. Ba'zi va'zlardan keyin g'azabga kelgan musulmonlar yangi dohiyni o'ldirish maqsadida unga tashlanishgan ham. Shunda Xemper Muhammad Abdul Vahhobni muhofaza qilish uchun tanqo'riqchilar yollagan.

Vahhobiylikning kelib chiqishini tushuntirar ekanmiz, Islom olamini bo'lib tashlashda va "nifoq solu hukmronlik qil" degan aqidani doimo olg'a surib kelgan mustamlakachilarning siyosiy nayranglariga alohida e'tiborni qaratish va uni yurtimiz tarixi bilan bog'lashimiz lozim. Talabalar ongiga singdiradigan g'oyalar doimo "bu harakatlar, bu oqimlar kimga xizmat qiladi, ularning orqasida kim turibdi, xalqimizga qanchalik foydasi bor", degan oddiy haqiqatni anglab olishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Vahhobiylikning Islomga har qanday "yangilik" kiritilishiga qarshi faoliyati. Biz ushbu savolni o'rganishga kirishar ekanmiz, oldingi darslarda foydalanilgan adabiyotlardagi fikrlarni davom ettirib, Islomda "yangilik nima?" degan savolga javob topishimiz zarur. Shuning uchun "ijmo'" so'zining ma'nosini talabalarga tushuntirib berishimiz va hanafiylikning qanday kelib chiqqanini izohlashimiz lozim. Bunda Qur'oni Karim va hadislar kishilik jamiyati duch keladigan ko'plab muammolarga to'la javob bera olishni aytishimiz va undan unumli foydalanish lozim.

Shuningdek, vahhobiylikning asosiy g'oyalari A.M.Vasilevning "Puritane islama?" kitobida ancha batafsil yoritilgan va Yu.Abdullaevning "Maqsad asli nima edi?", H.Hotamov, S.Hnar, Sh.Hamroevlarning turkum maqolalarida bir qator qo'shimchalar keltirilgan.

Vahhobiylar o'z davrida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoitdan kelib chiqib g'oyalarini ilgari surdilar. Birinchi navbatda, Islomga kiritilayotgan yangiliklarga (ijmo'ga), ya'ni Qur'on va hadisda bo'lmagan masalalarni ruhoniylar fatvosi bilan hayotda qo'llashga qarshi chiqadi. "Islomga yangiliklar kiritish eng katta gunohdir", - deydi Muhammad Abdul Vahhob o'zining islom jamoalari qarshiligiga uchragan "Kitob al-Tavhid" asarida.

Muhammad Abdul Vahhob Islom uchun faqat Qur'on va sunnaga itoat etishgina farz, deb biladi, shuningdek,, Abu hanifa, Imom Ahmad ibn hanbal, Imom Molik ibn Anas, Imom Muhammad ibn Idris ash-Shofe'iy kabi to'rt mazhab peshvolari ta'limotini e'tirof etsa-da, ularning ko'pini qattiq tanqid qiladi, ulardan boshqa islom nazariyachilarining, hatto payg'ambar avlodlari-ning aytganlari, shuningdek,, hadislarda keltirilgan yo'l-yo'riqlarning ko'pi bekordir, deya ta'kidlaydi. Lekin Ibn Taymiya va Ibn al-qayyum ta'limotini to'la quvvatlaydi.

"Muhammad payg'ambar muslimlarga faqat Qur'on va sunnani qoldirdim, deganlar, biroq avlodlarim va mazhablar imomlarini ham qoldirdim demaganlar, - deya mulohaza qiladi u, - demak, musulmon odam sahobalar, ulamolar va muhaddislarning fikrlariga qanchalik qarshi chiqmasin, baribir Qur'on va sunna talablariga muvofiq komil musulmon bo'lib qolaveradi".

Xemperning aytishicha, Muhammad Abdul Vahhob muhaddislar, ayniqsa Imom al-Buxoriyning "Sahih al-Buxoriy" siga ancha qattiq hujum qilgan va unda keltirilgan hadislarning yarmi soxta va befoydadir deya isbotlashga uringan.

Yakkaxudolikning targ'ib qilinishi va bu sohadagi amaliy faoliyatlari.

Vahhobiylarning g'oyasi vahdoniyat (yakkaxudolik)ni mustahkamlash edi. Ular: "Ollohdan boshqa hech kim marhamat ko'rsatmaydi, madad bermaydi, farishtalar, payg'ambarlar (Ollohning vakillari), muqaddas joylar, avliyolar musulmonlarning gunohlari uchun Olloh oldida himoyachi bo'la olmaydilar", - deb ta'kidlashni xush ko'rardilar. Ularning fikricha, musulmonlar yakkaxudolikka amal qilmay qo'ygan.

Musulmonlar muqaddas joylarga ziyoratga boradilar, u erda sadaqa beradilar, qurbonliklar qiladilar, ulardan yordam so'rab iltijo qiladilar, ular muqaddas joylar yaxshilik yoki yomonlik qiladilar deb ishonadilar. Hatto toshlar va o'simliklarda Ollohning qudrati bor, deb sig'inadilar. Bu narsa yakkaxudolikka ziddir, deb ta'kidlaydilar. Payg'ambarning sahobalari va boshqa safdoshlarini yuqori ko'tarish shart emas, ularning qabrlari ustiga maqbaralar qurish shart emas, qabristonlarni obod qilib, ularni sanamlarga aylantirish, qabrlarga yodgorlik qo'yish mushriklikdir, deb hisoblaydilar.

"Hamma narsaning yaratguvchisi yakkayu yagona Ollohdir. Ollohga berilgan 99 ism, payg'ambar, chahoryorlar, avliyolarga sig'inish asli bid'atdir! Dinimizni Muhammad davridagi holiga keltirish, arablarni chinakam Islomning yashil bayrog'i ostida birlashtirish lozim. Islomning asosida vahdoniyat, ya'ni yakkaxudolik yotadi. Shu bois muqaddas joylarni ziyorat qilish avliyolar va mozorlarga sig'inish, zohidlik ayni kufrdir!" deb jar sola boshladilar.

Vahhobiylarning payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga alohida g'arazli munosabati bor edi. Ular Muhammad Olloh payg'ambarlik vazifasini yuklagan oddiy odam, deb hisoblardilar. Payg'ambarni ilohiylashtirish mumkin emas, unga sig'inish, undan narsa so'rash, uning qabriga sig'inish kerak emas, lekin hech narsa so'ramay qabrni ziyorat qilish mumkin, deb hisoblashgan. Payg'ambarni

yordamga chaqirish, undan homiylik qilishni so'rash mumkin emas. Ammo qiyomatda musulmonlar uchun Olloh oldida himoyachi bo'lishi mumkin. Uning nomi bilan bog'langan joylarni masjidlarga, ziyoratgohlarga aylantirish mumkin emas, kimki bunga amal qilmasa, Ollohga shirk keltirgan bo'ladi, deb tashviqot qilishardi.

Najd o'lkasi masjid va madrasalar minbarlarida ovozi baland, yosh mujtahidning va'zlari tez-tez yangray boshladi. Tevarak-atrofida uning izdoshlari, shogirdlari ko'paydi.

"Ey musulmonlar! Nega avliyolar maqbaralarini hojasi etagini o'ngan qullarday ko'z yosh ila tavof etasiz? Axir ular ham siz va biz kabi oddiy musulmonlar-ku! Axir, payg'ambarimiz yolg'iz Ollohgagina najot izlab murojaat eting demaganmidilar?! Makka va Madinada serhasham ziyoratgohlar nechun? Dini Islomni o'z g'arazli manfaatlariga moslashtirib olgan soxta avliyolar ta'siridan saqlaning! Ularning kitoblarini o'qimang va ularga ergashmang? Ollohgagina ibodat qiling! Islomdagi to'rtala mazhabning hammasi bid'at! Ularga ergashganlar, kofirdirlar. Payg'ambarga ibodat qilmangiz, zero u siz bilan Olloh o'rtasidagi elchi, xolos. qiyomat kuni kimga qanday jazo berish faqat Ollohning ishi. Muhammad sizga shafoat qilishi mumkin. Ollohdan o'zgaga ibodat qilganlar – mushrikdirlar!" kabi va'zlar ko'plarga ta'sir qila boshladi.

Vahhobiylarning kurash ob'ektlaridan yana biri sehrgarlik, afsungarlik, duoxonlik, jodugarlik, avroqchilik, folbinlik va hakozolarga qaratilgan edi. Ular turli xil ins-jinsdan, ko'zdan asrovchi tumorlarni taqib yurishga ham qarshi chiqishdi.

- Chin musulmonlar zebu ziynat taqmasliklari, oddiy kiyinishlari darkor. Zero, payg'ambarlarimizning o'zlari sodda, xalqona kiyinganlar. Kamtar – xokisor bo'ling! Aysh-ishrat, dabdabaga berilish kufrlikdir! Umrini xudo yo'liga emas, balki boylik to'plashga bag'ishlaganlarning joyi do'zaxdir! Yagona Ollohga ibodat qiling va undan qo'rqing! Musiqa tinglash va qo'shiq aytish, rasm chizish va boshqa engiltakliklar gunohi azimdir!

- Vahhobiylar kimlar o'zlariga qo'shilsa barcha majburiyat va qarzlaridan ozod bo'ladilar, deb e'lon qildilar, natijada ularning tarafdorlari ancha ko'paydi. Vahhobiylar tamaki va nasha chekishni,

musiqa chalish, qo'shiq aytishni, raqsga tushishni, rasm chizishni, ipak kiyimlar kiyishni, katta bayramlar o'tkazishni ta'qiqladilar.

Filologiya fanlari doktori, professor hoji Ismatulloh Abdulloh shunday yozadi: "Vahhobiylar ta'limotida hayotdagi ba'zi salbiy illatlarga qarshi kurashish, mol-dunyo, hirsu havodan voz kyechish, Islomga zid urf-odatlardan tiyilish, halollik, poklik kabi ijobiy g'oyalar borligini inkor etish adolatdan emas" ("O'zbekiston ovozi", 1998 yil 5 mart). Darhaqiqat, har qanday ta'limot xalq orasiga singishi uchun ijobiy xislatlarga ega bo'lishi lozim yoki o'sha muhitdagi jamiyatni boshqarib turgan qatlamning manfaatlariga mos kelishi kerak. Aks holda, bu ta'limotning beshikdaligidayoq janozasi o'qiladi. Vahhobiylik o'z davrida ham ichkaridagi hukmron sinflar, ham tashqaridagi qudratli kuchlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Lekin uning ba'zi ijobiy tomonlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni, ma'naviy yuksalishni, madaniy rivojlanishni bo'g'ib qo'yadigan, eng muhimi, uni niqob qilib, hokimiyatga intilishini keltirib chiqaradigan salbiy tomonlar soyasida qolib ketadi.

Vahhobiylar fanatizm va "muqaddas urush" tarafdorlari bo'lib chiqdilar. Muhammad Abdul Vahhobning akasi Sulaymon uzoq vaqt ukasining g'oyasiga qarshi chiqadi. Xijoz tarixchisi Ibn Zayni Dahlan: "Bir kuni Sulaymon ukasi Muhammaddan Islomdan nechta ustun bor? – deb so'raydi. Ukasi unga beshta deb javob qaytaradi. Shunda Sulaymon "Yo'q, sen oltinchisini yaratding, chunki kim senga ergashmasa musulmon emas, deb e'lon qilding", deb javob qaytarganligini yozadi. Bundan ko'rinib turibdiki, ular o'z fanatizmi yo'lida hatto qarindosh-urug'larini, yaqinlarini ham ayamaganlar.

Shu sababli, ular hatto o'zlariga qo'shilmagan musulmonlardan ko'ra yahudiy va xristianlarga ham yumshoqroq muomala qilishgan. Ozgina soliq evaziga ularga uylarida ibodat qilishga ruxsat berishgan. Vahhobiylar qayerni hujum qilib bosib olsalar, qabristonlardagi maqbara, yodgorliklarni buzib tashlash g'oyasini olg'a surdilar va uni amaliyotda qo'lladilar. Bu bilan egallagan joylarida o'z ta'limotlarini, g'alabalarini mustahkamladilar. Natijada tarix uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab qimmatli yodgorliklar yo'q bo'lib ketdi. Vahhobiylar bundan tashqari, o'zlarining g'oyalariga to'g'ri kelmagan ko'plab ilohiyotchi olimlarning kitoblarini yoqib yubordilar.

Vahhobiylik g'oyasidagi fanatizm, ashaddiy, chidab bo'lmaydigan darajaga etdi. Ularning dushmani bo'lgan "g'ayridinlar" va "ko'pxudolik" xatti-harakatlarlarga nisbatan qazab har qanday shafqatsizlikni keltirib chiqarar edi. Ayni paytda, fanatizm vahhobiylarni jipslashtirar, tartib-intizomga tushirar va harbiy jasoratga undardi. Shunday qilib, vahhobiy bo'lmaganlarga qarshi muqaddas urush (jihod) e'lon qilish uchun g'oyaviy zamin yaratildi. Buning uchun mamlakatda siyosiy vaziyat ham yetilgan edi. XVII asrning boshlarida Najd vohasining amirligi Saud ibn Muhammad ibn Mikrin (saudiylar sulolasi asoschisi) qo'liga o'tdi. U 1725-yil vafot etdi va o'zaro urushlar natijasida o'g'li Muhammad ibn Saud amir bo'lib qoldi hamda qo'shni qabilalarga qarshi talonchilik urushlarini olib bordi. Amir Muhammad 1747-yilda vahhobiylar aqidasini tan olib, Abdul Vahhobga murid bo'ldi va ko'p o'tmay oddiy bosqinchidan din sofligi uchun "kurashchi" ga aylandi. Shunday qilib, vahhobiylik yuzaga kelganidan boshlab "g'ayridin" xatti-harakatlarlarga va "ko'pxudolik"larga qarshi "muqaddas urush" g'oyasiga hamda harbiy ekspansiya va bosqinchilik urushlari mafkurasiga aylandi. 1740-yilda Ibn Saudning maslahati bilan Muhammad Abdul Vahhob haj payti Makkaga borib, butun dunyodan yig'ilgan hojilar huzurida o'zini tanitib va'z aytadi. Aqidalarini sharhlaydi. Xuddi shu yili Muhammad ibn Saud Najd o'lkasini davlat deya e'lon qiladi va bu davlatda vahhobiylikning etakchi diniy oqim ekanligini rasmiylashtiradi. Yangi diniy oqim badaviylar o'rtasida keng tarqala boshlaydi. Zero, vahhobiylar odamlarni tenglik, birodarlikka chorlar, maishiy hayotdagi dabdabayu as'asaga chek qo'yishni talab qilar va bu g'oyalar oddiy savodsiz xalq ongiga yaxshi singardi.

Vahhobiylik bosqinchilik urushlari bayrog'i bo'lsa-da, Arabistonni Saudiylar boshchiligida birlashtirishga mafkuraviy asos bo'ldi. Ayniqsa, arablarni Islomning yashil bayrog'i ostida birlashtirish g'oyasi o'sha paytda arab yerlarini bosib olib hukmronlik qilayotgan Turkiyaga qarshi qaratilgan edi. Albatta, bu g'oyalar arablar ongini chulg'ab olsa nima ro'y berishini Xemper va uning maslakdoshlari yaxshi tushunardi.

Vahhobiylar bayramlar va unga bog'liq marosimlarni, muqaddas ziyoratgohlarni, avliyolarni inkor qildi, o'zlariga mos kelmagan mahalliy ruhoniylarni quvg'in qildi, egallagan joylaridagi avliyolar qabrlarini buzdilar. Muqaddas hisoblangan daraxtlarni kesib tashladilar va shu

bilan Arabistonda feodal tarqoqlikning g'oyaviy va ruhiy tayanchini yo'qotdilar. Chunki muqaddas joylari bo'lmagan vohalar o'zlari alohida ajralib turish bazasidan ajralar va ziyoratchilar xayru ehsonidan mahrum bo'lar edilar. Vahhobiylar dastlab Najd vohasini birlashtirishga harakat qildilar. Makka va Madinaga hatto payg'ambar qabriga ziyoratga borish ta'qiqlandi (faqat Ka'baga hajdan tashqari). Bularning hammasi hanafiy mazhabiga, turk hukmronligiga qarshi qaratilgan edi.

Natijada vahhobiylik bayrog'i ostida Markaziy Najd birlashtirildi va 60-yillarda qo'shni viloyatlarga hujum uyushtirilib, 1773-yillari Riyad shahri egallandi hamda ko'p o'tmay Markaziy Arabiston birlashdi.

1788 yilda Muhammad Abdul Vahhob Aziz ibn Saud davrida taxtni merosiy qoldirish huquqi haqida fatvo berdi. Vahhobiylarning Sharqiy Arabistonni istilo qilish chog'ida, 1792-yili Muhammad ibn Abdul Vahhob vafot etdi. Undan 20 ta xotin va 18 ta farzand qoldi. 5 o'g'il va bir qancha nevaralari yirik ruhoniylar bo'lib etishdilar.

Vahhobiylarning eng dahshatli qilmishlaridan biri 1802-yili aprelda yuz berdi. Shu kuni ular Karbaloga hujum qilib, Imom Xusayn masjidini vayron qildilar, uning oltin g'ishtlardan ishlangan gumbazini buzib, taladilar. 2 mingdan ortiq odamlarni qilichdan o'tkazdilar, hatto xomilador ayollar va bolalarni ham ayamadilar. Afsonaviy boyliklarni talab, shaharni vayronaga aylantirib ketdilar. Ularning davlati hududlari tezlik bilan kengaya boradi va 1806-yili karmatlardan so'ng, ikkinchi bo'lib vahhobiylar Makka shahriga bostirib kiradilar (ma'lumki, islomiylarning asosiy shaxobchalaridan hisoblangan karmatlar milodiy 930-yil haj vaqti Makkaga hujum qilib, uni talon-taroj etganlar. Hajga borganlarni o'ldirganlar, bir qismini qul qilganlar, Ka'butullohdagi Hajar al-Asvad, ya'ni qoratoshlarni parchalab, o'lja qilib olib ketganlar).

Fransuz islomshunos olimi A.Myusse o'zining "Islom" nomli kitobida tarixiy manbalarga asoslanib, vahhobiylarning Makkadagi vayronagarchilik ishlarini ta'riflagan. Ma'lum bo'lishicha, vahhobiylar ham muqaddas shaharni oyoqosti qilishda karmatlardan qolishmagan. Shahardagi o'nlab masjidlar va madrasalar buzib tashlangan va o't qo'yilgan. Ular faqat Ka'banigina buzishga jur'at etmaganlar. Minglab qop-qora, beliga faqat lungi taqib olgan juldur jangchilar Makkaning ko'cha va maydonlarida qozonlar osib, ovqat pishirar, shu yerda dam

olar edilar. Makkaliklarga tamaki chekish va ipakli kiyimlar kiyish man qilindi.

Vahhobiylar ko'p o'tmay Madinani ham bosib olishdi. Bu erda ham Makkadagi kabi xunrezliklar avj oldi. Payg'ambarimiz qabrlari ham poymol qilindi va u yerdagi xazina talandi. Vahhobiylar qabr yonida doshqozon qurib, uni oshxonaga aylantirishadi. Musulmon olamida misli ko'rilmagan besaranjomlik boshlanadi. Chunki, vahhobiylarning haj uchun soliqlarni oshirib yuborganligi va an'ana tusiga kirgan islomiy odatlarni tan olmasliklari natijasida haj yo'llari bekilib qolgan edi. Minglab musulmonlar Islomning besh asosiy ruknidan biri – haj qilish imkoniyatidan mahrum bo'ldilar. Vahhobiylarning ta'sir doirasi kengayib, hijoz va haj o'lkalaridan tashqariga yoyildi.

Vahhobiylarning qurolli guruhlari hatto Suriya va Iroq hududiga ham tez-tez bosqinlar uyushtirib turardi.

Mustamlakalar vazirligi vahhobiylar hukumatini haqli ravishda qullar bilan ta'minlab turardi, - deb yozadi Xemper. - vahhobiylar hukumati yo'l niqobi ostidagi o'n nafar jangovar ingliz ofitserini xizmatga oladi. Ular arab tilini va sahroda jang qilish taktikasini yaxshi o'rganadilar.

Biz o'z rejalarimizni shu ofiuerlar bilan muhokama qilardik. Har ikala Muhammad ham bizning ko'rsatmalarimiz bo'yicha ish yuritishardi. Mustamlakalar vazirligidan maxsus ko'rsatmalar bo'lmagan taqdirda, siz qiladigan ishlarimizni o'zimiz rejalashtirib olaverardik. Hamma ingliz ofitserlari mahalliy ayollarga uylanishdi.

Albatta, Angliya vahhobiylarni qo'llab-quvvatlash orqali, Turkiyani zaiflashtirmoqchi bo'lgan. Bu hol Turkiya hukmron doiralarini tashvishga qo'yishi tabiiy edi. Shu bois turk hukumati vahhobiylarga qarshi harbiy harakatlarni boshladi. Shu paytda Misr podshosi bo'lgan Muhammad Ali Istanbuldan vahhobiylarni tugatish, ular isyonini bostirish haqida buyruq oladi.

Milodiy 1811-yili Muhammad Alining qo'shinlari vahhobiylar bilan jangga kirishadi. Misr qo'shinlari asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, Hijozni vahhobiylardan ozod eta boshladilar. Makka va Madina shaharlari ham ular qo'lidan tortib olindi. Haj yo'llarining xavfsizligi ta'minlandi. Musulmonlar yana Makka va Madinani tavof qilish imkoniyatini qo'lga kiritdilar. Oradan etti yil o'tgach, milodiy 1818 yili Muhammad Ali

vahhobiylar hukumatini tor-mor qilishga muvaffaq bo'ldi. Lekin uni butunlay tag-tugi bilan yo'qotolmadi.

Vahhobiylik harakati Turkiya hukmronligidan qutulish harakatiga aylandi. Angliya bu harakatni qo'llab-quvvatlashda davom etdi. Masalan, mashhur ingliz josusi Lourens Aravisi uzoq muddat qo'zg'olonchilar orasida bo'lib, ularga yordam bergani ma'lum.

Vahhobiylik hozirga qadar ham Saudiya Arabistonida hukmron g'oya hisoblanadi. Bu oqimning izdoshlari Hindistonda Janubi-sharqiy Osiyo va Afrika mamlakatlarida ham uchraydi. Keyingi davrda esa, unga ergashuvchilar Pokistonda, Afg'onistonda, Tojikistonda ham paydo bo'ldi. Vahhobiylikni tarqatuvchilar O'zbekistonda ham faoliyat ko'rsatgan.

2.Diniy fundamentalizm va ekstremizm tushunchalari: mohiyati va mazmuni

O'qituvchi talabalarga masala bayonini oldiniga chor hukumatining, keyin sovet hukumatining ma'naviy-ma'rifiy sohadagi siyosatining mohiyati va undan ko'zlangan maqsad nima, g'oyaviy bo'shliq nima ekanini yana bir bor ta'kidlashdan boshlashi muhim. 130-yillik mustamlakachilik va mustabid tuzum davrida xalqimizni o'zining ma'naviy ildizlaridan ayirish, dinni jamiyat hayotidan siqib chiqarishga qaratilgan siyosat natijasida ma'naviyat va ma'rifat o'rnini ma'lum darajada jaholat egalladi. Yurtdoshlarimiz Qur'oni karim, Hadis, tasavvuf, shariat, fiqh ilmlari haqida umumiy tushunchaga ham ega bo'lmay qoldi.

Ana shunday sharoitda, mustaqillikka erishgan O'zbekistonga o'z ta'sirini o'tkazishga intilgan yovuz kuchlar islom omilidan g'arazli maqsadlarda foydalanishga harakat qildilar. Islom dinining sof g'oyalari niqobi ostida siyosiy hokimiyatni egallashga intildilar. Alloh, islom kabi so'zlar bilan nomlangan, eshitilishi jarangdor «Islom uyg'onish partiyasi», «Hizbulloh» («Alloh partiyasi») kabi partiya va tashkilotlar tuzib, mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag'darib tashlab islom davlati qurish, halifalikni qayta tiklashga harakat qildilar. Vaholanki, Islomda partiyalar tuzib, guruh-guruhlarga ajralib harakat qilish man etilgan. Bu haqda Qur'onning Oli Imon surasi, 103-oyatida shunday deyilgan: «Va

barchangiz Allohning arkoni (Qur'on) ga bog'laningiz va (firqalarga) bo'linmangiz».

Dinni asl holida saqlab qolish uchun harakat qilib odamlarni bir-biriga qarshi qo'yib, qon to'kishni tashkil qilayotgan, amalda esa, o'zining manfaatlarini o'ylayotgan kishilar Yevropada fundamentalistlar, O'rta Osiyoda esa, aqidaparastlar, deb ataladi.

Fundamentalizm so'zi lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, asos, poydevor ma'nosini bildiradi. Fundamentalizm barcha dinlarga hos bo'lib, unda dinning asli qanday bo'lsa, shundayligicha saqlab qolishga harakat qilinadi.

Fundamentalizm – ya'ni aqidaparastlik – ma'lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va shu yo'l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari suruvchilarning qarashlaridir. Diniy fundamentalizm – ma'lum din, shu jumladan, Islom dini aqidalarning o'zgarmasligini himoya qiladigan, vahiy va mo'jizalarning muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy, so'zma-so'z talqini tarafdori bo'lgan qarashdir. Bunday qarash tarafdorlari diniy aqidalarning har qanday majoziy talqiniga, izohlanishiga murosasizliklari bilan ajralib turadilar.

Diniy fundamentalizm – din aqidalarini so'zma-so'z talqiniga asoslangan e'tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo'yadigan, muayyan din, shu jumladan Islom dini e'tiqodi shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarning qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan tushunchadir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Islom fundamentalizmi – Qur'on va hadislarni so'zma-so'z talqin etuvchi, ilk islomga qaytishga qaratilgan aqidalarni targ'ib qiluvchi diniy-konservativ ruhdagi oqim tarafdorlarining qarashlari, deyishimiz mumkin. Islom fundamentalizmi vakillari islomning fundamental (asosiy) tamoyillari jamiyatning taraqqiyot yo'lini belgilab beradi, deb hisoblaydilar va faqat ularga amal qilishga da'vat etadi.

Ekstremizm so'zi fransuzcha – lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, mazmuni jamiyatdagi u yoki bu hodisa, jarayonlarga nisbatan keskin fikrlarni bildirilishi va qattiq tadbirlarni qo'llanilishi, yoki keskin fikr va choralarni yoqlovchi, uning amalga oshirilishiga tarafdor ma'nolarini

bildiradi. Bunday keskin fikrlar sog'lom yoki nosog'lom bo'lishi mumkin. Jamiyat uchun nosog'lom, uning taraqqiyotiga zid bo'lgan, jamiyatda, fuqarolar va millatlar o'rtasidagi munosabatlarda beqarorlik keltirib chiqaradigan keskin chora va fikrlarni ilgari suruvchi, ularni amalga oshirishga intiluvchi, uni yoqlovchilarni ekstremistlar deyiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, diniy ekstremizm u yoki bu dinning aqidalarini, qonun-qoidalarini kishilar hayoti va jamiyatga joriy etish, qaror toptirishda keskin chora va tadbirlar, zo'ravonlik qo'llashga aytishimiz mumkin.

Islom ekstremizmi – islomning qadimiy g'oyalari va ideallarini qayta tiklashni kuch ishlatish yo'li bilan amalga oshirishga qaratilgan diniy-siyosiy harakat. Bunday harakat diniy mutaassiblikka asoslangan bo'lib, muayyan mazhab ta'limotiga qattiq yopishib olish oqibatida yuzaga keladi va muayyan siyosiy va iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirishga ochiqdan-ochiq intiladi.

Diniy ekstremizm faqat Islom olamiga tegishli bo'lib qolmay, balki dunyodagi barcha dinlarga ham xos hodisadir. Masalan, o'rta asrlarda xristian ekstremist ruhoniylari muqaddas kitoblarda belgilangan har qanday aqidalarga qarshi chiqish Xudoning irodasini buzishdir, bu eng katta gunohdir deb, bunday kishilarni dindan qaytganlikda ayblab, ularga nisbatan keskin choralar qo'llab, ayovsiz jazolaganlar. Xususan 13-asrda papa qo'shinlari Fransiyaning janubida 20 ming kishini qirib tashlagan. Ilg'or fikrli ziyolilarga qarshi inkvizatsiya (maxsus cherkov sudi) sudi joriy etilib Jordono Bruno o'tda kuydirildi, Galileo Galiley besh oy qamoqqa solinib, tavbasiga tayantirildi. Lekin baribir u «Yer aylanadi» degan fikrdan qaytmadi.

Islom dini doirasida birinchi ekstremistik oqim – xorijiylar harakati bo'lgan. Xorijiylar halifa Ali ibn Tolib bilan ummaviylar davlatining asoschisi Muoviya o'rtasidagi urushni muzokara va kelishish orqali to'xtatish siyosatiga Ali rozilik bergani uchun, unga qarshi bo'ldilar. Xorijiylardan biri Abdurahmon ibn Muljam as-Sorimiy 661-yilda 4-halifa Ali ibn Abu Tolibni yarador qilib o'ldirdi. Xorijiylar ummaviy va abbosiylar halifaligiga qarshi urush olib borib, juda ko'p musulmonlarning o'limiga sababchi bo'lganlar.

Islomdagi eng ta'sirchan diniy ekstremistik guruhlardan biri 1928 yilda Misrda tashkil topgan «Musulmon birodarlari» («Al-ihvon al-

muslimun») uyushmasidir. Bu uyushma diniy-siyosiy tashkilot bo'lib, u hayr-ehson va ma'rifatchilik faoliyatidan tortib to siyosiy hayotda terror usulini qo'llashgacha bo'lgan murakkab taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Diniy ekstremistik kuchlar 20-asrning 60–70-yillarida Misrda Jamol Abdul Nosir hukumatini ag'darib tashlashga urindilar. 1981-yilda esa, Misr prezidenti Anvar Sadatga suiqasd uyushtirib o'ldirdilar.

1994-yilda Qandahor hududida yuzaga kelgan yangi siyosiy harakat – «Tolibon» harkati ham diniy ekstremizmning Afg'onistondagi bir ko'rinishidir. Ular Afg'oniston hayotiga o'rta asr diniy tartib-qoidalarini tatbiq etish, xalqni dunyo madaniyatidan uzib qo'yish yo'lidan bordilar. Tolibonlar hokimiyat tepasiga kelgach, «Inson huquqlari umumiy deklaratsiyasi» va undagi mezonlarga amal qilmadilar. Oddiy insoniy haq-huquqlar poymol etildi. Xotin-qizlarni erkin bilim olish va mehnat qilish huquqidan maxrum etish, ularni yana chodra va paranji ichiga tiqish yo'lida keskin chora-tadbirlar o'tkazdilar. Yigitlarni soqol o'stirib yurishga majburladilar. Navro'zni islomga zid deb topdilar.

Xullas, tolibonlar o'zlari egallagan yerlarda ko'z ko'rib quloq eshitmagan xunrezliklarni amalga oshirib jafokash afg'on xalqiga ko'p kulfatlar keltirdilar. Yon qo'shnimiz Tojikistonda diniy ekstermizm 150 mingga yaqin begunoh kishilarning qurbon bo'lishiga olib keldi. Islom diniy ekstremizmi turli mamlakatlarda barpo bo'lajak «islomiy tartib» o'rnatish uchun keskin va agressiv harakat qilish zarur deb hisoblaydi. Ular o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun turli usullardan foydalanmoqdalar. Bular asosan quyidagilardan iborat:

- Zo'ravonlik, ya'ni terroristik harakatlarni amalga oshirish orqali omma ichida qo'rquv paydo qilish va o'zlarining kuchlarini ko'rsatish orqali hukumatga bosim-tazyiq o'tkazish;
- Mamlakat iqtisodini turli yo'llar bilan: diversiya, sanoat va qishloq xo'jaligi manbalarini izdan chiqarish orqali uni tanazzulga uchratishga urinish bilan hokimiyatni zaiflashtirish va pirovardida osonlik bilan ag'darib tashlash;
- Turli tashkilot va ommaviy axborot vositalarining «beg'araz» yordamida go'yo «mamlakatda fuqarolarning vijdon erkinligi huquqlari buzilmoqda va diniy e'tiqod poymol etilmoqda» kabi sohta, g'arazli qarashlarni tarqatib hukumatni din sohasidagi siyosatini buzib ko'rsatish

orqali uni obro'sizlantirish va fuqarolarning unga bo'lgan ishonchini yo'qotish;

- Oz sonli diniy tashkilotlarga qarshi xujum uyushtirib, hatto ulardan ba'zilarni namoyishkorona jismonan yo'q qilish yo'li bilan dinlararo va millatlararo nizo keltirib chiqarishga urinish orqali mamlakatda beqaror vaziyatni vujudga keltirish va undan o'z maqsadlari yo'lida foydalanish;

- Islomiy ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zimdan tashkil etish orqali mamlakatni islomlashtirish va soddadil fuqarolar ongiga asta-sekin xorijiy va mahalliy doiralarning ekstremistik g'oya va maqsadlarini singdirib borish. Oqibatda tayyor bo'lgan ijtimoiy ongni kerakli vaqtda o'z diniy ekstremistik maqsadlarini amalga oshirish uchun osonlik bilan yo'naltirib yuboradigan holatga keltirish va boshqalar.

Diniy ekstremizmning yuqorida qayd etilgan ko'rinishlari bir vaqtning o'zida namoyon bo'lishi, sharoitga qarab ba'zilariga alohida urg'u berilishi mumkin. Ularning Qur'on oyatlariga asoslanishi Islomning sof g'oyalarini jamiyatga tatbiq etish uchun emas, balki yurtdoshlarimizning e'tiqodini chalg'itish va islom omili orqali xokimiyatga intilishdan boshqa narsani ko'zlamaydi. Shuning uchun islom dini va islom fundamentalizmi haqida so'z ketganda, bu ikki tushunchani bir-biriga aralashtirib yuborish kerak emas.

Diniy ekstremizm qanday nomlanmasin yoki qanday ko'rinishga ega bo'lmasin, uning asosiy maqsadi jangari guruhlarni shakllash orqali hokimiyat tepasiga kelishdan iborat.

Umuman, «fundamentalizm», «ekstremizm», «terrorizm», «fanatizm» kabi so'zlar tom ma'noda hokimiyat uchun kurashuvchi ijtimoiy-siyosiy guruh va oqimlarga tegishlidir.

3.Missionerlik tushunchasi, mazmun va mohiyati

Missionerlik haqida so'z borar ekan, eng avvalo ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatiga e'tibor berish lozim. "Missionerlik" atamasi lotincha "missio"so'zidan olingan bo'lib, o'zbek tilida "yuborish", "vazifa topshirish", shundan kelib chiqqan xolda missioner so'zi esa, "vazifa bajaruvchi" degan ma'nolarni anglatadi. Missionerlik

esa, belgilangan vazifalarni hal etishga qaratilgan nazariy va amaliy faoliyat jarayonini o'zida ifoda etadi.

Missionerlik xatti-harakatlarlarining paydo bo'lishiga doir adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, bu so'z asosan xristian dini bilan bog'lanadi. Missionerlik, unga xos bo'lgan xususiyatlar tahlil etilar ekan, har yili qayta nashr etiladigan "Word Book" (Jahon kitobi) ensiklopediyasida "Missioner biror diniy guruh tomonidan boshqalarni o'z diniga targ'ib qilish va kiritish uchun yuborilgan inson", - fikri qayd etilgan. Moskvada nashr etilgan "Kirill va Mefodiyning katta ensiklopediyasi" da "Missionerlik biror diniy birlashma vakillarining o'z e'tiqodini boshqa din vakillari orasida yoyish harakati", - degan ta'rif keltiriladi.

Umuman olganda turli lug'at va adabiyotlarda keltirilgan ta'rif-tavsiflar bir-biriga juda yaqin bo'lib, ularga tayangan holda quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin. Avvalombor, missionerlik bir dinga e'tiqod qiluvchi halqlar orasida boshqa dinni targ'ib qilishni anglatadi. Bunday harakatning dastlabki ko'rinishlari miloddan avvalgi III asrda Hindistonda buddizm doirasida ro'y bergan. Xristianlikda esa, missionerlik IV asrda paydo bo'lgan. Rivojlangan davlatlar tomonidan mustamlakachilik harakatlari kuchaygach, katolik missionerlari mazlum xalqlar orasida ham o'z xatti-harakatlarlarini kuchaytira boshlashdi. Shuningdek,. xristianlik doirasida tashkil etilgan turli diniy ordenlar yangi mustamlakalar bosib olishda ham, mustamlakachillika qarshi milliy ozodlik harakatlarini bostirishda ham faol ishtirok eta boshlashdi. Shunisi e'tiborga molikki, missionerlik rivojlanib borgan sari tegishli tashkiliy asoslar ham yaratib borilgan. Xususan katolik missionerlariga rahbarlik qilish uchun papa Grigoriy XV 1662-yilda Diniy targ'ibot kongregatsiyasini (1968-yildan "Xalqlarni Injilga e'tiqod qildirish kongregatsiyasi) ta'sis etgani fikrimizning dalili bo'la oladi. Rim papasi Piy XII ning "Prinseps postorum" (1959), Pavel VI ning "Populorum progressio" (1967) nomalari, II Vatikan soborida (1962–1965) missionerlik masalalariga bag'ishlab qabul qilingan maxsus dekret qabul qilingani ham bu yo'ldagi ishlar tadrijiy tashkil etilganini ko'rsatadi.

Missionerlik muassasalari yirik kapital va yer-mulklarni tasarruflariga olib, o'z mamlakatlarining kolonial hududlarda olib borayotgan siyosatini qo'llab-quvvatlashja ham faol ishtirok etishgan. Bu

holat X–XIII asrlarda amalga oshirilgan salib yurishlarida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Salib yurishlarining bosh tashkilotchisi Rim papasi boshchiligidagi Katolik cherkovi edi. "Muqaddas yer" ya'ni Kuddusni, Iso Masih qabrini g'ayridinlardan ozod qilish shiori ostida olib borilgan urush aslida bosqinchilik harakterida bo'lgan. Missionerlik maqsadlariga, katta miqdorda boylik orttirishga asosiy e'tibor qaratildi. Tarixdan shu narsa ma'lumki, Quddusni egallab olgach, shahardagi masjidlarga o't qo'yadilar, nasroniylikni qabul qilishni istamagan ko'plab kishilarni qilichdan o'tkazishadi. "Muqaddasni yer" ni ozod qilish shiori ostida butun Yevropa nasroniylarini oyoqqa turg'aza olishdi. Salib yurishlarida turli diniy ordenlar ishtirok etishdi. Odatda ular Quddus va unga tutash shaharlarni bosib olishlari bilanoq u joylarni tark etishardi. Qo'shinning yollanmaligi, mayorat tizimining mavjudligi bunga sabab bo'lardi. Salibchilarning asl qiyofasi ayniqsa to'rtinchi salib yurishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Salibchilarning bu galgi yurishlari Vizantiya poytaxti Konstantinopolni bosib olinishi bilan tugaydi.

Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin boshlanib ketgan koloniallashtirish siyosati davrida Katolik cherkovi yangi mustamlakalarni nasroniylikka o'tkazish maqsadida bir qator missionerlik guruhlarini yangi qit'alarga yo'lladi. O'z navbatida, missionerlik katolik cherkovi doirasida yangi yerlarni bosib olishni g'oyaviy asosi bo'lib xizmat qildi. Ma'rifat tarqatish, tibbiy yordam ko'rsatish ishlarini olib borish jarayonida xristianlik targ'ibotini ham kuchaytirib borishgan. Shu asnoda tajriba osha borgan sari, uning faoliyat doirasi kengaygan sari missionerlar xristianlikni qabul qilgan aholi ichidan mahalliy ruhoniy kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berishgan. 1978 yildagi konklavlarda[1] Afrikadan 12 ta kardinali, Osiyodan 9 kardinali ishtirok etgani ana shu harakatning hosilasi edi.

Hozirgi kunda missionerlik sertarmoq soha hisoblanadi. Ular kirib bormagan mamlakat, ular faoliyat yuritmayotgan bironta sohani topilish qiyin. Zamonaviy missionerlikka xos umumiy xususiyatlar sifatida quyidagilarni aytish mumkin.

[1] Католик черковининг энг юқори даражадаги руҳонийлари –кардиналларининг кенгаши хисобланиб, Папа ҳам айнан шу кенгаш аъзолари орасидан сайланади.

Avvalo, missionerlik uyushmalari o'z hukumatlari tomonidan turli shaklda ko'mak olib turishlarini ta'kidlash zarur. Shuningdek,, ular o'zlari faoliyat yuritmoqchi bo'lgan hududning aholisi, demografik vaziyat, iqtisodiy-ijtimoiy muammolari haqida ma'lumot olishlari uchun o'z tadqiqot markazlariga ham ega. Bugungi missionerlik uyushmalarining o'z targ'ibotini istalgan tilda, istalgan adadda chop ettira olishlari ularning katta kuchga ega ekanligini ko'rsatadi. Missionerlik uyushmalari dunyo bo'yicha demokratik qadriyatlar, inson huquqlari ustuvor ahamiyat kasb etib borayotganidan ham o'z maqsadlari yo'lida ustalik bilan foydalanishga urinishmoqda. Ularning faoliyatlari qaysiki mamlakatda taqiqlansa, shu mamlakatda inson huquqlari poymol etilayotgani haqida jar solishadi. "Word Book" ensiklopediyasi ma'lumotlarga ko'ra, dunyodagi jami missonerlarning uchdan ikki qismini katolik missionerlar tashkil etadi. Shunday bo'lsa-da, hozirda Protestantlik missionerlikning asosiy homiysi hisoblanadi.

Protestant oqimlar orasida eng yiriklaridan biri adventizm oqimiga 1831-yilda Uayt Miller asos solgan.

"Ettinchi kun adventistlari" adventizm zamirida paydo bo'lgan oqim. 1844-yilda Nyu-Gempshir shahrida Elena Uayt tomonidan asos solingan. 1860-yilda alohida diniy konvensiya sifatida tan olingan. 1863-yildan o'z diniy tashkilotlarini tuza boshlashgan. Ettinchi kun adventistlari asosiy aqida sifatida Iso Masihning yerga qaytishiga ishonishni saqlab qolishgan. Ma'lumotlarga ko'ra, besh milionga yaqin adventist bor. Ular 184 ta mamlakatda 22 000 dan ortiq cherkov, 5 000 dan ortiq o'quv markazlari, 50 ta nashriyotga ega. O'z faoliyatlarini yo'lga qo'yishda an'anaviy usullardan tashqari, radio, televideniye, internet kabi zamonaviy usullardan ham keng foydalanishadi.

"To'liq injil xristianlari" (Pyatidesyatniklar[1]) – protestantlikdagi eng yirik oqim bo'lib, XX asr boshlarida AQSh da yuzaga kelgan. Diniy hayotda "Muqaddas Rux in'omlari" degan tushunchaga tayanishadi. Bu oqim vakillari insonlarning qayg'u-alamlari, muammolari va jamiyatda o'z o'rinlarini yo'qotib qo'yishlari bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratishadi. Bu oqim vakillari taxminan 120 million kishini

[1] Яҳудийларнинг қадимий "Пятидесятница" байрами номидан келиб чиққан.

tashkil etadi. Pyatidesyatniklar, o'z navbatida, bir qator oqimlarga bo'linadi:

"Xudo Assambleyalari" – 1914-yilda AQSh ning Arkanzas shtatida asos solingan.

Xudo Cherkovi – 1884-yilda AQSh ning Tennesi shtatida asos solingan. Ushbu cherkov XVI asrda tugagan reformatitsiyani davom ettirish g'oyasini ilgari suradi.

Xalqaro Birlashgan Pyatidesyatnik Cherkovlari – 1945-yilda AQSh da tashkil etilgan.

Iegovo Zohidlari – 1870-yilda AQSh ning Pensilvaniya shtatida tashkil topgan. Bu oqim vakillari xudoning uch ko'rinishga ega ekanligi haqidagi ta'limotni rad etishadi. Ular missionerlikka alohida e'tibor berishadi. Iegovo shohidlari kishilarni o'z tarafiga jalb etishning 80 dan ortiy uslubidan foydalanishadi.

Missionerlikni targ'ib qilish haqida gap ketganida, tarix shundan dalolat beradiki, ilk missionerlar tabiblik orqali o'z g'oyalarini yoyishgan. U davrlarda targ'ibotning boshqa turlari mavjud emas edi. Missionerlik faoliyatini yo'lga qo'yishda tibbiyot bugungi kunda ham targ'ibotning eng samarali turi bo'lib qolmoqda. Targ'ibotning yana bir turi xayriya yordami ko'rsatish jarayonida sodir etilmoqda. Uyma-uy yurib "xushxabar" tarqatish uslubi ham keng tarqalgan. Shuningdek,, aytib o'tilganidek, gazeta-jurnallar, badiiy adabiyot, televideniye, internet kabi zamonaviy vositalardan ham keng foydalanishadi.

Missionerlik harakatlari o'z faoliyatlari ko'proq e'tibor beradigan aholi qatlamlarini tahlil qilish quyidagi xulosalarni beradi.

Yoshlarning jamiyat hayotida faol kuchga aylanib borayotganligi ularning turli mazmundagi mafkuraviy kuchlarning, markazlarning, jumladan missionerlik harakatlarining ta'sir va tazyiq ob'ektlariga aylanib qolishiga sabab bo'lmoqda. Bunda ularning aholi qatlamining sezilarli qismini tashkil etganliklari, hayotda katta tajribaga ega emasliklari, tashqi ta'sirlarga tez beriluvchanligi, ayni paytda eng harakatchan qatlam ekanligi bilan belgilanadi. Ingliz siyosiy arbobi Edmund Berk "Yoshlarning ongida qanday kayfiyat ustunligini aytsang, men senga keyingi avlodning tabiati qanday bo'lishini aytaman" – deya behuda ta'kidlamagan edi.

Missionerlaar ayollar orasida ish olib borishga katta e'tibor qaratishadi. Ayollar sabr-bardoshli, fidoiy bo'lish bilan birga o'z tabiatiga ko'ra, ishonuvchan, tashqi ta'sirga moyil, hamisha ma'naviy-ruhiy ko'makka, qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezib yashaydi. Mamlakatdagi birlik, jipslik, ahillik, barqarorlik – jamiyatning kichkina mo'jaz qismi – oiladan boshlanadi. Ushbu xususiyat missionerlarga qo'l keladi.

4.Bugungi kundagi voqelik

Masalani bayon qilishda talabalarga Prezidentimiz Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XIV sessiyasida qilgan ma'ruzasidagi fikrni ta'kidlashdan boshlash muhim. «Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, g'animlarimizning asosiy niyati - O'zbekistonda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni, jamiyatimizdagi bunyodkorlik muhitini, bugun barpo etayotgan farovon va osuda hayotni buzish, tobora kuchga kirayotgan davlatimizni ag'darish, tanlagan yo'limizdan qaytarish»dir.

Ma'lumki g'arazli kuchlar o'z qabih niyatlarini amalga oshirishda o'tish davrida odamlarimiz tafakkurida yuz berayotgan o'zgarishlardan, odamlarning soddaligi, yoshlarimizning hayotiy tajribasizligi, muqaddas dinimizga bo'lgan qiziqishning oshib borayotganidan foydalanishga harakat qilmoqdalar. Bu yo'lda esa, ular «jihod», «shahidlik» haqidagi tushunchalarni noto'g'ri talqin etish yo'lidan borishmoqda.

Bir aqidaga mukkasidan ketib, boshqa fikrlarni noto'g'ri hisoblab, ularga murosasiz kayfiyatda bo'luvchi hamda o'z rahnomalari g'oyasi uchun o'zini qurbon qilish holati aqidaparastlik deb ataladi. O'zini-o'zi portlatib «shahidlik» da'vosini qilayotgan kishilar diniy aqidaparstlar tuzog'iga ilinganlarning namoyondalaridir. Keyingi paytlarda aqidaparast terroristik guruhlarning o'z qurbonlari sifatida ayollarni tanlayotganliklari achinarli holatdir. Ayol o'z farzandi, oilasi, o'z sevgan kishisi va o'zi muqaddas deb bilgan narsasi uchun o'z jonini berishga tayyor. Qora niyatli kuchlar esa, ayoldagi mana shu fidoiylikdan o'z g'arazli maqsadlari yo'lida foydalanishga urinishmoqda. O'z joniga va o'zga begunoh kishilar hayotiga qasd qilib, shahidlik

da'vosini qilayotgan kishilarning iddaosi muqaddas islom diniga mutlaqo ziddir.

Jamiyatda qabul qilingan qonun-qoidalarga mos kelmaydigan, ularga zid bo'lgan mutaassib xatti-harakatlarlar ekstremist deb ataladi. Ekstremizm – aql bovar qimaydigan darajada haddan oshishdir. Odatda bunday xatti-harakatlarlarga diniy tus berish oqibatida diniy ekstremizm vujudga keladi. Terrorchi kim deganda odatda ongi zaharlangan, fanatizmga berilgan, o'zi qiladigan jinoiy harakatiga o'zi javob bera olmaydigan, qilayotgan harakatini anglamaydigan, kimningdir yovuz niyatini bajaradigan ijrochi kimsa deb qabul qilish kerak. Insonlarning joniga qasd qilish, o'ldirish, tazyiq ostiga olish, aholini vahimaga solish maqsadida qilinadigan, tinch insonlarni garovga olish kabi holatlar va buning ortida siyosiy-diniy yoki fanatik maqsadlarda uyushtirilgan jinoyatlarni terroristik harakatlar qatoriga qo'shish mumkin. Terroristik harakatlar turli yo'nalishlarda olib borilmoqda. Chunonchi ayrim shahslarga qaratilgan individual terror, ko'pchilikka yo'naltirilgan ommaviy terror, turli kasalliklarni tarqatishga qaratilgan biologik terror, zamonaviy internet terror va boshqalar. Bunday terroristik harakatlarning moliyaviylik manbalari XX asrning 90-yillariga qadar sobiq SSSR va sotsialistik mamlakatlar; halqaro ekstremistik markazlar; AQSh va kapitalistik mamlakatlar; narkobiznes va boshqalar bo'lgan. Hozirgi kunda esa, xalqaro ekstremistik tashkilot va markazlar; noqonuniy qurol savdosi; narkotik moddalar savdosi va boshqalar tashkil etadi.

Narkotik moddalar yetishtirish va uning savdosiga nazar solsak, uning terrorchilikni qo'llab-quvvatlash borasidagi imkoniyatlari nihoyatda keng ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Faqat 2003–2004-yillarda Afg'onistonda 4300-4500 tonna narkotik moddalar etishtirilgan bo'lib, har bir kilogrammi Rossiyada 100 ming dollar bo'lsa, AQShda 290 ming dollarga boradi.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida 500 ga yaqin terroristik tashkilot va guruhlar mavjudligi qayd etilgan. Bunday terroristik harakatlarning o'choqlari Afg'oniston, Iroq, Pokiston, Xindiston, Filippin, Indoneziya va boshqa mamlakatlar sanaladi.

Talabalar shu o'rinda Islomda «jihod» va «shahid» qanday ma'nolarda ishlatilganligini bilib olishlari uchun muhimdir. Jihod – arabcha so'z bo'lib – g'ayrat qilish, kuchni ishlatish, ya'ni din yo'lida

kurash demakdir. Dastlab jihod deyilganda islomni himoya qilish va yoyish uchun kurash tushunilgan. Jihod so'zi urush ma'nosini anglatmaydi, balki Allohning diniga so'z bilan da'vat qilishni bildiradi. Jihod so'zini ko'p ma'nolarda ishlatish mumkin. Chunonchi, insonning o'z nafsining ko'yiga kirmaslik, uni engib sharoitga muvofiq yashash uchun jon jahdi bilan qilgan harakati; farzandning ota-onasi xizmatida bo'lishi va boshqalar ham jihodga kiradi.

Aslida jihod Alloh yo'liga, islom dinini yoyish miqsadiga butun kuch va imkoniyatlarini ishga solish ma'nosini anglatib kelgan va ba'zida muayyan sharoitlar taqazosi bilan harbiy kuch ishlatishga izn berilgan. Shu ma'noda Jihodni «muqaddas urush» deb talqin qilish, tushunish odat tusiga kirib qolgan. Milliy-ozodlik harkatlari davrida jihod g'oyasidan mustamlakachilikka qarshi kurashda foydalanilgan.

Hozirgi zamon musulmon nazariyotchilari jihodni islomni tinch yo'l bilan yoyish, uni tashqi tazyiqdan himoya qilish uchun musulmonlarning kuch va g'ayratlarini safarbar etish vositasi deb ta'riflaydilar. Mo''tadil islom – ahli sunna val jamoa tarafdorlarining e'tiqodiga ko'ra, kuch ishlatish – «kichik jihod», har bir mo'min-musulmonning o'z nafsi bilan kurashi va ma'naviy barkamollik yo'lidagi sa'y-harakati esa,, «buyuk jihod» hisoblanadi. Demak, tasavvufchi buyuk shayxlar ana shu «buyuk jihod»ning namoyondalaridir. Hozirgi kunda xalqaro maydonda islom dini bilan niqoblangan terrorchi va ekstremistlar jihoddan o'zlarining qabih maqsad va manfaatlari yo'lida foydalanmoqdalar.

Shahid – arabcha guvoh demakdir. Islomda din yo'lida kurashib hayotdan ko'z yumganlarga nisbatan shahid so'zi ishlatilgan. Vaqt o'tishi bilan shahid so'zi turli voqea va hodisalar sababli hayotdan ko'z yumganlarga nisbatan ishlatish ham rasmiy tus olgan. Chunonchi, kishilar, hayvonlar tomonidan o'ldirilgan, tabiiy ofat, og'ir-yuqumli kasalliklar, zaharlanishdan o'lganlar, haj paytida vafot etganlar shahid deb hisoblangan. Shuningdek,, hadislarda aytilishicha, o'z obro'si yo mol-mulki, joni yohud dini, ahlu oilasining himoyasi yo'lida qurbon bo'lganlar shahid sanalgan. Vabodan, ichki xastalik, g'arq (suvga cho'kib) bo'lib, biror narsa bosib qolib o'lganlarga nisbatan shahid hukmida o'lganlar iborasi ishlatilgan. Hozirgi islom dini bilan niqoblangan terrorchi va ekstremistlar jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish, kishilar orasida vahima tarqatishda yo'ldan adashgan

kishilarni yollab, o'zini-o'zi portlatishga yo'llashda «shahid» tushunchasidan foydalanmoqdalar. Bunda yosh bolalar, ayollardan frydalanayotganliklari hammamizni tashvishga soladi. Shunday qabih ishga, o'z joniga o'zi qasd qilishga qo'l urishga borish uchun kishi qanchalik johil bo'lishi kerak.

«Tolerant» atamasining lug'aviy ma'nosi lotincha «tolerare» (chidamoq) so'zidan olingan bo'lib, biror narsani, o'zgacha fikr yoki qarashni, o'z shahsiy tushunchalaridan qat'i nazar, imkon qadar bag'rikenglik va chidam bilan qabul qilishni, boshqa shahs yoki dinga hurmat bilan yondoshishni anglatadi. Diniy bag'rikenglik yuksak ma'naviyat belgisi bo'lib, turli din hamda konvensiya vakillarining yonma-yon va o'zaro tinch-totuv yashashi, faoliyat ko'rsatishini anglatadi.

Tarixiy manbalarda O'zbekiston hududida diniy munosabatlar asosida biror marta ham nizo chiqmagani qayd qilinadi. Bunday holatni hozirgi O'zbekistondagi islom, xristian, yahudiy dinlari va boshqa konvensiyalarning o'zaro munosabatlari misolida ham ko'rish mumkin. Bunday do'stona munosabatlardan xulosa qilib, Respublika Prezidenti Islom Karimov: «Musulmonlar va xristianlarning O'zbekiston zaminida birgalikda hamnafas bo'lib yashashi diniy-ma'naviy totuvlikning nodir timsoli va barcha din vakillariga nisbatan bag'rikenglikning eng yaxshi namunasi deb hisoblanishiga arzigulikdir», - deb ta'kidlaydi.

Mamlakatimizda mustaqillik yillari amalga oshirilgan ishlar bilan bir qatorda, hali o'z yyechimini kutayotgan muammolar ham yo'q emas. Ularni bartaraf etish uchun barchamiz bir yoqadan bosh chiqarib, harakat qilishimiz talab etiladi. Bu yo'lda bir-biri bilan uzviy bog'liq muammolarni yyechishga alohida e'tibor berish zarur:

1. Sog'lom fikr va dunyoqarashga ega bo'lgan mas'ul xodimlarni tayyorlash, ularning salohiyatini yurt osoyishtaligi va xalq farovonligi yo'liga safarbar qilishga keng imkoniyatlar yaratib berish.
2. Dinning asl insonparvarlik mohiyatini asrash, uning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini jamiyatdagi barqarorlik, ijtimoiy hamkorlik, konvensiyalararo hamjihatlikni mustahkamlashga yo'naltirish borasidagi ishlarda tadrijiylikni ta'minlash.

3. Diniy xodimlar, xususan, imom-xatiblar ijtimoiy faolligi, olib borayotgan ishlari samaradorligini kuchaytirish, ularning bilim darajasi va saviyasini takomillashtirib borish, moddiy ta'minotiga alohida e'tibor berish.
4. Dinshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, soha bo'yicha etuk mutaxassislarni etishtirish va respublikadagi muassasa va tashkilotlarni chuqur va keng qamrovli bilimga ega dinshunos-islomshunoslar bilan ta'minlash.

5.Musulmon dunyosi va diniy ekstremizm

Mazkur masalani o'rganishda musulmonlarning qaysi xudud, mamlakatlarda aholi soni jihatdan nisbatini bilib olish muhimdir. Ma'lumotlarga qaraganda, islom diniga e'tiqod qiluvchilar bir milliard besh yuz millionga yaqindir. Yer yuzining barcha xududlarida musulmonlar bor. Barcha musulmonlarning uchdan ikki qismi Osiyo mintaqasidadir. Jumladan 40 dan ziyod mamlakatda aholining 80 foizidan ortig'ini musulmonlar tashkil etadi. Indoneziya, Pokiston, Eron, Hindiston eng ko'p musulmonlar yashaydigan mamalkatlardir. Xususan, Hindistonda 140 million islomga e'tiqod qiluvchilar mavjud. O'zbekiston aholisining 92,5 foizi Islom diniga e'tiqod qiladi.

Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari arablar tomonidan istilo qilinmagan. Indoneziya, Malayziya, S'ngapur, Filippin va boshqa mamlakatlarga islom dini arab savdogarlari orqali kirib kelgan. Jumladan, Indoneziyada 210 million, Pokistonda 150 million, Bangladeshda 110 million, Nigeriyada 80 million, Eron va Turkiyada 65 million, Misrda 60 million, Marokash va Jazoirda 30 million, Saudiya Arabistonida 17 milliondan ortiq musulmon yashaydi.

XIX asr oxiri XX asr boshlaridan G'arb dunyosiga musulmonlar kirib kelishi yuz berdi va islomga e'tiqod qiluvchilar soni yil sayin o'sib bormoqda. Masalan, hozir AQSh da 10 million, Fransiyada 6 million, Germaniyada 3.5 million, Buyuk Britaniyada 1.5 million, Italiyada 1 milliondan ortiq, Gollandiyada 1 million atrofidadir. Yevropa Ittifoqi bo'yicha jami musulmonlar 15 milliondir. Ma'lumotlarga ko'ra, 2015-yilga kelib ularning soni 40 milliongacha o'sishi kutilmoqda

AQShda 1250 dan ortiq machit, 300 dan ortiq islom markazlari faoliyat ko'rsatayotganligi qayd etilgan. 1000 ga yaqin musulmonchilik qoidalarini o'rgatuvchi yakshanbalik maktablari mavjud. Amerikalik musulmonlarni Pokiston, Hindiston, Bangladesh, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Livan kabi mamlakatlardan ko'chib borganlar tashkil etadi. Amerikalik musulmonlarning 42 foizi qora tanlilar, 25 foizni Hindiston, Pokiston, Bangladesh ahli, 25 foizni arablar, 26 foizni turklar va boshqa Sharq mamlakatlaridan ko'chib borganlar tashkil etadi. Musulmonlarning 5 foizga yaqini asli amerikalik yerli xalq bo'lib keyinchalik Islomni qabul qilgan.

AQShda musulmonlarning 58 foizi erkaklar va 42 foizi ayollardan iborat. Barcha musulmonlarning 44 foizi oliy ma'lumotli, 32 foizi esa, tugallanmagan ma'lumotga ega.

1963-yil yanvarida Illinois universitetida «Amerika va Kanada musulmon talabalari assosiatsiyasi» tashkil etilgan. Bu tashkilot Amerika va Kanadada tahsil olayotgan talabalarni birlashtiradi.

XX asrning 90-yillarida «Amerika Oliy Islom Kengashi» tashkiloti tuzilgan. Rahbari shayh Keshoniy Rabboniy bo'lib, uning qoshida «Amerika musulmon yordami», «Haqqoniy» kabi jamg'armalar ochilgan bo'lib, asosan musulmonlar kam bo'lgan o'lkalarga yordam beradi. Aynan «Amerika Oliy Islom Kengashi» Checheniston, Dog'iston va boshqa o'lkalardagi musulmonlarga yordam berib kelmoqda. Yana «Shimoliy Amerika jihod Kengashi» nomli ekstremistik tashkilot tuzilgan bo'lib, u Pokiston razvedkasi bilan yaqin hamkorlik qilib kelmoqda. Uning safida 3000 ga yaqin jangari bo'lib, Afg'onistondagi harbiy operatsiyalarga o'z vakillarini yuborgan.

Hozirgi kunda barcha mamlakatlar xalqlarga havf solib turgan diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash musulmon mamlakatlari uchun ham eng dolzarb vazifalardan biri sanaladi.

3- MAVZU: MUSULMON OLAMINING TERRORIZMGA QARSHI KURASHI

Dars o'tish texnologiyasi:

Mavzuni yoritishda o'quvchilarni faollashtirishga xizmat qiladigan usullardan biri "FSMU" texnologiyasi qo'llaniladi.

Ushbu texnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozara o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu texnologiya o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrlarini boshqalarga etkazishga, ochiq holda bahslashishiga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Ushbu texnologiya o'quvchilarga tarqatilgan qog'ozlarga o'z fikrlarini aniq va qisqa holatda ifoda etib, tasdiqlovchi dalillar yoki inkor etuvchi fikrlarni bayon etishga yordam beradi.

O'tkazilish tartibi:

Har bir o'quvchiga FSMU texnologiyasining to'rtta bosqichi yozilgan qog'ozlar tarqatiladi.

F- fikringizni bayon etirg

S- fikringizga sabab ko'rsating

M- ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi misol keltiring

U- fikringizni umumlashtiring

O'quvchilar bilan bahs mavzusi yoki muammo belgilab olinadi.

Kichik guruhlarga bo'lib, ularga FSMU texnologiyasining to'rtta bosqichi yozilgan katta formatdagi qog'ozlar tarqatiladi va ularga o'quvchilarning alohida yozgan qog'ozlardagi fikr va dalillarini umumlashtirgan holda yozishlari taklif etiladi. Kichik guruhlar yozgan fikrlarini o'qib himoya qiladilar. Treningda o'qituvchi tomonidan mavzu bo yicha fikrlar umumlashtiriladi.

Mavzuni mustahkamlashda "Pinbord" usulini ham qo'llash mumkin.

"Pinbord" (inglizcha: pin-mustahkamlash; board-doska).Bu o'qitish usulining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o'quv suhbati amaliy usul bilan bog'lanib ketadi. Uning afzallik funksiyalari-rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifadir. O'quvchilarda muloqat yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan uslublarda darslarni tashkil etish o'quvchilar tomonidan mazkur asarning mazmun-mohiyatini chuqur anglab yetishlariga imkoniyat yaratadi. Ularni mustaqil fikrlashga o'rgatadi, ularda bahs-munozara, qiyosiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'tgan asr ajoyib ilmiy kashfiyotlar asri, inson Koinot olami sirlari qo'yniga kirib borgan asr, axborot va texnikaviy imkoniyatlar asri sifatida tarixdan joy oldi. Shu bilan birga, XX asr oxiriga kelib ikki mafkuraviy qutb o'rtasidagi qarama-qarshilik o'z intihosiga etdi. Dunyo xaritasida keskin o'zgarishlar yuz berib yangi mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. Ular mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo'liga o'tib o'zlarining jahon sahnasidagi mavqeilarini mustahkamlashga, tenglar orasida teng bo'lishga harakat qilishmoqda. Lekin bu yangilanishlar amalga oshirilayotgan jarayonning xususiyatlariga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, eng avvalo:

Bir qator mamlakatlarda keskin siyosiy vaziyat saqlanib, demokratik jarayonlar qiyinchilik bilan qaror topayotganini;

Milliy o'zlikni anglashning faol jonlanishi xamda millatlar va elatlarning o'z taqdirini o'zi belgilashga intilayotganini;

Etnik va millatlararo ziddiyatlarning saqlanib qolayotganini;

Qotib qolgan mafkuraviy aqidalarning qadrsizlanishi hamda siyosiy va diniy ekstremizmning turli shakllari kuchayib borayotgani va boshqalarni kuzatish mumkin.

Jamiyat hayotining turli jabhalarida boshlanib ketgan tub islohotlar milliy o'zlikni anglash, ma'naviy – diniy qadriyatlarni ham qamrab oldi.

Jahondagi yirik dinlardan bo'lgan Islom dini ham bu yangilanishlar jarayonidan chetda qolgani yo'q. Musulmon dunyosida, hatto undan tashqarida ro'y berayotgan hodisalar jahon hamjamiyatida «islom ovozasi» haqida gapirish imkonini berdi. Din, shu jumladan, islom dini ming yillar davomida inson tabiatida chuqur ildiz otgan, undagi umuminsoniy axloq me'yorlarini shakllantirgan. Odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan. Ularga hayot sinovlari va qiyinchiliklarni engib o'tishlarida kuch baxshida etgan. Afsuski, dindan, insonlardagi e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki vayronkor kuch sifatida, o'zlarining tor doiradagi manfaat-maqsadlarini amalga oshirishda foydalanishga urinish xollari uchramoqda.

XX asrning so'ngi o'n yilliklarida, yangi asrning boshlarida xalqaro miqyosda o'zini baralla namoyon etayotgan diniy ekstremizm va terrorizm xatarli kuchga aylandi. Bugungi kunga kelib mazkur xatar shu qadar keng ko'lam va xilma-xil ko'rinishlar kasb etdiki odamlar unga e'tiborsiz, ba'zan loqayd bo'lib qaramoqdalar. Ularning nazdida «diniy ekstremizm», «xalqaro terrorizm» hayotiy voqelikning ajralmas qismidek.

O'rta asrlar va XIX asr oxirlariga qadar davlat arboblariga qarshi qaratilgan qurolli hujum shaklida paydo bo'lgan siyosiy terrorizmni bugun har qadamda uchratish mumkin bo'ldi. O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab dunyoning turli mintaqalari turli-tuman terroristik tashkilotlar o'chog'iga aylandi. Ma'lumotlarga qaraganda hozirgi kunda dunyoda 500 ga yaqin terrorchilik tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ular 1968–1980-yillar mobaynida 6700 ga yaqin terrorchilik ini amalga oshirib 3668 ta kishining umriga zomin bo'lishgan[1].

Zamonaviy terrorizmning ikkita alohida xatarli belgisini ajratib ko'rsatish mumkin: bir tomondan u tobora shafqatsiz g'ayriinsoniy mohiyat kasb etib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan aqlga sig'dirish qiyin jo'g'rofiy ko'lamlarni zabt etmoqda. AQSh davlat departamentining ma'lumotlariga ko'ra, 1992-yilda 362 ta terroristik harakatlar sodir etilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib bunday noxush hodisalar yiliga 600 dan oshib ketdi. Ekstremistlar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlar odamlarning ertangi kunga bo'lgan ishonchiga putur etkazmoqda, xalqaro miqyosdagi muammolarni, jumladan, turli diniy e'tiqod vakillari bo'lgan xalqlar orasida, turli sivilizatsiyalar orasidagi ishonchga soya tashlamoqda, iqtisodiy va madaniy aloqalarga to'siq bo'lmoqda.

Ekspertlar fikricha, dunyoning turli mintaqalarida faoliyat yuritayotgan ekstremistik tashkilotlar eng zamonaviy qurollar bilan ta'minlangan bo'lib, ularning ko'pchiligi o'ziga islom dinini niqob qilib olgan. Bunday tashkilotlar qatoriga «al-Qoida», «al-Jihod al-Islomiy», «at-Takfir val-Hijra», «Hizbulloh», «XAMAS» va boshqalarni kiritish mumkin.

[1] Диний экстремизм ва терроризмга карши курашнинг маънавий-маърифий асослари.-Т.: «Тошкент ислом университети», 2005.-79-бет.

Ko'rinib turibdiki, mustaqillikni qo'lga kiritganimizdan beri mamlakatimiz va xalqimizning tinch hayotini buzib kelayotgan qo'poruvchilik harakatlari jumladan, 1999-yilgi fevral, 2004-yil mart-aprel, 2005-yil maydagi Andijon voqealari keng ko'lamli xalqaro terrorchilik tuzilmasining navbatdagi kirdikorlaridan ekaniga hech shubha qoldirmaydi.

1. Diniy ekstremizmning musulmon dunyosi uchun xavfi. Mutaxassislar fikricha terroristik tashkilotlar tomonidan amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar jahonning 15 dan ortiq mamlakatiga alohida tahdid solmoqda. Hozirda terorroristik harakatlarning nishoniga aylangan bunday davlatlarni bir necha guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruhga Shimoliy Afrikada joylashgan arab davlatlarini kiritish mumkin. Eng yirik arab davlatlaridan bo'lmish Misr o'tgan asrning 70-yillaridan boshlab tashqi siyosatda AQSh bilan yaqinlasha boshladi. Isroil bilan diplomatik munosabatlar o'rnatdi. Oqibatda mamlakatni terroristik harakatlar to'lqini qamrab oldi. Shuningdek, bu yo'sindagi xattih-harakatlar Tunis, Jazoir, Sudan kabi mamlakatlarda ham katta muammolarga aylandi.

Ikkinchi guruhga Osiyo mintaqasida joylashgan bir necha mamlakatni kiritish mumkin. Turli-tuman siyosiy, iqtisodiy, diniy-mafkuraviy sabablarga qo'ra Falastin, Iroq, Afg'oniston, Kashmir hududlari terrorchilik harakatlaridan jiddiy zarar ko'rmoqda.

1970-yillardan boshlab Afg'oniston diniy ekstremizm va terrorizmning yirik o'chog'iga aylandi. Mamlakatda vujudga kelgan beqarorlikdan turli diniy-mafkuraviy, geosiyosiy maqsadni ko'zlovchi kuchlar foydalanishga harakat qilishdi. Aytish mumkinki, diniy ekstremizm va terrorizm bilan bog'liq xatti-harakatlarning O'zbekistonga kirib kelishida Afg'oniston o'ziga xos darvoza vazifasini bajarmoqda. 1994-yilda tashkil topgan «Tolibon» harakati, «Al-qoida» bilan mustahkam aloqada bo'lgan «O'zbekiston islomiy harakati», «Hizbut-tahrir» kabi guruhlar aynan Afg'oniston hududidan turib Markaziy Osiyodagi barqarorlikka putur etkazishga harakat qilishmoqda. Mamlakatimizda yashirin amal qilayotgan diniy-siyosiy guruhlar orasida «Hizbut-tahrir» alohida faollik ko'rsatmoqda. Mazkur partiya o'zini terrorchilik harakatlariga aloqasi yo'qdek qilib ko'rsatishga intiladi.

Afsuski, uning bu iddaosini haqiqat deb qabul qilishga tayyor kuchlar ham yo'q emas. O'z oldiga allaqachon umrini o'tab bo'lgan, tarix sahnasidan tushib ketgan halifalikni qayta tiklashni, bu yo'lda har qanday vositadan foydalanishni maqsad qilib qo'ygan bu harakatning «beozor siyosiy kuch» ekaniga qanday ishonish mumkin.

O'zbekiston diniy ekstremizm bilan to'qnash kelayotgan birinchi davlat emas. Yuqorida qayd etilganidek, terrorizm dunyoning ko'plab davlatlariga tahdid solmoqda. Shunga mos ravishda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda salmoqli tajriba to'plangan. Mazkur tajribadan kelib chiqadigan eng asosiy xulosa shuki, diniy ekstremizm va terrorizm bilan kurashda asosan, huquq-tartibot organlariga suyanish, faqat jazo choralarini qo'llash orqali unga barham berishga intilish mazkur hodisaning oqibati bilan kurashish bilan barobardir. Boshqacha aytganda, ekstremizm va terrorizmni oziqlantirib turgan «ildiz» xatti-harakatlarlar beshikast qolaveradi. Shu bois diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda turli vositalarga, jumladan ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga, g'oyaviy immunitetni shakllantirish bilan bog'liq masalalarga qaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Biz shunday davrda yashamoqdamizki, uni hech bir mubolag'asiz insoniyat taqdirini belgilab beradigan jang sodir bo'layotgan davr deb atash mumkin.

Diniy ekstremizm va terrorizmning jamiyat barqarorligiga va rivojiga salbiy ta'siri xalqaro terrorizm tizimida etakchi rol o'ynayotgan ba'zi tashkilotlarning mazmun-mohiyati tahlil qilinganda yaqqol ko'zga tashlanadi.

2. «Jamoat al-ixvon al-muslimin» («Musulmon birodarlar jamoasi»). XIX asr oxirlari va XX asr boshlariga kelib Misrda islomning jamiyat hayotida tutgan o'rni masalasiga turlicha qarashlar paydo bo'ldi: mamlakatda amalga oshrilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy islohotlarni dinga bo'lgan munosabatda qo'llash zarur; XX asrning 20-yillarida boshlangan iqtisodiy inqirozning eng asosiy sababi G'arb sivilizatsiyasiga xos «yangiliklar» bilan bog'lab mamlakatda shariatga asoslangan teokratik davlat tuzumi o'rnatish orqaligina taraqqiyotga erishish mumkin, degan da'vat bilan chiqdilar. Aynan so'nggi yo'nalish tarafdorlarining g'oyalari asosida Hasan al-Banno tomonidan 1928 yilda «Musulmon birodarlari» tashkilotiga asos solindi. Hasan al-Banno

G'arb madaniyati islom madaniyati inqiroziga sabab bo'lgani bois musulmonlarni saqofiylik ruhida qayta tarbiyalash zarur deb hisoblardi.

Tashkilot dastavval islom alohida bir davlatda tinch yo'l bilan, ya'ni, islom qadriyatlarini keng targ'ib qilish, xayriya ishlari o'tkazish, diniy ulamolarning shaxsiy namuna ko'rsatishi natijasida tantana qilishi mumkin degan g'oyani ilgari surgan Hasan al-Banno keyinchalik tashkilot faoliyatiga siyosiy tus berib «Musulmon birodarlar» ni Qur'on va sunnani jamiyatning rivojlantirishning yagona asosi sifatida ko'ruvchi tashkilot deb e'lon qildi. Ikkinchi jahon urushi davrida tashkilot a'zolarining soni tez ko'payib bordi. 1946-yilga kelib uning a'zolari soni 500000 taga etdi. 1948–1949-yillarda bo'lib o'tgan Arab-Isroil urushida tashkilot a'zolari mustaqil jangovar birlik sifatida qatnashdi. Urushdan keyin tashkilot yetakchilari Misr hukumatini jur'atsizlikda ayblab, mamlakat bo'ylab qator terrorchilik harakatlarini amalga oshirishdi. Bunga javoban tashkilot ta'qib ostiga olinib, 1949-yilda Hasan al-Banno o'ldiriladi.

1950–1960-yillarda «birodarlar» ga rahbarlik qilgan Sayid Qutb davrida tashkilot faoliyati yanada radikallashuviga zamin yaratildi. Sayid Qutb «Yo'ldagi belgilar» kitobida (1965) arab jamiyati johiliya davriga qaytib, ma'naviy tanazzulga uchradi, bunday vaziyatda asl dindorlar jamiyatdan ajralib, alohida jamoalar tuzishlari hamda johiliyaga aylangan jamiyatni islomlashtirish uchun jihod olib borishlari lozim, degan g'oyani ilgari suradi. Sayid Qutb ilk bor dunyoviy hukumat va o'ziga qo'shilmagan musulmonlarga nisbatan «takfir» (kofirlikda ayblash)ni qo'llagan holda, islomga yot bo'lgan – «fitna»ni yoqlab chiqdi. 1950-yillarning boshlarida «birodarlar» ning Misr inqilobiy Kengashi faoliyatiga ta'sir etishga urinishlari oqibatida tashkilotning ochiq faoliyat yuritish huquqi bekor qilindi, ko'pgina faollari qamoqqa olindi. 1964-yilda «birodarlar» faollari amnistiya bilan ozodlikka chiqqach, hukumatga qarshi faoliyatni yana davom ettirgach, 1966-yilda Sayid Qutb boshchiligidagi bir guruh tashkilot yetakchilari qatl etildi. Bu voqea, shuningdek., 1967-yilda bo'lib o'tgan «olti kunlik» urushdagi arablarning yirik mag'lubiyati terrorchilik harakatlarining bir oz bo'lsa-da pasayishiga sabab bo'ldi.

Ayni paytda «Musulmon birodarlar» tashkiloti 1970–1981-yillarda ochiq uyushma sifatida faoliyat ko'rsatdi. Navbatdagi 1973-yilgi jang

arablarning g'alabasi bilan tugagach Isroilning xalqaro miqyosdagi obro'si keskin tushib ketdi. AQSh va g'arb davlatlari Isroilning obro'sini saqlab qolish uchun Misr prezidenti Anvar Sadatdan foydalanishdi. 1979-yil 26-martda Kemp Devidda (AQSh) Misr bilan Isroil o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatildi. «Birodarlar» Sadatning bu siyosatini tanqid qilgan holda hokimiyatga nisbatan murosasiz, radikal muxolifatchilik mavqeiga o'tdilar. Tashkilot a'zolari Afg'onistonda sovet qo'shinlariga qarshi olib borilgan janglarda ham ishtirok etishdi. Ma'lumotlarga qaraganda «musulmon birodarlar»ning mintaqaviy bo'limlari Baxrayn, Misr, Iordaniya, Yaman, Qatar, Livan, BAA, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Sudan, Suriya, Daniya, Fransiya va Germaniya kabi mamlakatlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

«HAMAS» («Harakat al-muqavama al-islomiya»- «Islom qarshilik harakati»). Tashkilotga 1987-yilda shayx Ahmad Yosin tomonidan asos solingan. Ahmad Yosin Qohiradagi Aynush-Shams islom universitetida o'qigan. «Musulmon birodarlar» tashkiloti mafkurasi bilan yaqindan tanish edi. Uning boshchiligida tashkil etilgan «Islom birlashmasi» yahudiylarga qarshi faoliyat yuritmagani, hamda ushbu masalada Yosir Arofot boshchiligidagi FOT bilan ixtilofga borgani uchun Isroil rahbariyatining xayrixohligiga erishadi.

«XAMAS» ning siyosatini ifodalovchi «Alloh yo'li» nomli hujjatda barcha islom davlatlariga zulm va adovat tarqatilayotgani, buning oldini olishga, Falastinning barcha hududida islom davlati barpo etishga faqat jihod yo'li bilan erishish mumkinligi ta'kidlanadi. Yosinning fatvosi bilan qarshilik harakatiga yosh o'smirlar va ayollar ham jalb etildi. «XAMAS» tomonidan Isroilga qarshi qator terrorchilik harakatlarining amalga oshirilish natijasida 1989-yilda Yosin qamoqqa olinib uning o'rniga Mussa Abu Mazruq tayinlandi. Fors ko'rfazi davlatlarida tashkilotning bo'limlari ko'paydi, a'zolarining soni oshdi, tarkibiy jihatdan mustahkamlandi.

Bugungi kunda «XAMAS» ijtimoiy-siyosiy sohada ochiq faoliyat yurituvchi va terrorchilik amaliyotlarini amalga oshiruvchi ikkita qanotga ega. Ijtimoiy-siyosiy tizim tarkibida bo'lgan bo'linmalar xayriya ishlari, masjid va OAV orqali radikal islom g'oyalarini targ'ib qilish hamda jamoat muassalarida tashkilotga yangi a'zolarni yollash bilan shug'ullanadi.

Terrorchilik amaliyotini esa, «Azadin-Kassam» nomi ostida faoliyat yurituvchi jangovar guruh amalga oshiradi: Isroil askarlariga hujum qilish; minalashtirilgan avtomobillar hamda kamikadzelardan foydalanish orqali jamoat joylarini portlatish; yahudiylar yashaydigan hududlarni reaktiv snaryadlar bilan o'qqa tutish va boshqalar.

3. «Hizbulloh» («Alloh partiyasi»). Yaqin Sharqdagi shia musulmonlarining yetakchi kuchlaridan biriga aylangan «Hizbulloh» tashkilotiga 1982-yilda Livanda shayx Muhammad Husayn Fadallo boshchiligida shia dindorlari tomonidan asos solingan. Isroil armiyasining Livanga bostirib kirishi natijasida ko'plab tinch aholining halok bo'lishi «Hizbulloh» tashkilotining ommaviylashuviga, a'zolar sonining ko'payishiga olib keldi. 1985-yilda e'lon qilingan deklaratsiyada tashkilotning mafkuraviy asoslari qilib quyidagilar belgilangan: 1) yahudiy, fransuz va amerikaliklarni Livandan siqib chiqarish; 2) ozod etilgan hududda islom davlati tuzish; 3) AQSh va Isroil tashkilotining asosiy dushmani; 4) Falastinni yahudiylardan ozod etish.

«Hizbulloh» 1980–1990-yillarda AQSh va Isroilga nisbatan eng ko'p terrorchilik harakati amalga oshirgan tashkilot hisoblanadi. Livan hududidan Isroil qo'shinlari chiqib ketgach, tashkilot tuzilmasida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Uning harbiy qanoti «Islom qarshilik harakati» mustaqil tashkilot sifatida ajralib chiqdi. Tashkilot faoliyatida ijtimoiy dasturlarga keng e'tibor berildi. «Hizbulloh» mamlakat parlamentiga o'tkaziladigan saylovlarda qatnasha boshladi.

«Hizb at-tahrir al-islomiy» («Islom ozodlik partiyasi»). Ushbu tashkilotga 1953-yili Taqiyiddin Nabahoniy tomonidan asos solingan. Tashkilot oldiniga o'z oldiga Falastinni yahudiylardan ozod qilishni maqsad qilib oladi. Lekin keyinchalik musulmon davlatlarini birlashtiruvchi yagona halifalik barpo etishni bosh maqsad deb e'lon qiladi. «Hizb at-tahrir al-islomiy» tashkilotining mafkuraviy asoslari Nabahoniy va uning izdoshi bo'lmish Abdul Qaddim Zallumning «Islom nizomi», «Halifalik», «Islomiy olamga qaynoq nidolar», «Hizbut-tahrirning tushunchalari», «Demokratiya-kufr nizomi» va boshqa asarlarida bayon etilgan. Bu asarlarda G'arb sivilizatsiyasi va dunyoviy davlat tamoyillari qoralangan holda, turli mamlakatlarda radikal islom g'oyalarini targ'ib qilish, davlat to'ntarish orqali hokimiyatni qo'lga

kiritish hamda halifalikka asoslangan tuzumni o'rnatish asosiy maqsad sifatida ilgari surilgan. Hozirgi kunda esa, tashkilot rahbarlari tomonidan ilgari surilgan «Arab-Isroil muammolarini hal etishning yagona vositasi – yahudiylarni ommaviy qirg'in qilishdir», degan reaksion g'oya «Hizb at-tahrir al-islomiy» ning haqiqiy mohiyatini belgilab beradi deyish mumkin.

«Hizb at-tahrir al-islomiy» piramida shaklidagi tuzilishga ega bo'lib, uning quyi pog'onasini besh kishilik «xalqalar» ga birlashgan «doris» xatti-harakatlarlar tashkil etadi. Unga mushrif rahbarlik qiladi. 4-5 mushrifdan iborat «mahalliy jihoz» «naqib» ga, naqiblar esa, viloyat darajasida «musoid» ga bo'ysunadilar. Musoidlar faoliyati mintaqaviy rahbar - «mu'tamad» tomonidan boshqariladi. Tashkilot rahbari – «Amirul-a'zam» tashkilotning oliy bo'g'ini – «Qiyodat» orqali mu'tamadlarning faoliyat yo'nalishini belgilab turadi. Bunday tuzilish tashkilotning mumkin qadar yashirin ish olib borish imkonini beradi.

«Hizb at-tahrir al-islomiy» ning 1960-1970-yillarda sodir etgan qator qo'poruvchilik xatti-harakatlarlari uchun deyarli barcha musulmon davlatlarida uning faoliyati taqiqlandi. Shunday bo'lsa-da, ba'zi Yaqin Sharq mamlakatlari «Hizbut-tahrir» ning faoliyat markazi sifatida saqlanib qolmoqda.

«Hizbut-tahrir» ning faol harakati 1970-1980-yillardan buyon Pokiston, Indoneziya, Filippin, 1990-yillar boshidan markaziy Osiyo davlatlari va Rossiyada kuzatilmoqda. Garchi «Hizbut-tahrir» o'z faoliyatida faqat g'oyaviy kurash usullaridan foydalanishni e'lon qilsa-da, harakat faollarining bir qator davlatlarda amalga oshirgan terrorchilik amaliyoti buning teskarisini ko'rsatmoqda.

4. «Al-Qoida» («Asos»). Usoma bin Loden rahbarligida Afg'onistonda sovet armiyasiga qarshi urushda ishtirok etish uchun ko'ngillilarni yollash va ularni qurol-aslaha bilan ta'minlash maqsadida, Pokiston hududida «Maktab al-xidmat» byurosi tashkil etiladi. Ushbu maktab «Al-Qoida» tashkilotining paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Tashkilotning dastlabki tuzilmalari 1992-yilda Xartum (Sudan) da qayta shakllantirildi. «Al-Qoida» g'oyaviy jihatdan Muhammad ibn Abdul-Vahhob va Sayid Qutblarning asarlarida bayon etilgan tamoyillarga asoslangan bo'lib, amalda musulmon davlatlaridagi dunyoviy hukumatlarni ag'darib tashlash va shariatga asoslangan islomiy davlat

qurishdek asosiy maqsadni ko'zlaydi. Yaqin Sharqdagi Arab-Isroil muammosini musulmonlar va kofirlar orasidagi dinlararo kurash sifatida ta'riflash, AQSh boshchiligidagi koalitsion kuchlarning Iroqqa kirishini salb yurishi deb baholash ham tashkilotning g'oyaviy qarashlarini ifodalaydi. «Al-Qoida» boshqa diniy ekstremistik tashkilotlar kabi qat'iy ierarxiya asosida tuzilgan bo'lib, unga Oliy Kengash («Majlis ash-shura») rahbarlik qiladi. Manbalarda «Al-Qoida» ning harbiy lagerlari 2001-yilga qadar Afg'oniston, Pokiston, Somali, Sudan, Yaman, Bangladesh kabi qator davlatlarning tog'li hududlarida, shuningdek,, Checheniston, hatto, bittasi AQSh ning Florida shtatida faoliyat ko'rsatgani qayd etiladi.

«Al-Qoida» ning dastlabki faol harakati 1992-yilda kuzatilgan bo'lib, tashkilot jangarilari Somalidagi beqarorliklarning oldini olish uchun kiritilgan BMT tinchlikparvar kuchlari tarkibidagi AQSh ning 18 ta harbiy xizmatchisini o'ldirishdi. 1996-yilga kelib Sudanning tazyiqqa olinishi natijasida «Al-Qoida»ning asosiy jangovar kuchlari Afg'onistonga olib o'tildi. Aynan shu yerda 1998 yilning fevralida «Al-Qoida»ning yetakchiligida «al-Jamoa al-Islomiyya», «al-Jihod» (Misr), «Jamaati ulame Pokiston», «Kashmir qo'zg'olonchilik harakati» (Hindiston), «Jihod» (Bangladesh) va «Tolibon» harakati vakillari «Yahudiy va salbchilarga qarshi xalqaro islom fronti» uyushmasi tuzilganini e'lon qilishdi. Uyushma nomidan Usoma Bin Loden AQSh boshchiligidagi G'arb dunyosiga jihod e'lon qildi.

Shundan so'ng jahonning turli nuqtalarida qator og'ir oqibatlarni keltirib chiqaruvchi terroristik harakatlarni amalga oshirishdi. Umuman olganda «Al-Qoida» guruhi jangarilari Afg'oniston (1992-yildan), Somali (1992–1993 y.y.), Bosniya va Gertsegovina (1992-1995-y.y.) Kashmir (1993-yildan), Shimoliy Kavkaz (1995-yildan), Markaziy Osiyo (1999-yildan), Iroq (2003-yildan) hududlarida qurolli to'qnashuv va terrorchilik harakatlarini amalga oshirishda faol ishtirok etib kelmoqda. 2001-yil 11 sentyabr voqealaridan so'ng Afg'onistonga nisbatan keng ko'lamli aksilterror harakati o'tkazildi. «Al-Qoida» jiddiy zarar ko'rdi. Lekin uning faoliyati butunlay to'xtab qolmadi. Tashkilot o'z faoliyatini yangi sharoitlarga moslashtirishga intilmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, diniy-ekstremistik tashkilotlar rasmiy ochiq ish olib boruvchi siyosiy hamda xufya harakat qiluvchi

guruhlar orqali faoliyat yuritishga urinmoqda. O'z safini ko'proq yoshlar va ayollar hisobiga ko'paytirmoqda. Diniy-ekstremistik tashkilotlar o'z faoliyatlarini uyg'unlashtirish va yaxlit tizimga keltirishga harakat qilmoqda. Ularning qo'poruvchilik xatti-harakatlarlari mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojiga salbiy ta'sir qilmoqda. Jamiyatdagi ma'naviy-ruhiy muhitning buzilishiga sabab bo'lmoqda.

5. Terrorizmga qarshi kurashda Misr tajribasi. Arab-musulmon davlatlari ichida terrorizm muammosi bilan birinchi to'qnash kelgan davlat Misr hisoblanadi. Qayd etib o'tilganidek, aynan shu yerda 1928 yilda «Musulmon birodarlar» tashkiloti tuzilgan edi. Shu tariqa bu havfli hodisa bilan kurashda Misr katta tajriba to'pladi. Shu ma'noda musulmon davlatlarining terrorizmga qarshi kurashini Misr misolida tahlil qilish o'rinli.

«Musulmon birodarlar» tashkiloti 1940-yilga kelib o'z faoliyatlarida ishontirish usullaridan voz kechib radikal terrorchilikka o'ta boshladi. Davlat tomonidan 1950–1960-yillarda olib borilgan chora-tadbirlar natijasida «Musulmon birodarlar» tashkiloti faqatgina yashirin ish olib borishga o'tishga majbur bo'ldi.

1970-yilda Jamol Abdul Nosirning o'lmidan keyin Misrda hokimiyat tepasiga Anvar Sadat chiqishi bilan, mamlakatning ichki va tashqi siyosatida keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Sadat va uning hukumati o'zlarini din va diniy qarashlarning himoyachisi sifatida ko'rsatishga harakat qilib, dinni kuchaytirish orqali so'l kuchlarga qarshi kurashni asosiy maqsad qilib quyishdi. Bu xayrixohlik yangi radikal guruhlarning paydo bo'lishiga olib keldi: «At-takfir val-hijra» («Dahriylikda ayblash va jamiyatdan chiqish»), «Al-Jihod al-Muqaddas» («Muqaddas jihod»). 1980-yillar boshlarida islomchilar ommaviy harakatlarni amalga oshira boshladilar. 1981-yilning sentyabrida hukumat konvensiyalararo to'qnashuvlar kelib chiqishining oldini olish maqsadida keskin, kechiktirib bo'lmaydigan choralarni ko'ra boshladi. Barcha muxolif siyosiy, diniy tashkilotlar va oqimlarning vakillarini hibsga olish boshlandi. Lekin bu choralar muvaffaqiyat keltirmadi.

Yuzaga kelgan vaziyatdan islomchilar zudlik bilan foydalanadilar. Olib borilayotgan g'arbparastlik siyosati, Isroil oldidagi taslimchilik siyosati («Kemp-Devid shartnomasi»), iqtisodiyotga XVJ mablag'larini investitsiya sifatida jalb etishga urinish qattiq tanqid ostiga olinib

arablarning huquqlarini qayta tiklash uchun kurashga chaqira boshladilar. 1981-yilning 6 oktyabrida harbiy parad vaqtida Anvar Sadat «Jihod» tashkiloti a'zolari tomonidan o'ldiriladi. Sadatning o'limidan keyin «Jixod» tashkiloti a'zolari o'rta asr islom xalifaligiga o'xshagan islom davlatini tashkil etish maqsadida, Asyut shahri ustidan nazorat o'rnatishga harakat qiladi. Lekin ularning bu rejasi amalga oshmadi. 1981-yil 14 oktyabrda prezidentlik lavozimini egallagan Husni Muborak oldingi prezident siyosatini davom ettirdi.

Misr boshidan kechirgan iqtisodiy va ijtimoiy qiyinchiliklar (Misrning arab dunyosida yakkalanib qolishi, neft va paxta narxining tushib ketishi, ulkan miqdordagi tashqi qarz) islom fundamentalizmining tiklanishiga olib keldi. Bunga, shuningdek,, 39 ming kishilik Misr harbiy kontingentining AQSh tomonida turib Iroqqa qarshi o'tkazilgan «Sahrodagi bo'ron» operatsiyasida ishtirok etishi ham turtki berdi. Terrorchilik harakatlari faollashdi. 1993, 1995 va 1999-yillarda Husni Muborakka bir necha bor suiqasd amalga oshirildi. Ayni paytda fundamentalistlar kurashning yangi shakllarini o'zlashtira boshlashdi. Ular kasaba uyushmalarida rahbarlikni egallashdi, ochlik, ish tashlashlar, kompyuter tizimida buzilishlarni amalga oshirishdi. Hukumat bunga javoban yana ommaviy qatog'onlar bilan javob berdi. 1996-yilda Islom guruhi yangi siyosiy partiya – Markaz Partiyasini tashkil etdi. U terrorizmdan voz kyechishini, kurashning tinch usullariga o'tishini e'lon qildi. Faqat Islom jihodi ilgarigi usullaridan voz kechmadi.

6. Misrning kurash strategiyasi. Misr hukumatining diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash strategiyasi bevosita va bilvosita qarshilik ko'rsatish usullarini o'z ichiga oladi. Bevosita qarshilik ko'rsatish o'z ichiga huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan ko'riladigan chora-tadbirlarni o'z ichiga olib u haqda yuqorida to'xtalib o'tildi. Kurashning bu usuli qabul qilingan aksilterrorchilik qonunlarining huquqiy asoslaridan keng foydalandi. Bilvosita choralarga esa, hukumatning muaassasalarni o'z tarafiga og'dirishga, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradigan dastak va tizimlar kiradi. Bugungi kunda bu kurash qurolli qarshilik ko'rsatish va qatog'onlardan tortib, hozircha samara bermagan murosaga kelishga urinishdek xilma-xil uslublardan foydalangan holda olib borilmoqda.

Radikal islom guruhlari bilan muloqotlar Muftiyat va Vaqf vazirligi boshchiligidagi rasmiy diniy muaassasalar tomonidan olib borildi. Bu guruh vakillari radikal islom guruhlari faol bo'lgan hududlarga borib uchrashuv va bahslar o'tkazishardi. Lekin bu yo'sindagi xatti-harakatlarlar zo'ravonliklarning kamayishiga olib kelmadi.

Qo'poruvchilik xatti-harakatlarlarining oldini olish va unga qarshi kurashda hukumat asosan repressiv choralardan foydalandi: favqulodda holat e'lon qilish; favqulodda sudlar tashkil etish va amalga oshirish; siyosiy ishlar bo'yicha o'lim jazosini qo'llash; sud qarorisiz ma'muriy qarorlar yordamida ayrim shaxslarni hibsga olish va sh.k. Shuningdek,, terrorchilik hurujlari va zo'ravonliklarning oldini olishda hukumat armiya qismlaridan faol foydalandi. Misrda qabul qilingan va kuch ishlatishga asoslangan choralar doirasida profilaktik hibsga olish, qamoqda saqlash hamda harbiy tribunallar faoliyati alohida o'rinni egallaydi. Bunday amaliyotda «Favqulodda vaziyatlar to'g'risida» gi va «Harbiy tribunallar to'g'risida» gi qonunlarga amal qilinadi. Shuningdek, diniy asosda partiyalar tuzish taqiqlandi. Bundan tashqari, noqonuniy ravishda qurol saqlaganlar, zo'ravonlikni targ'ib etuvchilar, radikal islomni moliyaviy qo'llab-quvvatlovchilarga nisbatan ma'muriy-jinoiy choralar belgilandi. Shu tarzda Misr hukumati kuchli repressiv choralar bilan bir qatorda kurashning huquqiy choralaridan ham samarali foydalandi.

1990-yillarda terrorchilik aktlarining kuchayishi sababli, Misr hukumati «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida» gi qonunni qabul qilishga majbur bo'ldi. Bu qonunning qabul qilinishi xavfsizlik idoralariga ko'proq imtiyozlar berish bilan birga ular faoliyatining samaradorligini ham ta'min etish bilan bog'liq edi. «Favqulodda vaziyatlar to'g'risida» gi qonun mahbuslarga oliy sud va uning bo'linmalariga 30 kunlik muddatda appelyatsiya bilan murojaat etish huquqini berardi. Bu muddat xavfsizlik idoralariga ashyoviy dalillarni to'plash uchun etarli emas edi. Hukumat shundan kelib chiqib, zo'rlik va terror bilan bog'liq fuqarolik ishlarini ham harbiy tribunallarda ko'rib chiqishga o'tkaza boshladi. Bu qadamning huquqiy asosini yaratish uchun maxsus farmon ham e'lon qilindi. 1993-yilda qabul qilingan «Kasaba uyushmalariga saylov to'g'risida» gi qonun ham 1980-yillardan kasaba uyushmalarini qo'lga olgan islomchilarga qaratilgan edi.

O'z faoliyatining dastlabki davrida Husni Muborak diniy muxolifat bilan kurashning differensial yondashuvga asoslangan strategiyasini ishlab chiqdi. Bu siyosat hukumatning islom harakatining mo''tadil qismiga chidamli munosabati va radikal qismiga keskin javobida o'z ifodasini topdi. Ma'lumki Anvar Sadat davrida boshlangan liberallashtirish siyosati natijasida Misrda ko'ppartiyaviylik tizimi yaratilgan bo'lsa-da, islom muxolifati siyosatda qatnasha olmas edi. Husni Muborak tomonidan ishlab chiqilgan strategiyaga asosan islom guruhlari parlament tarkibiga kirish imkoniga ega bo'lishdi. 1987-yilda galdagi saylovlarda parlamentdagi kuchlar nisbati dunyoviy kuchlar foydasiga hal bo'lmadi. Muxolifatning mo''tadil va radikal qismlarining o'zaro birikib ketishini ko'zlagan va shu yo'l bilan diniy va dunyoviy qanotlarning muvozanatiga erishishga qaratilgan hukumat strategiyasi amalga oshmadi.

Husni Muborak o'z oldiga milliy birlikning keng asosini yaratishni maqsad qilib qo'ygan edi. Rasmiy hukumat asosiy havf bo'lmish radikal islom harakatiga qarshi kurash maqsadida, turli siyosiy oqimlar va harakatlar, shu jumladan, mo'tadil islom kuchlarini birlashtirishga harakat qildi. Bu kuchlarga keng imtiyozlar yaratilgan holda, radikal islomni yo'q qilishga qaratilgan murosasiz kurash olib borildi. Biroq radikal islom guruhlari mamlakat ichida ham, tashqarisida ham terrorchilik harakatlari sodir etishning yuqori sur'atini saqlab qolishga intildilar.

Radikal islom guruhlari faolligi va ular amalga oshirayotgan harakatlarning xavfi o'sib borayotgani hamda ilgari qabul qilingan choralarning yetarli samara bermayotgani bois, Misr hukumati bu kuchlarga qarshi kurashga jiddiyroq yondashishga majbur bo'ldi.

Maxsus ishlab chiqilgan ilmiy dasturga ko'ra, Misr hukumati diniy ekstremizm va terrorizm bilan ham ichki, ham tashqi jabhada kurash olib bora boshladi. Davlat tomonidan ishsizlik, kam ta'minlangan oilalarning yashash darajasining pastligi, savodsizlik, uy-joy yetishmasligi kabi muammolarni yechishga qaratilgan tadbirlar belgilandi. Terrorchi tashkilot a'zolarining mutloq ko'pchiligini jamiyatdagi o'rnini aniq belgilab olmagan yoshlar tashkil etadi. Shuning uchun ham, dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida aholining qashshoqlashuviga terrorizmni

oziqlantiruvchi omillardan biri sifatida qaralmoqda va uni keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etishga alohida e'tibor berilmoqda.

Bu borada Misr hukumati qator dasturlarni amalga oshirmoqda. Radikal islom tashkilotlarining qashshoqlik, ishsizlik, aholining tabaqalashuvi kabi asosiy tayanch nuqtalaridan va mazkur muammolar uchun javobgarlikni hukumat bo'yniga yuklash imkoniyatidan mahrum qilishga harakat qilmoqda. Shuningdek,, davlat aholi uchun asosiy oziq-ovqat mahsulotlari, neft mahsulotlari, elektr energiyasi, maoshga qo'shimcha to'lovlar, suvdan bepul foydalanish kabilarni dotatsiyalashda davom etmoqda.

7. Xalqaro maydondagi harakatlar. Misr hukumatining xalqaro maydondagi faol harakatini quyidagi yo'nalishlarga bo'lib tahlil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Birinchidan, Misr BMT boshchiligida terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro konferensiya chaqirish taklifini ilgari surish, bu masalani turli xalqaro forumlarda ko'tarish bilan dunyo jamoatchiligi diqqatini uni hal etishga qaratib kelmoqda.

Ikkinchidan, radikal kayfiyatdagi islomchilar yashayotgan davlatlar bilan xavfsizlik sohasida hamkorlik qilish va jinoyatchilarni almashish bo'yicha ikki tomonlama kelishuvlarni imzolashga keng e'tibor berilmoqda. Shunday kelishuvga asosan Misr 1994–1995-yillarda arab davlatlarida yashayotgan oltita terrorchini qaytarishga erishdi.

Uchinchidan, Misr hukumati arab davlatlari o'rtasida xavfsizlik sohasidagi siyosatni tartibga solish va terrorizm muammosini arab davlatlari ichki ishlar vazirlari majlislarining dolzarb mavzusiga aylantirish yo'lida qat'iy harakat qilmoqda

To'rtinchidan, Misrga terrorchi va mutaassib unsurlarning kirib kelishi, qurol va pul olib kirilishining oldini olish uchun chegara nazorati kuchaytirilmoqda.

Oltinchidan, radikal islom tashkilotlari va guruhlari, yetakchilari harakatlarini muntazam asosda kuzatib borish, ular joylashgan davlatni bu haqda ogohlantirish va boshqalar.

4-MAVZU: MARKAZIY OSIYODAGI BARQARORLIK VA HAVFSIZLIKKA TAHDID SOLAYOTGAN DINIY EKSTREMISTIK VA TERRORISTIK TASHKILOTLAR

Dars o'tish texnologiyasi:

Ushbu mavzuni o'tishda "Bumerang" texnologiyasidan foydalanish tavsiya etiladi.

"BUMERANG"

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu texnologiya talabalarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab berish, fikrni erkin holda bayon eta olish, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'lish hamda dars mobaynida baholay olishga qaratilgan.

Texnologiyaning maqsadi. O'quv jarayoni mobaynida tarqatilgan materiallarni talabalar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat-munozara va turli savollar orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish va baholash. O'quv jarayoni mobaynida har bir talaba tomonidan o'z baholarini egallashga imkoniyat yaratish.

Texnologiyani qo'llash tartibi: Ushbu texnologiya bir necha bosqichda o'tkaziladi:

- talabalar kichik guruhlarga ajratiladi;
- talabalar darsning maqsadi va tartibi bilan tanishtiriladi;
- talabalarga mustaqil o'rganish uchun mavzu bo'yicha matnlar tarqatiladi;
- berilgan matnlar talabalar tomonidan yakka tartibda mustaqil o'rganiladi;
- har bir guruh a'zolarining har biri guruh ichida navbati bilan mustaqil o'rgangan matnlari bilan axborot almashadilar, ya'ni bir-birlariga so'zlab beradilar, matnni o'zlashtirib olishlariga erishadilar;

- berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun guruh ichida ichki nazorat o'tkaziladi, ya'ni guruh a'zolari bir-biri bilan savol-javob qiladilar;
- yangi guruh a'zolari dastlabki holatdagi guruhlarga qaytadilar;
- darsning qolgan jarayonida talabalar bilimlarini baholash yoki to'plagan ballarini hisoblab borish uchun har bir guruhda "guruh hisobchisi" tayinlanadi;
- talabalar tomonidan barcha matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o'qituvchi talabalarga savollar bilan murojaat etadilar, og'zaki so'rov o'tkazadilar;
- savollarga berilgan javoblar asosida guruhlarni to'plagan umumiy ballari aniqlanadi;
- har bir guruh a'zosi tomonidan matnning mazmunini hayotga bog'lagan holda bittadan savol tuziladi;
- guruhlar tomonidan tayyorlangan savollar orqali savol-javob tashkil etiladi;
- guruh a'zolari tomonidan to'plangan umumiy ballar yig'indisi aniqlanadi;
- guruhlar to'plagan umumiy ballar guruh a'o'olari o'rtasida teng taqsimlanadi.

Talabalar to'rtta guruhga ajratilib, to'rtta savol beriladi:

1-savol: Diniy ekstremizm va terrorizmning Markaziy Osiyo mintaqasida namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari.

2-savol: Vahhobiylik va uning «O'zbekistondagi tashkiliy tizimi». «O'zbekiston islom harakatining jamiyat taraqqiyotiga tahdidi»

3-savol: Hizbut-tahrir» oqimi va uning mustaqil O'zbekiston taraqqiyotiga tahdidi

4-savol: Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotiga tahdid soluvchi boshqa diniy-siyosiy harakatlar.

1. Diniy ekstremizm va terrorizmning Markaziy Osiyo mintaqasida namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari

XX asrning 90-yillariga kelib «ikki qutbli mafkura» o'rtasidagi kurashga barham berildi. Ammo dunyodagi g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar to'xtab qolgani yo'q. Aksincha, jahon maydonlarini mafkuraviy jihatdan bo'lib olishga urinishlar turli yo'llar bilan amalga oshirilmoqda. Bunday mafkuraviy ta'sirlardan mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo hududi ham chetda qolgani yo'q. Masalan, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng mafkura sohasida hayot osonlikcha kechmadi. Milliy istiqlol g'oyasiga zid bo'lgan yot va begona g'oyalar kirib kelishga va yoshlarimiz ongini egallashga, ularni mamlakatimizda belgilangan ulug'vor maqsadlarni amalga oshirishga qarama-qarshi qo'yishga urinishlar bo'lganligi hammamizga ayon. Ular o'zlarini «do'st», «vatandosh», «dindosh» etib ko'rsatish niqobi bilan o'z g'oyalarini amalga oshirishga urindilar.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlanganidek «... hozirgi vaqtda dunyoda ikki qarama-qarshi qutb barham topgan bo'lsa-da, turli xil maqsad-manfaatlarni ifoda etuvchi mafkuralar tortishuvlardan ko'zlangan asosiy maqsad – inson, avvalambor, yoshlar qalbini egallash, muayyan mamlakat yoki mintaqadagi biror millat yoki xalqning ongiga, uning sezgi-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish, uni o'z dunyoqarashiga bo'ysundirish, ma'naviy jihatdan zaif va tobe qilish» dir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar, ya'ni insonlarning qalbi va ongini egallash uchun uzluksiz davom etayotgan kurash ko'p narsalarni hal qiladi. Jahondagi ma'lum siyosiy kuchlar ulkan iqtisodiy salohiyat va qulay geopalitik mavqega ega bo'lgan bu mintaqani o'z manfaatlari doirasiga tortish harakatlaridan to'xtaganlari yo'q. Ular o'z maqsadlariga erishish uchun ta'sir va bosim o'tkazishning barcha shakllaridan foydalanishga urinmoqdalar. Shulardan biri Markaziy Osiyo xalqlarining dunyoqarashi va ma'naviyatida islom dinining mustahkam o'rin egalaganligidan foydalanib, ularga islomiy «saboq» berish, islomni qayta tiklash bayrog'i ostida mintaqada diniy ekstremizm va fundamentalizmni keng tarqatish borasida olib borayotgan qo'poruvchilik harakatlaridir.

Ma'lumki «fundamentalizm», «ekstremizm», «terrorizm» kabi hozirda tez-tez takrorlanayotgan tushunchalar jamiyatda qabul qilingan qoidalarga mos kelmaydigan g'oyani va shu g'oya asosidagi harakatlarni ifodalaydi. «Fundamentalizm» va «ekstremizm» g'oyalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishidan ko'zlangan maqsad – diniy qadriyatlarni qaytadan tiklash emas, balki ana shu g'oyalardan vosita sifatida foydalanish orqali mintaqada beqarorlikni, diniy asosdagi va millatlararo nizolarni vujudga keltirish, oxir-oqibat esa, hokimiyatni qo'lga kiritishdir. Bu urinishlar ostida esa, tarix sahifasida qolib ketgan halifalikni tiklash g'oyasiga zo'r berilmoqda.

Diniy ekstremizm va fundamentalizmning Markaziy Osiyo mintaqasida, xususan, mamlakatimiz taraqqiyotiga havf tug'dirayotganligini Prezidentimiz teran anglab, bu qanday dahshatli oqibatlarga olib kelishi mumkinligidan o'zlarining 1997-yilda yozgan «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarlarida ogoh qilgan edilar.

XX asrning 90-yillariga kelib diniy ekstremistik ruhdagi oqimlar ko'payib, harakatlari sezilarli darajada jonlanib taraqqiyotga tahdidlari kuchaydi. Bunday oqimlarni Markaziy Osiyo hududiga, xususan O'zbekistonga kirib kelishini 5 bosqichga bo'lib o'rganish mumkin:

1-bosqich. 1970–1985-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda sobiq SSSRda ateistik siyosat yurgizilgan. Bu siyosat oqibatida machitlarning soni kamayib 119 taga tushib qolgan edi. Diniy o'quv yurtlari (madrasa)dan faqat Buxorodagi Mir Arab madrasasi va Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutigina cheklangan holda faoliyat ko'rsatar edi. Nafaqat kommunistlar, hatto oddiy fuqarolar ham yaqin kishilari vafot etganda janoza (dafn marosimi)da qatnashishga ham yurak oldirib qo'ygan edilar. Islom dini va boshqa dinlarning ta'limotini o'rganishga ruhsat berilmas edi. Shunga qaramay kishilarimiz qalbida dinga ishonch va e'tiqod yashirin bo'lsa-da saqlanib kelardi.

Islomni saqlashga harakat qilingan. Yashirin bo'lsa-da hujralarda islomni o'qitishgan. Bu davrda diniy sohani jonlantirish harakati yashirin va ochiq suratda borgan.

2-bosqich. 1985–1989-yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda sobiq SSSRda qayta qurish, oshkoralik, ichkilikka qarshi kurash olib borildi. Demokratiya va dinga biroz erkinlik berildi. Bu davrda yurtimizga

chetdan ko'plab diniy adabiyotlar kirib keldi, missionerlik (dinni targ'ib qilish) jonlandi. Yurtimizga kirib kelgan diniy adabiyotlarning ko'plari mazmunan asrlar davomida yurtimizda qaror topgan hanafiylik (Imom A'zam) mazhabiga zid bo'lgan g'oyalar bilan sug'orilgan edi. O'sha yillari respublikamiz Oliy o'quv yurtlarida ko'plab chet ellik, jumladan islom dunyosidan kelgan talabalar ham ta'lim olar edi. Bu talabalar asosan boshqa mazhab ruhida tarbiya topgandilar. Chet ellik talabalar bilan muloqotda bo'lgan bizning talabalarimiz o'rtasida diniy mavzuda suhbatlar bo'lar, kitoblar o'qiladi. Bunday suhbat va kitoblar mazmuni ham bizning mazhabimizga zid edi. Natijada chet ellik talabalar ta'siriga tushgan yoshlarimizda bizning mazhabimiz (hanafiya, Imom A'zam yo'li) noto'g'ri, hato ekan degan tushunchalar paydo bo'lgandi.

Aqidaviy ta'limotda bizning yurtimiz musulmonlari azaldan Imom al-Moturudiya yo'lidan borib, unga amal qilib kelganlar. Imom al-Ash'ariy Iroqda o'zining Ash'ariya aqidaviy ta'limotini yaratgan. Chet ellik talabalar ta'sirida bo'lgan bizning ba'zi talabalarimiz ham ana shu aqidaviy ta'limot ta'siriga tushib qolgan edilar. Bu ta'limotda musulmon kishi musulmon bo'lmagan davlatda yashashi mumkin emas degan g'oya mavjud. Bu g'oya qanday salbiy oqibatlarga olib kelishi hammamizga ayon.

3-bosqich. 1989-1993-yillarni o'z ichiga olib, bu davrda mustaqillik sharofati bilan dinga berilgan erkinlik tufayli islomiy harakatlarning kuchayish davri bo'ldi. Chetdan ko'plab din mutaxassislari, da'vatchilar islom nimaligini o'rgatish uchun yurtimizga kirib keldi. Vaholanki, bizning xalqimiz diniy va dunyoviy ilmlar borasida: Imom Buxoriy, Imom at-Termiziy, Imom Motrudiy, Burxoniddin Marg'inoniy, Zamahshariy, Ahmad Yassaviy, Baxouddin Naqshband, Muso Xorazmiy, Axmad Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek kabi dunyo tanigan fozillarni tarbiyalab yetishtirgan. Islomni o'rgatmoqchi bo'lganlar aslida islom nimaligini bizdan o'rganishlari joizdir.

Shu yillarda «Islom uyg'onish partiyasi», «Adolat», «Islom lashkarlari» kabi partiya va harakatlar tashkil etildi. Ular huquq-tartibot organlari va ularning rahbarlariga, hukumat idoralari xodimlariga nisbatan tazyiq o'tkazish bilan shug'ullandilar, begunoh odamlarni masjidlar oldidagi ustunlarga bog'lab qo'yishdek bedodliklar qilib,

ochiqdan-ochiq Islom davlati tuzish talablarini qo'ydilar. Bunday partiya va harakatlarning faoliyati 1993-yilga kelib tugatildi.

4-bosqich. 1993-1999-yillarni o'z ichiga oladi. Mamlakatimizda diniy partiya va harakatlar tugatilganidan so'ng ularning vakillari yashirin harakatga o'tishdi. Yashirin ravishda aholini islomlashtirish yo'lini tutdilar. Bunda ular ko'proq ayollar xujralarini tashkil etib, ularga din bilan birga, din yo'lida o'zini-o'zi qurbon (shahid) qilishga tayyorladilar. Yoshlar ongiga sen millat va dinning sharafisan, bu yo'lda shahid bo'lish eng katta savobdir degan g'oyani singdirishga harakat qildilar. Bu davrda ular ayollarni oiladagi mavqeiga ahamiyat berib, din yo'lida o'zini qurbon qilish ruhida tarbiyaladilar va ularni maktabdan bezdirdilar.

5-bosqich. 1999-yil 16 fevral voqealaridan hozirgi kunimizgacha bo'lgan davr. Bu davrda diniy ekstremistik kuchlar mamlakatimiz rahbari va hukumat a'zolariga nisbatan suiqasd uyushtirishlari natijasida 16 begunoh kishining hayotiga zomin bo'ldilar, ularning oilalarini g'am-g'ussaga botirdilar. 2000 va 2001-yillarda qurollangan diniy ekstremistik jangari kuchlar qo'shni mamlakatlar teritoriyasidan Angren, Bo'stonliq, Vobkent, Sariosiyo tumanlariga yashirin ravishda kirib kelib ko'plab vatanparvar yoshlarimizni erta hayotdan ko'z yumishiga sababchi bo'ldilar. 2004-yil 29–30 mart va 1 aprel kunlari qabih niyatli kuchlar domiga ilingan 8 ta ayol Toshkent va Buxoroda o'zini-o'zi portlatib xalq orasida vahima va jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarishga harakat qildilar.

Diniy ekstremistik harakatlarning asl maqsadi Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik o'zgarishlarni yo'q qilish, mintaqada beqarorlik vaziyatni vujudga keltirish va oxir-oqibatda islomiy davlatni qaror toptirish, halifalikni tiklashdan iborat.

Shunday qilib hozirgi davrda diniy ekstremizm va terrorizm nafaqat Markaziy Osiyo mintaqasida, balki butun dunyo xalqlari tinchligi va barqarorligiga tahdid soluvchi harakat ekanligini davlatlar tushunib yetmoqda. Dunyo hamjamiyati bilan hamkorlikda bunday salbiy harakatlar oldini olish va tugatish uchun astoydil kurishmoqdalar.

2. Vahhobiylik va uning O'zbekistondagi tashkiliy tizimi «O'zbekiston islom harakati»ning jamiyat taraqqiyotiga tahdidi

Vahhobiylik islom dinining hanbaliy mazhabidagi diniy-siyosiy oqim bo'lib, 18-asrning o'rtalarida Markaziy Arabistonning Najd vohasida yuzaga kelgan. Asoschisi Muhammad ibn Abdulvahhob 1703-yilda tug'ilgan. Ustozi Abdulloh ibn Sayfo yosh Abdulvahhobni hanbaliy mazhabi yo'nalishida vaxdoniyat (yakkaxudolik) aqidasi bo'yicha tarbiyalagan. Uning dunyoqarashida mashxur vaxdoniyatchi Ahmad ibn Taymiya asarlari katta rol o'ynagan. Natijada u Islom olamida vaxdoniyatning qattiq himoyachisi, tashviqotchisi sifatida maydonga chiqdi.

Vahhobiylik oqimining yuzaga kelib, chuqur ildiz otib mashxur bo'lib ketishida ingliz razvedkasi katta rol o'ynagan. Sababi Islom halifaligi 1517-yildan qudratli Turk sultonligi qo'liga o'tib ketgan edi. Inglizlar o'zlarining yaqin sharqdagi siyosiy raqiblari bo'lmish Turk imperiyasini zaiflashtirish, payini qirqish uchun vahhobiylik harakatini har tomonlama qo'llab turgan va undan foydalangan.

Amir Muhammad ibn Saud Markaziy Arabiston yarim orolidagi mayda sulolalar boshqargan amirliklarni birlashtirishda vahhobiylik ta'limotidan foydalandi. Muhammad ibn Saud va uning o'g'li Abdulaziz vahhobiylar bayrog'i ostida yarim orolning katta qismini kuch bilan egallab, birinchi saudiylar davlatini barpo qildilar.

Vahhobiylarning Sharqiy Arabistonni istilo qilish chog'ida 1792-yili Abdulvahhob vafot etdi. Vahhobiylar Arabistonni birlashtirish, vaxdoniyatni targ'ib etish bahonasida bosqinchilik, talon-taroj, vayrongarchilik harkatlarini olib bordilar. Vahhobiylarning arablarni Islomning yashil bayrog'i ostida birlashtirish g'oyasi o'sha vaqtlarda arab yerlarida hukumronlik qilayotgan Turkiyaga qarshi qaratilgan edi.

O'sha davrda inglizlarning Yaqin Sharqda o'z ta'sir doirasini kuchaytirishiga Turkiya to'sqinlik qilar edi. Shuning uchun inglizlar vahhobiylarni qo'llab-quvvatlash orqali Turkiyani zaiflashtirish siyosatini yurgizdi. Shu bois Turkiya hukumati vahhobiylarga qarshi harbiy harakatlarni boshlab yubordi. 1811-yili Misr podshosi Muhammad Alining qo'shinlari vahhobiylarga qarshi jangga kirishdi va

1818 yilga kelib vahhobiylar hukumatini tor-mor etdi. Lekin uni butunlay yo'qotib tashlay olmadi.

Vahhobiylik hozirga qadar Saudiya Arabistonida hukmron g'oya sanaladi. Bu diniy-siyosiy oqimning izdoshlari Osiyo va Afrika mamlakatlarida mavjud. Keyingi davrda bu oqimga ergashuvchilar Pokiston, Afg'oniston va Tojikistonda ham paydo bo'ldi. Shu davlatlar orqali vahhobiylik XX asrning 80-yillar oxiri, 90-yillar boshlarida O'zbekistonga ham kirib kelib, ayrim dunyoqarashi sayoz, shakllanib ulgurmagan yoshlarimizni o'z domiga tortishga harakat qildi.

Vahhobiylik oqimining asoschisi Muhammad ibn Abdulvahhob faqatgina yakkayu yagona Allohga sig'inishni targ'ib qilib, musulmonlar faqat Qur'on va sunna (hadis) ga amal qilishlari kerak, deb Islomga kiritilayotgan har qanday yangilik (ijmo')larga qarshi chiqqan. Islom amaliyoti payg'ambar zamonlarida qanday bo'lsa shunday bo'lishi kerak, degan talabni o'rtaga qo'ygan. Vahhobbiylar «dinni tozalashga, Muhammad davridagi asl holiga keltirish»ga harakat qilgan.

Abdulvahhob mo'min kishi faqat yolg'iz Allohga sig'inib Undan panoh tilashi, madad kutishi mumkin. Musulmonlar muqaddas joylarni ziyorat qilishi, aziz-avliyolar duolaridan shafoat, yordam tilashi, hatto payg'ambarlarga ham sig'inishi mumkin emas. Bu Allohga shirk keltirishdir, deydi. Vahhobiylar hatto payg'ambarning Madinadagi maqbarasiga ziyorat uchun borish ham bid'at deb aytadilar. Vahhobiylar erkaklarga ipak kiyimlar kiyish, oltin taqinchoqlar taqish, musiqa chalish va tinglash, qo'shiq aytish, raqsga tushish, rasm chizish, suratga tushish, katta bayramlar o'tkazish, tumor, ko'zmunchoq taqish, duoxonlik, qabrlar tepasiga yodgorlik toshlari qo'yish, sham yoqish va boshqalarni bid'at deb, ularni taqiqlaydilar.

Ular insoniyatni kamolot cho'qqilariga etaklovchi tasavvufga ham qarshi turganlar. Avliyo-mashoyihlarga ixlos qilishni kufr va gunoh deb biladilar. Mavlud kunlarini nishonlash, marxumlarning ruhlariga Qur'on tilovat qilishni, aziz-avliyolar yotgan muqaddas joylarni ziyorat qilishni rad etib, bular ham Allohga shirk keltirishdir, gunohi azimdir deb qaraydilar.

Vahhobiylikda g'ayridinlarga, «ilk islom ahkomlaridan chekingan» musulmonlarga qarshi kurash alohida o'rin tutadi. Ularning da'vatini qabul qilmaganlarning barchasi go'yo «kofir» dirlar.

Hozirgi zamon vahhobiylari yuqoridagilardan tashqari, kino, teatr, konsertlarga ham qarshidirlar.

Vahhobiylik xatarli, reaksion diniy-siyosiy oqimdir. Ular odatda terror yoki davlat to'ntarishi yo'li bilan hokimiyat tepasiga kelishga intiladilar.

Vahhobiylik diniy-siyosiy ekstremistik oqimining tashkiliy tizimi bo'lmish «O'zbekiston islom harakati» xalqaro ekstremistik-terorchi oqimlari «Tolibon harakati», «al-Jihod», «Harakat ul-Ansor», «al-Qoida» va boshqalar bilan til biriktirib, ularning rahnamoligida 1990–1992-yillarda tashkil etilgan. O'zbekistonda vahhobiylik tuzog'iga ilinganlar birinchi bo'lib 1989-yilda Namangan shahridagi «Otavalixon» masjidini o'zlariga qarorgoh qilib oldilar, so'ng 1989–1990-yillarda Qo'qon va Andijon shaharlarida «Jome» masjidlarni zo'ravonlik yo'li bilan egalladilar. 1995-yilda mazkur jome masjidlar faoliyati adliya boshqarmalari tomonidan to'xtatilgach, vahhobiylar respublika bo'ylab yoyilib ketdilar. O'zbekistondagi vahhobiylar uzun soqol qo'yish, namozda ikki oyoqni keng kerib qiyom turish, qo'llarini ko'krakda bog'lab turish, baland ovozda «omin» deyish bilan hanafiylik (Imom A'zam) mazhabidagilardan ajralib turadilar.

Vahhobiylar Islom niqobi ostida kishilar ongiga ta'sir ko'rsatib, ularni bu yo'lda jonini ham tikib, hatto o'zlarining ota-ona, yaqinlari hayotini ham shu yo'lda qurbon qilish ruhida tarbiyalashga harakat qiladilar. Ularning maqsadi yurtimizda amaldagi tuzumni ag'darib, Islom davlati qurishdir. Ana shu g'oyani zo'r berib vahhobiylik yo'liga kirgan kishilar ongiga singdirishga intiladilar.

Hozirgi vahhobiylar o'zgaruvchan zamon talablarini, zamona zaylini mensimaydigan, taraqqiyotning ashaddiy dushmani, o'taketgan mutaassib, fanatik, jaholatparast, o'z maslagiga ko'r-ko'rona yopishib olib, uni zo'rlik bilan insonlarga tiqishtirish uchun keskin chora-tadbirlardan tap tortmaydigan johil, ekstremist, jangarilardir.

Ularning bunday harakatlari dinimiz birligiga putur etkazadi. Faoliyatlari insonlar uchun hatarli bo'lganligi sababli ko'pgina Islom davlatlarida vahhobiylik man etilgan.

Dinimizni bunday salbiy oqim, yo'l kabi tarmoqlarga bo'linishi kishilarni dunyoviy hayotdan chalg'itadi, taraqqiyotni orqaga suradi.

Eng muhimi, Alloh doim qalbimizda, dilimizda bo'lmog'i va Islom taraqqiyotiga hissa qo'shgan buyuk piri komil vatandoshlarimizni hurmatini joyiga qo'yishimizda.

Vahhobiylikning dastlabki shakllanish davrida hayotdagi barcha salbiy illatlarga qarshi kurash, mol-dunyo, ortiqcha xirs-havaslardan voz kyechish, Islomga zid urf-odatlardan tiyilish, poklik, adolat, vaxdoniyatni mustahkamlash g'oyalari kishilar e'tiborini o'ziga tortgan va ular bu oqimga ergashgan.

Ammo keyinchalik vahhobiylikdagi bunday g'oyalar bu harkatning salbiy tomonlari soyasida qolib ketgan.

Vahhobiylik harakati 19 asr boshlarida juda kuchaydi. Abdul - Vahhob birinchi amaliy qadamini sahoba Zayd ibn al-Xattobning Jubaylidagi sag'anasi ustiga qo'ydi va uni yer bilan yakson qiladi.

Vahhobiylar qayerni xujum qilib bosib olsalar, qabristonlardagi maqbara va yodgorliklarni buzib tashladilar. Oqibatda tarix uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan ko'plab qimmatli obidalar, yodgorliklar yo'q bo'lib ketdi. O'zlarining g'oyalariga to'g'ri kelmaydigan ilohiyotchi olimlarning noyob asarlarini yoqib yubordilar.

Vahhobiylarning eng dahshatli qilmishlari 1802-yilning aprelida yuz berdi. Ular Shialikdagi musulmonlarning ziyoratgohi bo'lmish Karbaloga hujum qilib, Imom O'usayn masjidini vayron qildilar. Masjidning oltin g'ishtlardan ishlangan gumbazini buzib, taladilar. Ikki mingdan ortiq odamni qilichdan o'tkazdilar. Xomilador ayollarni va bolalarni ham ayab o'tirmadilar. Shaharni vayronaga aylantirdilar. 1803-yili vahhobiylar Makka shahriga bostirib kirib o'nlab masjid va madrasalarni buzib tashlab, ularga o't qo'ydilar. Ular faqat Ka'banigina buzishga jur'at qilolmadilar. Vahhobiylar ko'p o'tmay Madinani ham bosib oldilar. Ular shu darajaga borib etishdiki, u yerdagi barcha qabr toshlarini, hatto Bibi Oysha, Bibi Fotima va sahobalar sag'anasidagi qabr-toshlarni buzib, sindirib tashlashdi. Payg'ambarimiz maqbarasidagi gumbazlarni buzishga chog'langan bir paytda ular kuch bilan to'xtatib qolindi. 1810-yilga kelib, Muhammad alayhissalomning muborak masjidini ham talon-taroj qilishdi. O'marilgan mulkni esa, yuz ming taler (kumush tanga)ga sotib yuborishdi. Vahhobiylar dinni «asl holatiga keltirish» da'vati ostida bosqinchilik, talonchilik bilan mashg'ul bo'lishdi.

Xullas, bu davrga kelib vahhobiylik g'oyasidagi aqidaparastlik (mutaassiblik) ashaddiy, chidab bo'lmaydigan darajaga yetdi. Ahvol shu darajaga yetdiki, ular vahhobiy bo'lmaganlarga, yo'llaridan yurmagan mo'min-musulmonlarga qarshi jihod e'lon qildilar.

Mustaqillikka erishgan dastlabki yillarimizda vahhobiylar O'zbekistonda, xususan Namanganda paydo bo'lib, hukumat idoralari va uning rahbarlariga tazyiqlar o'tkazib, turli xunrezliklarni amalga oshirdilar. Yoshlarni yo'ldan urib, har qanday vositani ishga solib, o'zlari uchun qulay ijtimoiy muhit yaratishga harakat qildilar.

Yurtimizga suqilib kirib olgan vahhobiylar hokimiyatni qo'lga kiritish yo'lida har qanday buzg'unchilik, xunrezlik, suiqasd uyushtirishdan qaytmasliklarini 1999-yil 16-fevralida mamlakatimiz Prezidenti va hukumat a'zolariga qarshi uyushtirgan jinoyatkorona harakatlari bilan isbotladilar. Biroq hukumatimizning izchil va qat'iy siyosati bu oqim keng yoyilishining oldini oldi.

Agar biz hozirgi vahhobiylarning g'oyalari va da'vatlarini qabul qilib, ularning yo'liga yursak, unda hozirgi kun talablariga javob bermaydigan quyidagilarga rozi bo'lishimizga to'g'ri keladi:

- Islom dini g'oyalarining keng yoyilishi uchun o'z hayotini bahshida etgan aziz-avliyolarning maqbaralari, tarixiy obidalar, qabrlarga qo'yilgan esdalik toshlari buzib tashlanishi, yo'q qilinishi lozim bo'ladi;
- Payg'ambarimizning Madinadagi qabrlarini ziyorat qilishdan voz kechiladi;
- Imom A'zam (hanafiylik) mazhabining ko'p qoida va talablari bekor qilinadi;
- Musiqa, qo'shiq, raqsga tushish, tasviriy san'at, rasm chizish, haykaltaroshlik san'ati yo'q qilinadi;
- Kino, teatr, konsertlarga ruxsat etilmaydi;
- Barcha erkaklar soqol qo'yib, kalta shim kiyib yurishi talab qilinadi;
- Xotin-qizlarning ko'chaga chiqib o'qib, ishlab kelishiga ruhsat etilmaydi. Xijobga o'ralishlari lozim bo'ladi;
- Dunyo mamlakatlarining ko'pchiligi tanlagan demokratiya tuzumidan voz kechiladi;

- Vahhobiylik g'oyalari kishilarga zo'rlab, majburlab tiqishtiriladi. Bu yo'lga yurmagan kishilar, kim bo'lishidan (hatto ota-ona, aka-uka, opa-singil, qarindosh-urug') qat'i nazar, ayab o'tirilmaydi.

Vahhobiylar doimo ana shunday g'ayriinsoniy maqsadlarni amalga oshirish, mavjud konstitutsiyaviy tuzumni kuch bilan ag'darib tashlash uchun payt poylab yuradilar, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni izdan chiqarish orqali, uning demokratiya yo'lidan rivojlanishiga tahdid soladilar.

3. «Hizbut - tahrir» oqimi va uning mustaqil O'zbekiston taraqqiyotiga tahdidi

«Hizb» so'zining lug'aviy ma'nosi – guruh, firqa, partiya, tobe kishilar demakdir.

«Hizbut tahrir» ning to'la nomi «Hizbut tahrir al-islomiy» - «Islom ozodlik partiyasi» bo'lib u norasmiy siyosiylashgan diniy oqim sanaladi. «Hizbut taxrir» 1928 yilda Misr Arab Respublikasining Islomiya shahrida tashkil topgan «al-Ihvon al-Muslimun» - «Musulmon birodarlari» diniy-siyosiy tashkilotidan 1952-yilda ajralib chiqqan firqadir. Bu firqaning asoschisi shayh Taqiyuddin Nabahoniy (1909–1979)dir. Hozirda bu diniy-siyosiy partiyani falastinlik Abulqadim Zallum boshqarib kelmoqda. Bugungi kunda uning shtab-kvartirasi Londonda joylashgan.

«Hizbut tahrir» tuzilma jihatidan piramida ko'rinishida tashkil topgan. Eng quyi tuzilma 4-5 kishidan iborat «Doris» xatti-harakatlarlardan tarkib topgan «xalqa»lardan iborat. Ular guruh rahbari «mushrif» dan saboq oladi. Bunday kichik «halqa»larga bo'linishi, tashkilot asoschilarining fikricha, fosh bo'lish imkoniyatini mumkin qadar kamaytiradi. Mashg'ulot haftada kamida bir marta o'tkazilishi shart. Bunday «dars»larda nomigagina diniy ta'lim berilib, asosiy e'tibor yoshlar tarbiyasidagi g'oyaviy-ma'naviy bo'shliqdan foydalanib, ularning ongiga g'arazli siyosiy fikrlarni joylashga qaratiladi. Xalqa a'zolari bir-birlarini faqat ismi yoki taxallusi orqali biladi. Ta'lim olish g'oyat yashirin ravishda olib boriladi. Tashkilotga a'zo bo'layotgan nomzod har qanday sharoitda ham hizb faoliyati va rahbari haqidagi ma'lumotni sir saqlash haqida qasam ichadi.

Butun dunyo bo'yicha «Hizbut tahrir» harakati rahbari «amir» deb yuritiladi. Firqaning mintaqaviy rahbari «mutamad» «amir» tomonidan belgilanadi. «Mutamad» esa, viloyat darajasida ishlaydigan «mas'ul» hamda tuman miqyosida faoliyat ko'rsatuvchi «musoid»ga rahbarlik qiluvchi «mahalliy jihoz»ni tashkil etadi. Mahalliy jihoz har oyda kamida bir marotaba to'planib o'z muammolarini hal etadi. Firqaning har bir a'zosi o'z imkoniyatiga qarab, asosiy mehnat mashg'uloti daromadi hisobidan 5–20 foiz miqdorida a'zolik badali (soliq) to'lashi majburiydir.

Hizbut tahrir siyosiy partiya bo'lib, u fikrga bosh qurol sifatida suyangan holda, islomiy halifalikni qayta tiklashga chaqiradi. Boshqacha aytganda, «Hizbut tahrir»chilarning asosiy maqsadi islom davlatlari o'rtasida allaqachon o'z umrini o'tab bo'lgan «Halifalik» davlatini tuzish g'oyalarini targ'ib qilib, kelajakda amaldgai davlat boshqaruvini ag'darib tashlashdan iborat.

Vahhobiylar hukumatni qo'lga olishda ochiq kurash, ekstremizm, terror yo'lini tutsalar, «hizbchilar» g'oyaviy, mafkuraviy kurash usulini qo'llaydilar. Prezidentimiz ta'kidlaganidek: «Avvalambor, ular, yoshlarni o'z ta'siriga oladi, ongini zaharlaydi. Aql-hushini yo'qotgan mana shunday odamlarni tayyorlab, keyin qo'liga qo'rol beradi. Ularni o'z Vataniga, o'zini odam qilib voyaga etkazgan el-yurtiga qarshi qo'yadi».

Hizbchilar demokratiyani butkul inkor etadilar. Mazkur diniy tashkilot 90-yillarning boshlarida boshqa diniy toifalar qatori O'zbekistonga yashirin kirib kelib, mahfiy faoliyat yurita boshlagan. Odamlarimizning soddaligi, Islomga bo'lgan chanqoqligi, ko'p narsalarni behabarliklari kabi omillardan juda unumli foydalandilar.

Mazkur diniy-siyosiy partiyaning «Al-Vayl» – «Ong» nomli har oyda bir marotaba nashr etiladigan jurnali bo'lib, u turli yashirin yo'llar bilan yurtimizga olib kelinadi. Bu jurnal sahifalarida din yo'lida o'zini-o'zi portlatgan odam shahid bo'ladi degan fatvo berilgan. Bu Islomda qoralanadi. Hizbchilar biz yashayotgan davlatni kufr davlati, kofirlarning yurti deb yuritadilar. Bizning yurtimizni ilk Islom yuzaga kelgan johiliya davriga tenglashtiradilar.

O'z maqsadlari halifalikni tiklash yo'lidą mamlakatimizdagi tinch, osoyishta hayotni izdan chiqarib, fuqarolar urushini boshlash, mamlakat

iqtisodiy faoliyatiga putur etkazish, millatlararo va dinlararo nizolarni keltirib chiqarishga uringanliklari sir emas.

Ular o'z faoliyatlarini asosan uch bosqichda olib borishga yo'naltirganlar:

- Tushuntirish ishlari. Ongi to'liq shakllanmagan yoshlarni din niqobi ostida o'z tuzog'iga ilintirish. Fikri zaif, ta'siriga beriluvchan huquq-tartibot organlari, hokimiyatlardagi mas'ul shahslarni o'z tarafiga og'dirish;
- birgalikda harakat qilish, fikriy kurash orqali «ummatning oyoqqa turishi, fikriy ongliligi» yo'lida fikriy inqilobga yetishish. Ya'ni g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan kishilarni hizbchilarning yovuz niyatli inqilobiga tayyor holga keltirish;
- inqilob-to'ntarish, hukumatni ummat orqali qo'lga kiritib, «Halifalik» davlatini tuzish.

Xulosa shuki, «Hizbut - tahrir»ning g'oyasi islom ta'limotidan uzoq, demokratik – huquqiy davlat konstitutsiyasiga ziddir. U vijdon erkinligini suiiste'mol etib, siyosiy hokimiyatga intilish yo'lini tutgan diniy-siyosiy oqimdir. Uning tashkil topganiga yarim asrdan oshgan bo'lsa-da, hanuzgacha dunyoning biror davlatida tan olinib, rasmiy ro'yhatdan o'tgan emas. U hech qaysi davlatda qaror topa olgani yo'q.

Bunday firqa va oqimlar jamiyatda siyosiy beqarorlik, iqtisodiy tanazzul, eng yomoni, millatlararo va dinlararo nizolarni, birodarkushlik va xunrezliklarni keltirib chiqaradi holos.

4. Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotiga tahdid soluvchi boshqa diniy-siyosiy harakatlar

Xalqimiz mustaqillikka erishgandan so'ng vijdon erkinligining amalda to'liq ta'minlanishi, din va diniy qadriyatlarning tiklanishi uchun barcha shart-sharoitlarning yaratilganligidan foydalangan ayrim kimsalar din niqobi ostida zararli g'oyalarni tarqatish uchun turli diniy-siyosiy guruhlar tuzib mamlakatimiz taraqqiyotiga tahdid solishga urindilar. Bular qatoriga «Akromiylar», «Nur»chilar, «Tavba», «Islom lashkarlari», «Adolat», «Islom uyg'onish partiyasi» kabilar kiradi. Endi shular haqida qisqa fikr yuritamiz.

«Akromiylar» – islomdagi diniy-siyosiy harakat. 1997–1999-yillarda Farg'ona vodiysida paydo bo'lgan. Uning asoschisi 1960-yilda Andijonda tug'ilgan Akrom Yo'ldoshevdir. U vahhobiylik oqimiga tayanib 1992-yilda 12 darsga mo'ljallangan «Imonga yo'l» deb nomlangan dasturni ishlab chiqqan. Bu harakat vakillari faqat Allohgagina e'tiqod qilib, Payg'ambarimizga imon keltirmaydilar. Ular bugungi mavjud tuzumni tan olmaydilar. Harakat a'zolari davlat, qonun, ota-onaga emas, faqat oqim sardorlariga bo'ysunish lozim deb hisoblaydilar. Ularning pirovard maqsadi islom davlatini qurishdir. Akromiylar siyosiy hokimiyatga erishishning 5 bosqichini rejalashtirganlar: 1. «Sirli» yoki «maxfiy»; 2. Moddiy. 3. Ma'naviy. 4. «Uzviy maydon»; 5. To'ntarish. Dasturda diniy taassubga moyilligi bor shahs tanlab olinishi, uning moddiy hayoti yaxshilanishi, ekstremizm, terrorchilik ruhidagi adabiyotlar bilan tanishtirilishi, boshliqning topshiriqlarini so'zsiz bajarishi va, nihoyat, mavjud konstitutsiyaviy tuzumni ag'darib tashlab, o'z hokimiyatlarini o'rnatishi bayon etilgan. Akromiylar hozirgi kunda musulmonlarga namoz, ro'za, zakot, haj amallari farz emas, chunki biz kufr davlatida yashamoqdamiz, deb da'vo qiladilar. Toki islom davlati qurilmaguncha, mazkur ibodatlarni bajarish shart emas deb hisoblaydilar. O'zbekiston musulmonlari bu oqimni islomga yot oqim deb baholadi. Oqim xalqning keskin qarshiligiga uchrab, faoliyati barxam topdi.

«Nur»chilar diniy-siyosiy oqimi g'oyalarining mamlakatimizga kirib kelishi 1992-yillardan boshlab kuzatilgan. Bu oqim asoschisi turkiyalik Said Nursiy bo'lib, maqsadi mavjud hokimiyat uchun qarshi chiquvchi o'ta diniy-mutaassib, fanatik kishilarni tarbiyalashdan iborat.

Dastlab oqim g'oyalari turkiyalik ekstremistlarning moddiy va ma'naviy yordamida yoshlarimiz ongiga etkazilgan. Oqim ayniqsa Termiz va Denov shaharlarida keng tarqalgan bo'lib, ko'rilgan choralar natijasi o'laroq ularning payi o'z vaqtida qirqildi. Hozirgi kunda ular mahfiy tarzda harakat olib bormoqdalar.

«Nur» chilar diniy bilim berish yo'li bilan islom aqidaparastligini avj oldirish yo'lini tutadilar.

Mustaqilligimizning dastlabki yillarida O'zbekistonda faoliyat ko'rsatgan ekstremistik ruhdagi harakatlardan biri «Tavba» sanaladi. Unga Ozarbayjonda Xoji Abdullo asos solgan. O'zbekistonda bu

harakatga namanganlik Abduvali Yo'ldoshev va Isxoq Jabborovlar rahbarlik qilgan.

Harakatning maqsadi «vahhobiylik»ni qo'llab-quvvatlash, aholi o'rtasida mavjud tuzumga qarshi targ'ibot ishlari olib borish, jangarilarni tayyorlash, ularni moddiy jihatdan rag'batlantirib turish, pirovardida hokimiyatni terror yo'li bilan egallashdir. Ular turli talon-taroj va terror, qo'rqitish, bosim o'tkazish yo'li bilan mablag'lar topib o'z moddiy ehtiyojlarini qondirganlar. Bu yo'lda Farg'ona vodiysi hokimiyat organlari xodimlariga va aholiga bir qator og'ir aziyatlar etkazganlar. Mazkur harakat davlatimizning tezkor harakati natijasida o'z vaqtida tugatildi.

1989–1991-yillarda O'zbekistonda «Islom uyg'onish partiyasi» faoliyat ko'rsatgan. Bu partiyaning asosiy maqsadi – musulmon davlati barpo etish. Ana shu partiya ayni Tojikistonda tartibsizliklarni keltirib chiqarib, ko'plab kishilarning hayotlariga zomin bo'ldi.

«Islom lashkari», «Adolat» kabi oqimlar 1990-1992-yillarda Namangan viloyatida Abdulla O'taev, Toxir Yo'ldoshev kabi vatanpurushlar boshchiligida faoliyat ko'rsatgan. Ular 100-120 kishidan iborat 60 dan ortiq guruhlar tashkil etgan. O'sha kezlari «Adolat» harakati faollari drujinalar tuzib, kechki payt o'z mahallalaridan tashqarida yurgan erkaklarni to'xtatib ularga nisbatan tajovuzlar qilishgan. Ichkilikka qarshi kurash bahonasida begunoh odamlarni masjidlar oldidagi ustunlarga bog'lab qo'yishdek bedodlikka borishgan. Bu harakat faoliyati 1992-yil mart–aprel oylarida tugatilgan.

Yuqorida Islom dinidagi «Vahhobiylik», «Hizbut - tahrir» oqimlari, «Akromiylar», «Nur»chilar, «Tavba», «Islom lashkarlari», «Adolat», «Islom uyg'onish partiyasi» va boshqalarning mohiyati, mazmuni va maqsadlari haqida baholi-qudrat fikr yuritdik. Islomda yuzaga kelgan bunday oqim va harakatlar qanday ko'rinishda bo'lmasin ularning asl maqsadi nimalardan iboratligini umumlashtirib quyidagilarni aytish mumkin: «Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, g'animlarimizning asosiy niyati – O'zbekistonda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni, jamiyatimizdagi bunyodkorlik muhitini, bugun biz barpo etayotgan farovon va osuda hayotini buzish, tobora kuchga kirayotgan davlatimizni ag'darish, tanlangan yo'limizdan qaytarishdir. Odamlarimizning yuragiga vahima va qo'rquv solish hisobidan ularning

ertangi kunga bo'lgan ishonchini yo'qotish, bir-biriga qarshi qo'yish, yurtimizda, mintaqamizda o'z manfaati, o'z siyosatini o'tkazishdan iborat».

Bizning vazifamiz hamisha ogoh va sergak bo'lishdan iborat. Hech qachon Islom dini ota-bobolarimiz dini ekanini, u biz uchun ham imon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanini yoddan chiqarmasligimiz, uni yuksak qadrlashamiz lozimligini esdan chiqarmaylik. Dinga hurmat va e'tiqod biz uchun o'lmas qadriyat bo'lib qolmog'i lozim.

5-MAVZU: DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHNING XALQARO SIYOSIY-HUQUQIY ASOSLARI

Dars o'tish texnologiyasi:

Mazkur mavzuni o'rganishda videousuldan foydalanish darsning ko'rgazmaliligini ta'minlaydi.

Videousul - axborotni ko'proq ko'rgazmali o'zlashtirishga asoslangan bo'lib, unda kineskop, kodoskop, proektor, kinoapparat, o'quv televideniyasi, videomagnitafon, axborotni displeyda aks ettiruvchi kompyuterlardan foydalaniladi. O'quv jarayonida videousuldan foydalanish, ta'lim tarbiyaviy vazifalarni unumli yechilishini ta'minlaydi:

- yangi bilimlarni bayon etish, bevosita kuzatish mumkin bo'lmagan, shuningdek,, bevosita kuzatishlar mohiyatini ochib bera olmagan holda qo'llaniladi;
- video hujjatlarni taqdim etish;
- amaliy mashg'ulotlarni bajarish, mustaqil ishlar taqdimotlari jarayonida amalga oshirish;
- o'quv-mashq va tadqiqot ishlarini olib borish uchun ma'lumotlar bazasini (bankini) yaratish;
- ta'limni tashkil qilishga differensiyalashgan yondashuvni tashkil qilish va b.

Ushbu usulning samaradorligi videoqurollarning va qo'llanilayotgan texnik vositalarning sifatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. O'qituvchidan, o'quvchilarni o'rganilayotgan muammolar doirasiga kiritish, ularning faoliyatini yo'lga solish, umumlashtiruvchi xulosalar yasash, mustaqil ish jarayonida ularga alohida yordam berish talab etiladi.

Biz jamiyatni va jamiyat tafakkurini yangilashning inqilobiy usullariga, bu jarayonni sun'iy ravishda chetdan turib, zo'rovonlik yo'li bilan tezlashtirishga qaratilgan har qanday urinishlarga mutlaqo qarshimiz. Biz barcha sohalarda, jumladan, ma'naviy sohada ham tadrijiy-evolyutsion islohotlar yo'li tarafdorimiz va bunga qat'iy amal qilamiz.

Har qaysi jamiyatning demokratik nuqtai nazardan yangilanishi va yuksalishi shu jamiyatning, shu davlatning taraqqiyoti mahsuli ekanini hammamiz chuqur anglab olishimiz zarur.

Mazkur mavzu uchun qo'llaniladigan keyingi usul "Yelpig'ich" texnologiyasi. Bu texnologiya murakkab, ko'p tarmoqli, mumkin qadar, muammo xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan.

Texnologiyaning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alohida muhokama qilinadi. Masalan, ijobiy va salbiy tomonlari, afzalliklari va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

Bu interfaol texnologiya o'quvchilarda tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'z g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi.

"Yelpig'ich" texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan.

Bu texnologiya mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanilishi mumkin:

-boshida: o'z bilimlarini erkin faollashtirish;

- mavzuni o'rganish jarayonida: uning asoslarini chuqur fahmlash va anglab yetish;
- yakunlash bosqichida: olingan bilimlarni tartibga solish.

Asosiy tushunchalar quyidagilar:

Aspekt (nuqtai nazar) - u bilan predmet, xodisa, tushuncha tekshiriladi.

Afzallik - biror narsa bilan qiyoslangandagi ustunlik, imtiyoz.

Fazilat - ijobiy sifat.

Nuqson - nomukammallik, qoidalarga, mezonlarga nomuvofiqlik.

Xulosa - muayyan bir fikrga, mantiqiy qoidalar bo'yicha dalildan natijaga kelish.

Ta'limdan tashqari, "Yelpig'ich" texnologiyasi tarbiyaviy harakterligi qator vazifalarni ham amalga oshirish imkonini beradi:

- jamoa, guruhlarda ishlash mahorati;
- muammolar, vaziyatlarni turli nuqtai nazardan muhokama qilish mahorati;
- murosali qarorlarni topa olish mahorati;
- o'zgalar fikriga hurmat;
- ishga ijodiy yondashish;
- faollik;
- muammoga diqqatni jamlay olish mahorati.

Yuqorida misol tariqasida keltirilgan ushbu zamonaviy metodlar, treninglarda qo'llanilgan texnologiyalar o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga yordam beradi.

1. Islom konferensiyasi tashkiloti tuzilishi, ustavi va faoliyati

Dunyo musulmonlari davlatlari o'rtasida halqaro xarakat tuzish g'oyasi Islom pakti harakati misolida 1969-yilga kelib siyosiy reallikka aylandi. Aynan shu yili Marokash poytaxti Rabot shahrida oliy darajadagi musulmon davlatlari konferensiyasi ish boshladi. Bu konferensiya Islom konferensiyasi tashkilotining tuzilish jarayonini boshlab berdi. Umuman olganda, musulmon davlatlari o'rtasidagi ushbu ko'rinishdagi, yoki unga o'xshash tashkilot tuzish zaruriyati ikkinchi jahon urushi tugashi bilan ko'zga tashlangan edi. Ma'lumki, musulmon davlari uzoq yillar davomida rivojlangan G'arb davlatlarining mustamlakasi bo'lib kelishdi. Urushdan keyin tabiiy zahiralarga boy bo'lgan musulmon davlatlari jahon bozorida o'ziga xos o'rin egallashi va shu tariqa qisqa muddat ichida rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishlari mumkin edi. Buning uchun ular birinchi galda mustamlakachilik sirtmog'idan xalos bo'lishlari, o'zaro nizolarni bartaraf etishlari, hamkorlikda ish olib borishlari lozim edi. O'lkada hukm surayotgan feodal munosabatlarga qarshi, kolonial siyosatga qarshi aholi faolligining oshib borishini ham rag'batlantiruvchi, ham yo'naltiruvchi uyushma tuzish zaruriyatga aylanib qolgan edi. Bu

jarayoning targ'ibotchisi bo'lib Saudiya Arabistoni maydonga chiqdi. U bu harakatda Ierusalimdagi Al-Aksa masjidining yoqib yuborilishiga alohida urg'u beradi.

Islom konferensiyasi tashkiloti - Afg'oniston, Chad, Misr, Gvineya, Indoneziya, Eron, Iordaniya, Quveyt, Livan, Liviya, Malayziya, Mali, Mavritaniya, Marokash, Niger, Ummon, Pokiston, Qatar, Saudiya Arabistoni, Senegal, Serra-Leone, Somali, Sudan, Tunis, Turkiya, Yaman davlat vakillari tomonidan tashkil etilgan. IKT ga Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston (1992), Qozog'iston (1995), O'zbekiston (1996) ham a'zo bo'lib kirishgan. Bugungi kunda 57 ta davlatning a'zosi hisoblanadi.

IKT ustavidan ko'zlangan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

- tashkilotga a'zo musulmon davlatlar o'rtasida birdamlikni kuchaytirish;
- ular o'rtasida ijtimoiy hayotning turli – iqtisodiy, madaniy, ilmiy sohalarda hamkorlikni kuchaytirish, halqaro munosabatlarda hamkorlik qilish;
- mustamlakachilik va irqchilikning har qanday ko'rinishlariga barham berish;
- tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga doir adolatli choralar ko'rish, muqaddas qadamjolarni asrash, obod qilish sohalaridagi faoliyatni uyg'unlashtirish;
- tashkilotga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlikni va o'zaro bir-birini tushunish uchun zarur sharoitlar yaratish va boshqalar.

IKT o'z faoliyatida quyidagi tamoyillarga amal qiladi:

- tashkilotga a'zo davlatlarning tengligi;
- a'zo mamlakatlar o'z taqdirini o'zi belgilashi huquqini hurmat qilishlari, bir-birining ichki ishlariga aralashmasligi;
- har bir davlatning hududiy yaxlitligi, suverenitetini hurmat qilish;
- turli kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal etish;
- o'zaro munosabatlarda kuch ishlatish, tahdid qilish usullarini qo'llamaslik, har bir a'zo mamlakat hududining yaxlitligi va daxlsizligini hurmat qilish.

IKT boshqaruv organlari quyidagilardan tashkil topgan: davlat va hukumat boshliqlari konferensiyasi; tashqi ishlar vazirlari

konferensiyasi; Bosh sekretariat. Davlat va hukumat boshliqlari konferensiyasi IKT oliy boshqaruv organi bo'lib musulmon dunyosiga dahldor bo'lgan masalalar yuzasidan har uch yilda o'z yig'ilishini o'tkazib turadi.

IKT ning halqaro terrorizmga qarshi konvensiyasida terrorizmni hech qanday sharoitda, hech qanday yo'l bilan oqlab bo'lmasligiga alohida e'tibor beriladi. Terrorizimga qarshi kurash konsepsiyasini ishlab chiqishda quyidagi maqsadlar nazarda tutilishi belgilab qo'yildi:

- ekstremizm shaklidagi terrorchilik harakatlarini, insoniyatga qarshi qaratilgan har qanday zo'ravonlikni qat'iy rad etish, inson huquqini himoya qilishga qaratilgan halqaro huquq qoidalarini, tamoyilarini hurmat qilish, xalqlar o'rtasida tinchlikni ta'minlash;
- islom shariatida belgilab qo'yilgan diniy va axloqiy tamoyillarga tayangan holda;
- musulmon davlatlari o'rtasida o'zaro bir-birini tushunish, hamkorlikni kuchaytirish, tinchlikni saqlashga qaratilgan muhitni shakllantirishga xizmat etuvchi IKT ustavida belgilab qo'yilgan tamoyilar va normalarga sodiq qolish;
- halqaro terrorizmga qarshi kurashishga qaratilgan IKT kodeksi qoidalaridan kelib chiqib faoliyat ko'rsatiish;
- musulmon davlatlari hayotiy manfaatlariga, barqarorligiga, havfsizligiga jiddiy havf soladigan terroristik jinoyatlarga qarshi kurashda a'zo mamlakatlar o'rtasidagi xamkorlikni kuchaytirish;
- tashqi okkupatsiyaga, kolonial siyosatga, irqiy kamsitishlarga qarshi birgalikda kurashish, milliy ozodlik uchun, mustaqillik uchun kurashlarni o'z taqdirini o'zi belgilashni nazarda tutuvchi BMT rezolyutsiyasidan kelib chiqqan holda qo'llab-quvvatlash;
- terrorizmni har qanday ko'rinishini, amalga oshirish vositalarini, u o'z oldiga qanday maqsadlarni qo'yganligidan qat'iy nazar, inson xuquqini paymol etuvchi bunday xarakatni oqlab bo'lmasligini e'tirof etish va boshqalar.

Islom Konferensiyasi tashkiloti ustav va konvensiyasida terroristik xatti-harakatlarlar va unga qarshi kurashish me'yorlari belgilab olindi. Unga asosan musulmon davlatlari o'z hududida terroristik harakatlarning sodir etilishlariga yo'l qo'masliklari lozim. Terroristik xatti-

harakatlarlardan ozor chekayotgan qo'shni davlatlar bilan bunday harakatga qarshi kurashishda yordam berish, terrorizmga qarshi qaratilgan o'z faolitlarini muvofiqlashtirib olishlari belgilab qo'yildi. Narkotik moddalar savdosiga, qurol-yarog' savdosiga, bu moddalarning o'z hududlaridan olib o'tishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida chegara va boj xizmatlari sohasida tegishli chora-tadbirlarini birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirish maqsadga muvofiqligi ko'rsatib o'tildi. Shuningdek, terroristik harakatlarga qarshi kurash chora-tadbirlari sifatida muayyan davlat xududida terroristik harakatni amalga oshirgan kimsani tegishli tomonning talabi bilan hisobga olish, mudhish hodisalarni fosh etish bilan shug'ullanayotgan yustitsiya vakillarini havfsizligini ta'minlash, ularning samarali ishlashlariga imkoniyat yaratish, sodir etilgan va sodir etilishi ehtimoli bo'lgan terroristik aktlar borasida muhim informatsiyalar bilan ta'minlash va terroristik harakatdan zarar ko'rgan mintaqalarga moddiy yordam ko'rsatish choralari amalga oshirilishiga kelishib olindi.

2. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy asoslari

O'zbekiston davlati istiqlolning tarixan qisqa, ammo g'oyat sermazmun yillari davomida Prezident Islom Karimovning bevosita rahbarligida adolat ustuvorligiga asosolangan, erkin, demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishda o'zbek modeliga asos soldi. Markaziy Osiyoda barqarorlik tayanchi bo'lgan O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy,iqtisodiy yuksalishiga, hafsizligi va barqarorligiga ochiqdan-ochiq tahdid solayotgan din niqobi ostidagi ekstremistik kuchlar, fundamentalistlar, separatchilar va xalqaro terrorchilar, o'ta havfli jinoyatchilar, ularning eng ashaddiylari qo'shni Tojikiston va Afg'oniston davlatlarida uya qurib, dunyoning turli burchaklaridagi ashaddiy terrorchi hamtovoqlarining moddiy va mafkuraviy madadiga tayangan holda yurtimiz sarhadlarini buzib o'tishga urinmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi Prezdenti Islom Karimov 1993-yili Birlashgan Millatlar Tashkilotni bosh Assambleyasining 48 sesiyasida so'zlagan nutqida halqaro jinoyatchilik,ayniqsa uning o'ta xafli ko'rinishi hisoblangan xalqaro terrorizm hamda narkobiznesga qarshi

kurashda dunyodagi tinchliksevar davlatlar kuchlarini birlashtirish va muvofiqlashtirish tashabbusi bilan chiqqan edi. Halqaro terrorizm va diniy ekstremizmning ohirgi yigirma yil davomida tobora havfli tus olib, kuchayib borayotganligi jahonda jinoyatchilikning keskinlashuviga ta'sir etdi.

Hozirda terrorchilik miqyosi kengayishi havfi yanada yaqqalroq ko'zga tashlanmoqda. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra,terrorchilar yadroviy, kimyoviy va biologik qurollardan ham jinoiy maqsadlarni amalga oshirishda foydalanish bilan tahdid qilishlari mumkin. Shuningdek,, ular insonning hayoti va sog'lig'iga bevosita ta'sir etmagan holda kompyuter tarmoqlaridan ham jinoiy qilmishlari yo'lida foydalanib, harbiy harakatlarni boshlash niyatida ekanligi ma'lum.

Kompyuter tizimi yordamida terrorchilik harakati sodir etish (kiberterrorizm) hisoblash markazlari, tibbiyot sohasi va harbiy bazalarni boshqarish, bank va boshqa moliyaviy tarmoqlarni izdan chiqarishga mo'ljallangan. Davlat muassasalari va boshqalarga zarba berish, iqtisodiy zarar etkazish, ba'zi bir katta aeroportlardagi aloqa tarmoqlarini ishdan chiqarish behisob kishilar o'limiga sabab bo'lishi mumkin. Terrorchilarning hatto kosmosdagi texnikaviy asboblarni qo'lga kiritib, ulardan ham jinoiy maqsadlarda foydalanish imkoniyatlari borligi ehtimoldan xoli emas.

Keyingi yillarda sodir qilinayotgan terrorchilik jinoyatlarining ko'pchiligi zamirida siyosiy maqsad yotishi aniqlangan.

Terrorchilikka va terrorchilik harakatlariga asoslangan jinoiy faoliyatlarning gurkurashiga narkotik moddalar bilan noqonuniy oldi-sotdi qilish, juda katta miqdorda boylikka ega bo'lish maqsadida shahslarni garov sifatida tutqinlikda saqlash, qo'poruvchilik, reket, shahslarning sog'lig'i yoki mulkiga jiddiy zarar etkazish kabi jinoyatlarning sodir etilayotgani ham madad bo'lmoqda.

Terrorchilik kabi jinoyatlar XX asrning mahsuli emas, bu jamiyat taraqqiyotiga yo'ldosh jinoyatlardan biridir. XX asrning birinchi yarmidan boshlab, bu yuridik atama, «terrorchilik» deb yuritila boshladi. XX asrning 30-yillarida Yevropadagi qator davlatlar va sobiq Ittifoq olimlari hamkorligida terror yoki terrorchilik aktini jinoyat huquqi fanining dolzarb muammosi tariqasida o'rgana boshladilar. Shu davrdan

boshlab, terrorchilik muammosi aks ettirilgan qator xalqaro hujjatlar ishlab chiqildi va qabul qilindi.

Terrorchilikka qarshi kurashda xalqaro hamkorlik zarur ekanligi haqidagi birinchi xalqaro hujjat «Terrorizm to'g'risida ogohlantirish va uning oldini olish» deb nomlangan va u 1937-yilda Davlatlar Ittifoqi tomonidan o'tkazilgan xalqaro konferensiyada muhokama qilingan. Ikkinchi jahon urushi arafasida o'tkazilganligi bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan mazkur konferensiyada terrorchilikning oldini olish va bartaraf etish choralarini ko'rish masalasining muhokama qilinishiga o'sha davrda Yevropa davlatlaridagi ayrim rahbarlar va siyosiy arboblarga nisbatan terrorchilik aktlari sodir etish holatlarining ko'payganligi turtki bo'lgan. Konvensiyada xalqaro terrorchilik akti tushunchasi, uning ob'ekti, jinoyat sub'ekti masalalari bayon etilgan.

Ushbu hujjatda ekstrazatsiya, ya'ni bir davlat fuqarosi yoki fuqaroligi bo'lmagan jinoyatchi jismoniy shahsning ikkinchi bir davlatga berilishi haqida ham alohida qoida mavjud.

Bu muhim hujjat 24 davlat tomonidan imzolangan bo'lsa-da, ratifikatsiya qilinmagan, undan amaliyotda foydalanish chorasi ko'rilmagan. Shunga qaramasdan, bu konvensiya o'tgan asr davomida terrorchilik bilan bog'liq siyosiy-huquqiy muammolarni hal etishda asos bo'lgan bir qator ko'p tomonlama xalqaro hujjatlarning qabul qilinishiga turtki bo'ldi. BMT tomonidan davlatlarning terrorizmga qarshi o'zaro hamkorlikda, bahamjihat, birgalikda qat'iy kurashini tashkil etishni ko'zda tutgan qator konvensiyalar qabul qilingan.

Terrorchilikka qarshi kurash masalalarini o'zida aks ettirgan, uch qit'a davlatlarining o'zaro hamkorligini ifodalovchi quyidagi xalqaro hujjatlar amalda ekanini qayd etish joiz:

1) Amerika Davlatlari Tashkilotlarining «Xalqaro xususiyatiga ega bo'lgan shahsga qarshi jinoyat shaklidagi terrorchilikning oldini olish va jazolash to'g'risida»gi (1971-y.);
2) Evropa Ittifoqi tomonidan tayyorlangan va qabul qilingan «Terrorchilik bilan kurashish to'g'risida»gi (1976-y.);
3) Janubiy Osiyo mintaqasi hamkorligi assosatsiyasiga a'zo mamlakatlar tomonidan qabul qilingan «Terrorchilikning oldini olish bo'yicha» 1978-yildagi Konvensiyalar.

XX asrning oxirgi o'n yilligida ham terrorchilikka qarshi kurash jahon davlatlari oldidagi eng dolzarb muammo bo'lib keldi.

Xalqaro terrorchilikning avj olayotgani, ayniqsa Afg'oniston va boshqa ba'zi musulmon davlatlari hududidagi «harbiy lagerlarda» terrorchi uyushmalar bemalol tayyorgarlik ko'rganligi va ko'rayotganligi mamlakat havfsizligiga ham ochiqdan-ochiq tahdid solayotganligidan tashvishlangan O'zbekiston davlatining rahbari «Xalqaro terrorizmga qarshi kurash markazini tuzish» zarurligi to'g'risidagi taklifini EHHT davlat va hukumatlariga bildirgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning fikriga ko'ra, «Markazning asosiy vazifasi terrorizm ko'rinishlari bilangina emas, eng avvalo, xalqaro terrorizmni mablag' bilan ta'minlayotgan, qo'llab-quvvatlayotgan, qurol-yarog' bilan ta'minlab, joylarga jo'natayotgan manbalarga qarshi kurash bo'yicha qabul qilingan qarorlarning so'zsiz bajarilishi bo'yicha faoliyatlarini muvofiqlashtirishdan iborat bo'lishi lozim».

Ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan habarlardan birida aytilganidek, dunyo bo'yicha yiliga 320 dan 660 gacha terrorchilik aktlari sodir etiladi. Ba'zan minglab begunoh aholi terrorchilik harakati qurboni bo'layotganligi g'oyatda achinarlidir. Misol uchun, 1995-yilning 20 martida Tokio metrosida «Aum Senrikyo» diniy ekstremistik terrorchilik tashkiloti tomonidan sodir etilgan jinoyat oqibatida 5,5 ming kishiga shikast etkazilgan. 2001-yil 11 sentyabrda AQShda amalga oshiilgan terroristik akt XX asr mo'jizasi – ikki egizak binoning vayron bo'lishi, sakkiz mingga yaqin kishining hayotiga zomin bo'ldi.

Terrorchilikka qarshi kurash yuzasidan AQSh va Rossiyada, Yevropa davlatlarida bir qator e'tiborga loyiq ishlar amalga oshirildi. Misol uchun, AQShda terrorchilikning oldini olish va bartaraf etishni o'zida mujassamlashtirgan qirqqa yaqin qonunlar qabul qilingan. Rossiya Federatsiyasida «Terrorchilikka qarshi kurash to'g'risida»gi maxsus Qonun amalga joriy qilingan.

O'zbekiston davlati ham terrorchilikka qarshi kurash bilan bog'liq quyidagi xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qildi, ular jumlasiga:

1. «Havo kemasi bortida sodir etiladigan jinoyatlar va boshqalar to'g'risida»gi 1963-yilgi (Tokio) Konvensiya;

2. «Havo kemalarini g'ayriqonuniy tarzda egallab olishga qarshi kurash to'g'risida» gi 1970-yilgi /Gaaga/ Konvensiya;
3. «Fuqaro aviatsiyasi havfsizligiga qarshi yo'naltirilgan noqonuniy aktlar bilan kurashish to'g'risida»gi 1971-yilgi /Monreal/ Konvensiyasi;
4. «Fuqaro aviatsiyasi havfsizligiga qarshi yo'naltirilgan noqonuniy aktlar bilan kurashish to'g'risida»gi Konvensiyani to'ldiruvchi. «Aeroportlarda halqaro fuqaro aviatsiyasiga xizmat qilish, g'ayriqonuniy zulm aktlari bilan kurashish to'g'risida»gi Protokol;
5. «Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shahslarga, shu jumladan, diplomatiya agentlariga qarshi jinoyatlarning oldini olish va bunday jinoyatlar uchun jazolash to'g'risida» gi Konvensiya;
6. «Odamlarni garovga olishga qarshi kurashish to'g'risida»gi 1979-yilgi Xalqaro Konvensiya;
7. «Yadroviy materialni jisman himoya qilish to'g'risida» gi 1997-yilgi Konvensiya;
8. «Plastik portlovchi moddalarni topa olish maqsadida markirovka qilish to'g'risida» gi Konvensiya;
9. «Bombali terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi Xalqaro Konvensiya.
10. «Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida»gi xalqaro Konvensiyalar kiradi.

Yana bir muhim xalqaro hujjat – «Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to'g'risida»gi Shanxay Konvenysiyasi bo'lib, mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining II chaqiriq 2001-yil 30 avgustdagi oltinchi sessiyasida ratifikatsiya qilindi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan «Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida» gi yangi Konvensiya (1999) qabul qilingan. Bu terrorizm tusidagi jinoyatlarni davlatlarning ichki qonunchiligida tasniflash (klassifikatsiya) imkonini yaratdi.

Ushbu hujjatda ilova tariqasida;

1. «Bombali terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi Xalqaro Konvensiya.
2. «Dengiz kemalari havfsizligiga» qaratilgan noqonuniy harakatlarga qarshi kurash to'g'risida» gi Konvensiya.

3. «Kontinental kenglikda joylashgan doimiy platformaga qaratilgan harakatlarga qarshi kurash to'g'risida»gi Protokol.
4. «Yadroviy materialni jisman himoya qilish to'g'risida» gi Konvensiya.
5. «Odamlarni garovga olishga qarshi kurash to'g'risida» gi Xalqaro Konvensiya.
6. «Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shahslarga, shu jumladan, diplomatiya agentlariga qarshi jinoyatlarning oldini olish va bunday jinoyatlar uchun jazolash to'g'risida»gi Konvensiya.
7. «Fuqaro aviatsiyasi havfsizligiga qarshi qaratilgan noqonuniy harakatlarga qarshi kurash to'g'risida»gi Konvensiya.
8. «Fuqaro aviatsiyasi havfsizligiga qarshi kurash to'g'risida»gi Konvensiyani to'ldiruvchi «Aeroportlarda xalqaro fuqaro aviatsiyasiga xizmat qilish, g'ayriqonuniy zulm aktlari bilan kurashish to'g'risida»gi Protokol.
9. «Havo kemalarini g'ayriqonuniy tarzda egallab olishga qarshi kurash to'g'risida»gi jami 9ta Konvensiya qayd qilingan.

Ammo bu xalqaro hujjatlarning hammasiga O'zbekiston Respublikasi to'la qo'shilmagan. Kelgusida, O'zbekiston Respublikasi ushbu Konvensiyada ilova qilingan barcha xalqaro hujjatlarga qo'shilish chorasini ko'rishi zarur.

Jahonda, shu jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasida terrorchilik bilan bog'liq «olovli nuqta»lar mavjudligini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasida ham qator davlat idoralari, ayniqsa Mudofaa, Favquloda vaziyatlar, Ichki ishlar vazirliklari, Milliy havfsizlik xizmati, chegara, bojxona, prokuratura idoralarining terrorchilikka qarshi kurashdagi faoliyatini davr talabi darajasiga ko'tarib, ularning bu boradagi imkoniyatlaridan yanada samaraliroq foydalanish, bu turdagi jinoyatlarning O'zbekiston davlati hududida ildiz otishining oldini olish, mintaqa havfsizligini ta'minlash, terrorchilikni keltirib chiqaruvchi sabablar va shart-sharoitlarni o'rganishni ta'minlovchi «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining qabul qilinishi, terrorizmning har qanday ko'rinishiga qarshi kurashda huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 2000-yilning 24 aprelida bo'lib o'tgan Toshkent

uchrashuvida Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston davlatlarining rahbarlari tomonidan imzolangan, terrorchilik kabi o'ta og'ir jinoyatning oldini olishga qaratilgan bitimni amalda bajarish uchun o'z vaqtida aniq chora-tadbirlar belgilangani o'tgan yillarda O'zbekiston davlatining havfsizligini ta'minlashda ma'lum o'rin tutdi.

Xulosa, O'zbekiston Respublikasining terrorchilikni bartaraf qilish bilan bog'liq faoliyati:

Birinchidan, terrorchilikning har qanday ko'rinishlariga zarba berish;

Ikkinchidan, terrorchilikni qo'llab-quvvatlayotgan davlatlarga qarshi jahon hamjamiyati bilan hamkorlikda kurashni davom ettirish;

Uchinchidan, Xalqaro terrorchilarni jazolash mexanizmidan to'liq foydalanish va terrorchilikka qarshi kurashda boshqa davlatlarga ko'maklashish kabi prinsiplar asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Zero bu borada aniq chora-tadbirlar belgilab, javobgarlikning muqarrarligi ta'minlanmasa, xalqaro terrorizmga qarshi kurashda samarali natijalarga erishib bo'lmaydi.

3. O'zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida «O'zbekiston – suveren demokratik davlat» deb, e'tirof etilgan bo'lib, «O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning dahlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga» asoslanishi ham Konstitutsiyaning 17 moddasida o'z aksini topgan.

Har qanday davlat, jumladan O'zbekiston Respublikasi ham o'z siyosatini ikki yo'nalishda, ya'ni tashqi va ichki siyosat tarzida amalga oshiradi. Ular davlatning bir-biri bilan chambarchas bog'langan yagona siyosatini tashkil etadi.

O'zbekiston davlati o'z tashqi va ichki siyosatining ustivor yo'nalishlarini belgilab olgan bo'lib, ular ma'lum bir tarmoq yoki sohalarga bo'lingan holda amalga oshiriladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash esa, O'zbekiston Respublikasining ichki ijtimoiy siyosatining bir bo'lagidan iborat davlat siyosatidir.

O'zbekiston Respublikasining jinoyatchilikka qarshi kurash siyosati Oliy Majlis va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanadi. Jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi ichki ishlar, prokuratura, soliq, bojxona va boshqa organlar esa, bu sohadagi davlat siyosatini bevosita amaliyotda tatbiq etadilar. Jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari har bir davlat ichki siyosatining ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. O'tgan asrning oxirgi o'n yilligi va XXI asrning dastlabki yillari xalqaro terrorizm deb nomlangan o'ta og'ir va havfli jinoyatlarni sodir etish bilan bog'liq «huruj» xatti-harakatlarlar dunyoning turli qit'alarida xohlagan joyni kutilmagan paytda to's-to'polon bilan xatti-harakatlarlarzaga sola boshladi.

Unga qarshi hamkorlikda kurashish rivojlangan yoinki rivojlanish yo'lida borayotgan barcha-barcha davlatlarning global muammosiga aylandi.

Terrorizmga qarshi kurash ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy masalalar qatoridan o'rin egalladi.

Jinoyatchilikka qarshi kurash, ayniqsa, uning oldini olishda, uning qilmishini keltirib chiqaruvchi barcha omil, hodisa va voqealarni chuqur tahlil qilishga alohida e'tibor berish zarur. Jinoyatchilik juda murakkab salbiy ijtimoiy voqeyliklar mahsuli sifatida yuzaga keladi. Insoniyat sivilizatsiyasi yuksaklikka yuz tutib taraqqiy etgan, rivojlangan sari ijtimoiy hayot, fan, madaniyat, sa'natda mislsiz o'zgarishlar, yuksalishlar ro'y beradi. O'tgan XX asr atom energiyasi, kosmos, avtomatika, kompyuter asri degan nomlar bilan tarixdan joy oldi. Yangi XXI asrni axborot, intellektual rivojlanish, globallashuv asriga aylantirish uchun har qanday yovuzliklardan voz kyechish, inson intelektual faoliyatining, aql zakovatining mahsuli hisoblangan har qanday ilmiy-texnik, fan yutuqlarini ezgulik uchun xizmat qildirishga intilish allaqachon boshlangani bilan kishi e'tiborini o'ziga tortadi, ammo ezgulik bilan yovuzlik, yaxshilik bilan yomonlik, savob bilan gunoh, yuksalish bilan inqiroz yonma-yon yurganidek, jamiyat va davlatlar taraqqiyotiga

to'sqinlik qiluvchi, unga yondosh jinoyatlarning tobora ijtimoiy havflilik darajasi yuqorilab borayotgani, o'ta og'ir, yanada qo'rqinchli, yangicha tus olayotgani jamiyatni tashvishlantirmoqda.

O'ta shafqatsizlik, rahmsizlik bilan turli-tuman usul va uslublarni qo'llab sodir etilayotgan xalqaro terrorchilik harakatlaridan ko'pchilik holatlarda begunoh insonlar qurbon bo'lmoqda. XXI asrning IX. oyida AQShda ro'y bergan terrorchilik harakati oqibatida birgina «Dunyo savdo uyi» binosidagi portlatishlar natijasida turli davlatlarga, millatlarga mansub begunoh minglab fuqarolar sanoqli daqiqalarda jinoyat qurboniga aylandilar. Bu terrorchilik harakati dunyodagi eng ko'p odamlar o'limiga, moddiy talofatga sababchi bo'lgan jinoyatlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun AQSh davlati terrorizmga qarshi urush e'lon qildi. AQSh davlatini asr vabosi – terrorizmga qarshi kurashida, ilg'or fikr asosida ish yuritadigan jahondagi ko'pgina mamlakatlar, shu jumladan O'zbekiston davlati ham uning yonida kamarbasta bo'ldi.

Bunda O'zbekiston Respublikasi o'zining jahon hamjamiyati oldidagi burchini bajarar ekan, eng avvalo, amaldagi qonun hujjatlariga tayanadi. Binobarin, Respublika JKning 2 moddasida ta'kidlanganidek, «Jinoyat kodeksining vazifalari shahsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat havfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni republika Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir».

Shahsning qonun bilan ta'qiqlangan qilmishi jinoyat sanaladi. Jinoyat sodir etilishi oqibatida jamiyatga ma'lum bir miqdorda moddiy va ayni vaqtda hisobsiz ma'naviy zarar etkaziladi.

Alohida hududlarda, davlatlarda sodir etilayotgan, xalqaro xususiyat kasb etgan, sub'ektlari millat, hududga ega bo'lmagan «baynalmilal» yollangan jinoyatchilardan iborat terrorchi jinoyatchilarning qilmishlari nafaqat bir davlatga, balki dunyodagi deyarli barcha davlatlarga jiddiy havf tug'dirib, ularning tinchligi, barqarorligi, taraqqiyotiga aniq tahdid solmoqda.

O'zbekiston Republikasi terrorizm va diniy ekstremizmga qarshi kurash bilan bog'liq davlat siyosatini davr talabi darajasida moslashtirib, izchilik bilan bunday jinoyatlarning oldini olish choralarini ko'rmoqda.

O'zbekiston Respublikasining jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha davlat siyosatini quyidagi bir necha yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

1) O'zbekiston Respublikasida jinoyatchilikka qarshi kurash tizimini erkinlashtirish.
2) Hozirgi davr talabi asosida jinoyatchilikka qarshi kurash bilan bog'liq soha qonunlariga insonparvarlik g'oyalarini singdirish chorasini ko'rish.
3) Ijtimoiy adolatni, qonun ustivorligini ta'minlash.
4) Jinoyat ishlarini ko'rishga ixtisoslashgan sud organlari faoliyatida qonuniylikni izchil qaror toptirish va oshkoralikni ta'minlash.
5) Jinoyatlarning oldini olishda nafaqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar, balki jamoatchilikning, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining kuchiga tayanish. Ayni vaqtda jamoatchilikning havfsizligini ta'minlash bilan bog'liq barcha choralarni ko'rish.
6) Ichki ishlar, Milliy havfsizlik xizmati, tergov, prokuratura organlari, sudlar va boshqa organlar faoliyatining bir-biridan tashkiliy jihatdan farq qilishini hisobga olgan holda, mazkur sohalarning har birining mustaqil faoliyat olib borishini ta'minlash, har bir organlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi ma'suliyatini oshirish.
7) Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatlarini muvofiqlashtirish mexanizmini ishlab chiqish va qonuniy asosda mustahkamlash uchun prokuratura organning bu boradagi o'rnini «Prokuratura to'g'risidagi» qonunda aks ettirish.
8) Jinoyatchilikka qarshi kurashda fan yutuqlaridan, ilmiy-texnika vositalaridan yanada samarali foydalanish yo'l-yo'riqlari va usullarini ishlab chiqish va amaliyotda joriy etish.
9) Jinoyatchilikka qarshi kurashuvchi organlar xodimlarining kasb mahoratini oshirish.

Yuqoridagilarga asoslanib, aytish mumkinki, davlatning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi siyosati nihoyatda ko'pqirrali bo'lib, uni amalga oshirish murakkab amaliy jarayonni o'z ichiga oladi.

Mamlakatimizda terrorizmga qarshi kurashda ma'naviy-ma'rifiy, mafkuraviy tarbiya orqali olib borishga alohida ahamiyat berilmoqda. Bunda esa, avvalo fuqarolarimizga dunyoviy mohiyatga ega din haqida ma'lumot berish va diniy yo'nalishdagi maktablar va machitlardagi suhbat va ma'ruzalarda terrorchilikning mohiyatini ochib tashlash yo'lidan foydalanilmoqda.

Respublikamiz fuqarolarining erkinliklarini, ularning ongida demokratik qadriyatlarni va milliy mafkurani mustahkamlash va rivojlantirish hozirgi paytda eng dolzarb vazifalardan biri. Yurtboshimiz ko'rsatganidek, «o'z haq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan birga, o'z shahsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin shahsni shakllantirish uchun barcha shart-sharoitni yaratish darkor». Huquqiy davlat tuzish mohiyatini chuqur anglamaguncha, uning qonun-qoidalarini hurmat qilmaguncha taraqqiyot bo'lishi amrimahol.

Mamlakatimizning milliy istiqlolini mustahkamlash yo'lida nafaqat murakkab iqtisodiy va siyosiy masalalarni hal qilishga to'g'ri kelmoqda, shuningdek, taraqqiyot yo'nalishini tanlash, qurilajak jamiyatning mazmun-mohiyati, tashkiliy va boshqaruv tamoyillari, jamiyat va inson munosabatlari qanday bo'lishi lozimligi masalasini xalqqa tushuntirish, turli yot, soxta, reaksion, ekstremistik qarashlardan uni himoya qilishga zarurat tug'ilmoqda.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, muholiflarimizning eng yovuz quroli – milliy qadriyatlarimizga to'g'ri kelmaydigan, eng yomoni, ertaga o'rnimizni egallashi lozim bo'lgan yoki avlodning qalbi va tafakkurini zaharlaydigan buzg'unchi mafkuradir.

G'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yosh avlodni milliy g'oyada aks etadigan millatning haqiqiy orzusi – ozod va obod Vatanda erkin va to'q yashash orzusiga sadoqat ruhida tarbiyalash uchun farzandlarimiz yuragida ona Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog'lom munosabatni qaror toptirishimiz, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur.

Turli g'oyaviy xurujlar avj olayotgan, ular bizning eng muqaddas g'oyalarimizga va maqsadlarimizga tahdid solayotgan bir paytda fojealar

sodir bo'lmasidan ilgariroq uning oldini olishning eng to'g'ri va yagona yo'li – begona va soxta g'oyalarga qarshi g'oyaviy immunitetni kuchaytirish lozim.

Milliy istiqlol mafkurasining shakllanishiga to'sqinlik qiluvchi eng katta sabab – bu eski aqidalardan xalos bo'lishning og'irligi.

Hozirgi zamondagi eng katta havf – insonlarning qalbini va ongini egallash uchun uzluksiz davoni etayotgan mafkuraviy kurashdir. Endilikda yadro maydonlarida emas, mafkura maydonlarida bo'layotgan kurashlar ko'p narsani hal qiladi.

Buni Prezident Islom Karimov: «Hozirgi vaqtda qudratli davlatlar va muayyan siyosiy markazlar o'z maqsadlariga erishishi uchun, avvalo, zabt etmoqchi, o'z ta'sir doirasiga olmoqchi bo'lgan mamlakatlarning aholisi ongini o'ziga qaram qilishga intiladi», - deb ta'riflaydi.

Jahon siyosatida mafkuraviy ta'sir o'tkazish orqali xalqlarni, mamlakatlarni zabt etish tamoyili kuchaymoqda. G'oyaviy tazyiqning bunday shakli – turli tuman. Jumladan, islom omilidan foydalanish, diniy ekstremizmni kuchaytirish orqali diniy terrorizmni amalga oshirishga intilish yuqori mavqega ega bo'lmoqda.

Islom dini yuksak madaniy, axloq-odob, ma'naviyat, ma'rifat mezoni sifatida hayotimizdan chuqur o'rin olgan. Bizning diniy aqidalarimiz turmush tarzimizning mazmuniga aylangan. Milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz islom dini qoidalari, talablari va mezonlari asosida shakllangan. Bizning dunyoqarashlarimizda, hayotga munosabatlarimizda, turmush tarzimizda islom dinining ta'siri va o'rni katta. Buni inkor qilib bo'lmaydi. Buni inkor qilishda nomaqbul g'ayriinsoniy hodisani yaqin o'tmishimizda ko'rdik. Kommunistik mafkuraning «Din - afyundir», - degan shiori Sobiq Sho'ro musulmon xalqi hayotini xonavayron qildi, uning ruhini sindirdi, ma'naviy jihatdan shikasta qilib qo'ydi.

Mafkuradagi bunday nomaqbul holat hech qachon yashovchan bo'lmaydi. Chunki odamlar o'z sha'ni, his-tuyg'usi va oriyatiga aylanib ketgan g'oyalarga qarshi turgan g'oyani mutlaqo qabul qilmaydi. Ular qalbi va ongiga esa, mafkurani zo'ravonlik, tazyiq va zulm orqali singdirib bo'lmaydi. Agar mafkura chindan ham zo'ravonlik yo'lini tanlasa, jamiyat taraqqiyotiga to'g'anoq bo'ladi. Chunki hukmron g'oyaning quliga aylangan fuqaro mutelik va tobelik kayfiyati bilan

yashaydi. O'zini erkin va ozod his qilaolmaydi. Demak o'z imkoniyatlarini, yaratuvchilik iqtidorini, bunyodkorlik iste'dodini to'la namoyon eta olmaydi.

Milliy istiqlol mafkurasining din orqali va dinning keng imkoniyatlaridan foydalangan holda, xalqimizning ma'naviy-ruhiy ehtiyojlariga mos ravishda yo'l tutishi hayot haqiqatidir. Shuning uchun ham Prezident Islom Karimov milliy istiqlol mafkurasi xususida gapirar ekan: «Har bir vatandoshimiz, ayniqsa, yoshlar faqat islom dini to'g'risida emas, umuman dunyoda mavjud dinlar, ularning tarixi, mohiyati to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lsin. Ijtimoiy sohaga oid darslarda yoshlarga din bilan dunyoviy hayot masalalarini, bu ikki tushunchaning bir-biriga ta'sirini, ular o'rtasida mo''tadil munosabat bo'lishi zarurligini ochib berish kerak»- deydi.

Bir yuz o'ttizdan ortiq millat va elat yashayotgan mamlakatimizda turli diniy aqidalar bilan yashayotgan xalqimizning umumiy manfaatlarini birlashtiradigan, yaxlit xonadonimiz O'zbekiston ravnaqiga xizmat qilishga da'vat qiladigan milliy istiqlol mafkurasi mukammal, sof insonparvar g'oyaga aylanishi kerak.

Milliy uyg'onish, milliy o'zligini anglash kabi ma'naviy – ruhiy inqilobni boshdan kechirayotgan bir paytimizda ko'proq ezgulik tuyg'ularining barq urib shakllanishiga, uning tantana qilishiga ehtiyoj sezyapmiz. Ezgulik va yaxshilikning takomiliga etishiga esa, faqat milliy istiqlol mafkurasi yordam beradi. Ma'naviy-ruhiy quvvat bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun esa, har birimizning qalbimizda, qonimizda, jonimizda va butun vujudimizda ana shu mafkura immunitetga aylanmog'i, u butun jismu jonimizni qamrab olmog'i lozim. Ana shunda biz o'z yurtimizning, o'z uyimizning jasur va dovyurak egasiga, uning imonli, e'tiqodli himoyachisiga aylanamiz. Har qanday g'oyaviy qo'poruvchilik tahdidlariga bardoshli, bardoshligina emas, ularga qarshi tura oladigan sobit va barkamol shahsga aylanamiz.

AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH BO'YICHA ISHLANMALAR VA TARQATMA MATERIALLAR

SEMINAR MASHG'ULOTLARI

1-mashg'ulot

Diniy fundamentalizm va aqidaparastlikning kelib chiqishi

Darsning maqsadi. Talabalarga Islom dinining jamiyat ma'naviy xayotidagi o'rni va uning vazifasi, fundamentalizm va aqidaparastlik, islomdagi asosiy yo'nalish hamda mazhablarning hozirgi holati haqida bilim berishi. Talabalarni dinni niqob qilib olib, o'zlarining yovuz maqsadlari yo'lida foydalanish uchun harakat qiluvchilarga qarshi nafrat ruhida tarbiyalash.

Darsning shakli. Guruhlar taqdimoti (prezentatsiyasi). Darsga oid jihozlar. Markerlar, flamaster, plakatlar va kerakli adabiyotlar. Sinf taxtasi va undan ko'rgazmali materiallardan kodoskop va multimedia materiallaridan unumli foydalanish mumkin.

Darsning tuzilishi:

Tashkiliy daqiqa, yangi mavzu bo'yicha guruhda ishlash, guruhlar ishining yakuni, darsga yakun yasash va uyga vazifa.

Sinf taxtasiga qo'yidagi yozuv osib qo'yiladi:

"Din, shu jumladan, Islom dini ham ming yillar davomida barqaror mavjud bo'lib kelganligining o'ziyoq u inson tabiatida chuqur ildiz otganligidan, uning o'ziga xos bo'lgan bir qancha vazifalarni ado etishidan dalolat beradi. Eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma'naviy hayotining muayyan sohasi bo'lgan din umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan. Madaniyatga katta ta'sir ko'rsatgan. Insonning odamlar bilan bahamjihat yashashiga ko'maklashgan va ko'maklashmoqda".

Islom Karimov

Noan'anaviy amaliy mashg'ulot bo'lganligi uchun ushbu darsning maqsadini o'qituvchi talabalarning ijodiy izlanishi va mustaqil fikrlashi uchun imkoniyat yaratishini tushuntiradi. Shu maqsadda talabalarning bilimlari va qobiliyatlari hisobga olingan holda guruhlarga bo'linadi. Mavzu taqdimoti plakatga chizilishi yoki sinf taxtasiga yoziladi. Kodoskop yoki multimediaga moslab kompyuterga yoziladi.

Darsda asosan talabalar faol ishtirok etadilar. O'qituvchi esa, ularni boshqarib boradi.

Guruhlarga beriladigan topshiriqlar:

1-guruh. Dinning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni. Islomning paydo bo'lishidagi ijtimoiy – iqtisodiy sharoit.

2-guruh. Islomni asl holicha saqlab qolishga intilish-fundamentalizm yoki aqidaparastlik. Uning turlari, amal qilish tarzlari.

3-guruh. Islomdagi asosiy yo'nalish va Hanafiy va Xanbaliy mazhablar.

4-guruh. Molikiy va Shofe'iyya mazhablari. Hozirgi holat.

1-talaba: Biz bu masalani to'la tushuntirishimiz uchun tarixiy bilimlarga tayanishimiz va, shu bilan birga, islomga ko'pgina adabiyotlarni o'qigan bo'lishimiz lozim. Chunki diniy aqidalar paydo bo'lishida tarixiy sharoit asosiy rol o'ynaydi. Shu sababli Oliy Majlisning XI sessiyasi materiallarida ham bu masalaga katta e'tibor berildi.

2-talaba: Darhaqiqat, insoniyat tarixining eng qora bulutli kunlarida yovuzlik ezgulik ustidan qolib kelgan paytlarida xalqni yorug'likka etaklovchi olijanob g'oyalar bo'lgan. Johiliyat davrida arablarda axloqsizlik, diyonatsizlik tamomi avjiga chiqqan, insof va adolat oradan ko'tarilib, qavm mayparastlikka mukkasidan ketgan. Butlarga sig'inishgan. Qiz bola tug'ilsa uni tiriklayin yerga ko'mish odat tusiga kirgan. Jaholat qutqusida Yaman hukmdori Abraxa Ka'bani buzishga chog'lagan va o'zi baloga giriftor bo'lgan. Oradan qirq besh kun o'tgach,

Muhammad alayhissalom dunyoga kelgan. Uning dini esa, Islom. Islomning mohiyati yagona Ollohga sig'inish, rost gapirish, hidoyatga yo'llash.

3-talaba: Lekin har kim har xil talqin qiladi. Tabiatan odam bolasi dunyoni o'zining qarichi bilan o'lchaydi. Shuning uchun ham, garchi Islom muqim turgan bo'lsa-da, daraxt tanasidan chiqqan shoxlarday, turli qarash va turli oqimlar paydo bo'lgan, ayrim kimsalar esa, saltanatni qo'lga kiritish niyatidagi sa'y-harakatini Islom vositasida niqobladi va oqibatda ular mo'minlarni turli guruhlarga ajratib yubordi. Ba'zilari esa, o'zlarining g'arazli niyatlarini amalga oshirish uchun dinga yolg'onni qo'shdilar, munofiqlar o'zlarining buzuq fikrlarini oyat yoki hadislar bilan isbotlashga harakat qilib musulmonlarni aldadilar va Islomdan buzg'unchilik yo'lida foydalandilar.

4-talaba: Aslida Islom dunyosida Qur'oni Karim va Hadisi shariflardan kelib chiqqan turmush tarzi Movaraunnahr hududidagi barcha musulmonlarning kundalik hayotiy turmush tarzi sifatida qadrlanadi. Uning asosiy qadriyatlari Iyd ramazon, Qurbon hayit, payg'ambarlarni ulug'lash, Islom saltanatini mustahkamlash va abadiylashtirishda xizmat qilgan buyuk allomalarni, an'analar va urf-odatlarni qadrlash ularning kundalik ehtiyojiga aylanib qoldi. Bugungi kunda o'zini musulmon hisoblagan har bir insonni ana shu qadriyatlarsiz va musulmon turmush tarzisiz tasavvur qilish qiyin. Ma'lumki, mazkur turmush tarzi kishilarning halol, sof, imonli bo'lishlarida katta rol o'ynaydi. Umuman olganda, Islom axloqiy pok insonlarni tarbiyalashda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan ma'naviy qadriyatdir. Bu ma'naviy qadriyat musulmonlarni hamisha bir butun, uyushgan va hamjihatlikda yashovchi birlik sifatida mavjudligini ta'minlovchi muhim omil bo'lib kelgan.

5-talaba: Albatta, tarix manfaatlar uyg'unligi va ziddiyatlar birligidan iborat bo'lgan hodisadir. Shuning uchun ham, Islom dinining paydo bo'lishidan to shu bugunga qadar, g'oyalar, manfaatlar, hokimiyat uchun kurashlar silsilasidan iborat bo'lgan voqealarni kuzatish mumkin.

Bu kurashlar hamisha xalqning tinchligi, osoyishtaligi va pokiza hayotini buzgan, uni notinch qilgan. Shuning uchun ham, din tarixini varaqlaganimizda ana shunday notinchliklar guvohi bo'lib, ularning saboqlarini muhokama qilib, bugungi kunda Islom dunyosida sodir bo'layotgan har qanday harakatga juda katta javobgarlik hissi bilan baho berishimiz lozim.

2-gurux taqdimoti:

1-talaba: Islomni asl holida saqlab qolish uchun harakat qilib odamlarni bir-biriga qarshi qo'yib, qon to'kishni tashkil qilayotgan, amalda o'zining huzur-halovatini o'ylayotgan kimsalarni Yevropada fundamentalistlar, Markaziy Osiyoda aqidaparastlar yoki ekstremistlar, deb ataydilar.

Fundamentalizm so'zi asli lotinchadan kelib chiqqan bo'lib, asos yoki poydevor ma'nosini bersa-da, aqidaparastlik tushunchasi unga mos keladi. Biron narsaning asosi, jumladan, dinning asosi yoki poydevori. Fundamentalizm barcha dinlarga xos bo'lib, dinning asli qanday bo'lsa, shundayligicha saqlab qolishga harakat qilinadi.

2-talaba: Islom fundamentalizmi hozirgi Islomdagi uch oqimdan (traditsionalizm va modernizm bilan birga) biri. Bu oqim o'zini diniy uyg'onish tarafdorlari deb ataydi. Islom fundamentalizmining asosiy konseptsiyasi Islomning fundamental prinsiplari kapitalizmdan ham, sotsializmdan ham farq qiluvchi mustaqil "Islom taraqqiyot yo'li" ni belgilab beradi, deb hisoblaydilar. Islom traditsionistlaridan farq qilgan holda, ular ana shu fundamental prinsiplarni tiklash va ularga amal qilish tarafdorlaridir. Lekin islom modernistlariga qarshi ular ana shu prinsiplarni hozirgi davr taqozosiga moslab qayta talqin etish mumkin emas, deb hisoblaydilar.

3-talaba: Islom traditsionistlari esa, o'rta asr aqidalariga izchil amal qilib, dinni har qanday isloh qilishlarga qarshi chiqadilar va yoki ularning fikricha, dinda "ijtihod eshiklari yopiqdir". Ular milliy ong

sohasida islomni millatchilikka qarshi qo'yadilar, ya'ni musulmonlar qaysi millatdan bo'lishiga qaramay, jamiyatda islom aqidalariga so'zsiz amal qilishi kerak, ijtimoiy ong sohasida esa, musulmon jamoasi a'zolari, ummatlar teng huquqli, ularni bir-biridan ajratish mumkin emas, degan konseptsiyani ilgari suradilar.

4-talaba: Ular ham fundamentalistlarga o'xshab din va siyosatni bir, deb tushunadilar. Fundamentalistlar islom bilan millat manfaatlarini bir, deb hisoblaydilar. Fundamentalizm tarafdorlarining maqsadi ijtimoiy adolat uchun kurashish bo'lib, hatto mazlum tabaqalarni boshqalardan ajratib, ular nomidan ish ko'radilar.

Traditsionalizm yarim feodal tabaqalar mafkurasi bo'lib, dehqonlar, hunarmandlar psihologiyasini aks ettirsa, fundamentalizm radikal va konservativ dunyoqarashdagi mayda guruhlar manfaatlarini ifodalaydi.

5-talaba: Diniy fundamentalizm, ya'ni aqidaparastlik ko'r-ko'rona ishonishga, e'tiqodga asoslangan, dalilsiz, isbotsiz qoidaga, ishonch bilan aytilgan fikrga yoki qattiq ishonilgan mulohazaga asoslanadi. Shu sababli aqidaparast odamlarga aqidalarga ko'r-ko'rona ishonuvchi, aqidalarga yopishib olgan, dogmatizm tarafdori sifatida qaraladi. Chunki dogma bu – tanqidiy tekshirmay, ko'r-ko'rona qabul qilingan qonun-qoida, fikr-mulohaza, aqidadir. Shuning uchun ham aqidaparast dogmalarga, aqidalarga asoslangan tafakkurga, eskirgan, qotib qolgan nazariy qonun-qoidalarga tanqidiy ko'z bilan qaramay, ko'r-ko'rona ishonadi va unga amal qiladi.

6-talaba: Demak, diniy fundamentalizm – aqidaparastlik aqidaning o'zgarmasligini himoya qiladigan, vahiy va mo''jizalarning muqaddas kitoblardagi bayonining harfiy talqini tarafdori, ularning har qanday majoziy talqinga murosasiz, so'zma-so'z talqinga asoslangan e'tiqodni aqlga tayangan mantiqiy dalillardan ustun qo'yadigan, muayyan diniy e'tiqod shakllanishining boshlang'ich davrida belgilangan barcha yo'l-yo'riqlarning qat'iy va og'ishmay bajarilishini talab qiladigan diniy oqimlarni ifodalashda qo'llaniladigan istilohdir.

Shundan kelib chiqib, islom fundamentalizmining ilk davrlariga nazar tashlasak, islomning boshqa mamlakatlarga yoyilishida ham o'ziga xos xususiyatlarni ko'ramiz.

3- guruh taqdimoti:

1-talaba: Ma'lumki, Islom dini asosan ikki yo'nalishdan iborat: sunniylik va shialik. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, jahondagi1, 2 milliard nafardan ko'proq musulmonlarning 92,5 foizini sunniylar tashkil etadi. Sunniylik tarafdorlari dunyoning 120 ga yaqin mamlakatida, jumladan, Pokiston, Arabiston yarim oroli, Fors ko'rfazi atrofidagi arab mamlakatlari, Suriya, Livan, Iordaniya, Eron, Shimoli-sharqiy va g'arbiy Afrika mamlakatlari, Rossiya, Markaziy Osiyo, Bolqon davlatlari, Kipr, Germaniya va AQSh da yashaydilar. Dunyoning 35 mamlakatida musulmonlar mamlakat aholisi tarkibining asosiy qismini tashkil etadi.

2-talaba: Shialar esa, Eron, Iroq, Afg'oniston, Hindiston, Pokiston, Ozorbayjon va Tojikistonda bo'lib, Abu Bakr, Umar, Usmon kabi halifalarni tan olmay, hazrati Ali tarafdorlaridir va 12 imomni tan oladilar.

Sunniylar Qur'oni Karim va sunna (Muhammad alayhissalom hadislari) ga e'tiqod qiladilar. Sunniylikda 4 ta diniy huquq mazhabi bo'lib, ular: Hanafiy (Abu Hanifa an-Nu'mon, 699–767), Hanbaliy (ibn Hanbal, 780–855), Molikiy (Molik ibn Anas, 721–795) va Shofe'iyya (Abu Abdullo Muhammad ibn Idris ash-Shofe'iyya, 767–820) mazhablaridir.

2-talaba: Hanafiy - Iroqda vujudga kelib, Islom dini tarqalgan barcha mamlakatlarda, jumladan, Huroson va Movarounnahrda ham keng yoyilgan. Burhoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" to'plami bu mazhabning asosiy qo'llanmasi sifatida tanilgan. Hanafiy qonunlari nisbatan yumshoqroq va qulayroqligi, xalqlarning mahalliy an'analarini e'tiborga olganliklari sababli keng yoyilgan. Sunniylik yo'nalishiga

mansub musulmonlarning uchdan bir qismidan ko'prog'i bu mazhabga kiradi.

Xalqimiz tarixan sunniylikning mo''tadilligi va bag'rikengligi bilan siyosiy-iqtisodiy va ilmiy-madaniy yuksalishga qulay sharoitlar yaratib kelgan Hanafiy mazhabiga (Imom A'zam Abu Hanifa mazxabi) chuqur e'tiqod qilib kelgan. Bundan ham muhimi, mazkur mazhab diniy aqidalarning shakllanishida mintaqamizdan chiqqan Abu Lays Samarqandiy, Nasafiy, Moturudiy, Kosoniy kabi o'nlab buyuk allomalar asosiy rol o'ynaganlar.

4-talaba: Kezi kelganda shuni ta'kidlash joizki, hanafiylik sunniylikni tashkil etuvchi to'rt mazhab ichida eng kattasidir. Hisob-kitoblarga ko'ra, dunyodagi musulmonlar mazhablar bo'yicha qo'yidagicha bo'lingan: hanafiylar – 47 foiz, shofe'iyyalar – 27, molikiylar – 17 va hanbaliylar – 1,5 foiz. Qolgan 7,5 foizni shialar, ibodiylar va xorijiylar tashkil qiladilar. Masalaning yana bir ibratli jihati shundaki, hanafiylar Indoneziya va boshqa janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlaridan boshlab Turkiyagacha bo'lgan o'lkan jug'rofiy hududda mutlaq ko'pchilikni tashkil qiladilar. Shofe'iyyalar – shimoli-sharqiy Afrikada, molikiylar esa, – shimoli-sharqiy Afrikada aksariyatni tashkil etadilar.

5-talaba: Modomiki, hanafiylik an'analarini eslagan ekanmiz, shu o'rinda uni sunniy mazhablardan ajratib turuvchi eng muhim xususiyatlaridan bittasinigina eslab o'tishni o'rinli deb bilamiz: hanafiylik o'z tarixiy taraqqiyotining barcha bosqichlarida musulmonlarning hamjihatligi, o'zaro inoqligi va birligini ta'minlash uchun kurashib kelgan. Boshqacha qilib aytganda, musulmon jamoasi orasidagi har kanday firqachilikka, ya'ni qavmning diniy e'tiqod belgilari bo'yicha guruhlarga bo'linishiga qat'iy qarshi bo'lib kelgan.

Hanbaliylik – diniy masalalarda erkin fikr yuritishga qarshiligi, huquq tizimining o'ta torligi, har qanday ko'rinishdagi "yangilik" ka qarshiligi va shariat ahkomlariga rioya etishda qat'iy mutaassibligi bilan ajralib turadi. Bu mazxab tarafdorlari Qur'on va hadislarni erkin talqin

etish yo'lidagi har qanday urinishlarni qoralaganlar va shuning uchun ham bu mazhab keng tarqalmagan. Faqat IX asrning II yarmida arab halifaligida mu'tazimiylarning va ilohiyot sohasidagi hurfikrlilikning ta'qib ostiga olinishi tufayli hanbaliy birmuncha kengaygan va XII asrda mustaqil mazhabga aylangan. X asrda Eronda, XI asrdan XV asrgacha Suriya va Falastinda xanbaliy izdoshlari ko'p bo'lgan.

6-talaba: XIV asrga kelib Suriyada arab ulamosi, mufti Taqi ad-Din Ibn Taymiya xanbaliy mazxabini jonlantirishga urinib ko'radi. Ammo ulamolarning qattiq qarshiligiga uchraydi. O'zi quvg'in qilinib, hibsga olinadi va 1328 yilda zindonda vafot etadi.

Undan keyingi asrlarda hanbaliy tarafdorlari yana kamayib ketgan. XVIII asrda paydo bo'lgan vahhobiylar hanbaliy tarafdori bo'lib chiqqan.

7-talaba: Hanbaliy mazhabiga e'tiqod qiluvchilarga kelsak, ular asosan, hozirgi Saudiya Arabistoni hududida yashaydilar. Oxirgi yillarda ommaviy axborot vositalarida tez-tez gapirilayotgan vahhobiylik harakati ham mazkur o'lka tarixining uzviy qismidir. Vahhobiylar harakati sunniy mazhablarning eng kichigi bo'lgan va radikal yo'nalish hisoblangan xanbaliylik ichidan o'sib chiqqan, dunyoviy qadriyatlarga nisbatan o'ta murosasiz diniy-mafkuraviy oqimdir. Keltirilgan raqam va misollar mantiqan qator savollarni paydo qiladi. Jumladan, nima uchun bizning musulmonlarimiz sunniylik yo'nalishidagi eng kichik mazhab – hanbaliylik g'oyalari bilan sug'orilgan vahhobiylikka berilishi kerak? Axir – bu nafaqat ma'naviy-madaniy, balki sof diniy qadriyatlarimizdan ham chekinish emasmi?

4-guruh taqdimoti:

1-talaba: Molikiy mazhabi tarafdorlari huquq masalalarida ratsionalistik metodlarga, ya'ni Qur'on va hadislarni aqlga asoslangan holda talqin qilishga qarshi chiqqan. U dastlab, Hijoz va Madina, keyin boshqa mamlakatlarga tarqalgan. Hozirgi davrda molikiy mazhabi Tunis,

Jazoir, Marokash, Liviya va ayrim boshqa mamlakatlarda musulmonlar o'rtasida ta'sirga ega.

2-talaba: Shofe'iyya – Suriya va Misrda shakllangan bo'lib, o'rta asrlarga kelib Yaqin Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. Keyinchalik bu mazhabning ta'sir doirasi torayib borgan va hozirgi vaqtda sharqiy Afrika mamlakatlarining ba'zilarida, qisman Suriya va Janubiy Arab Sultonliklarida bu mazhabga amal qiluvchilar bor. Bu mazhab a'zolari islom huquqini an'anaviy normalar bilan bog'lashga, ijmo'dan, ya'ni Qur'on va hadislarda aniq ko'rsatma berilmagan masalalarda mujtahidlarning asoslangan fatvosidan foydalanishga e'tibor berishgan.

3-talaba: Agar bu mazxablarning kelib chiqishini ilmiy asoslaydigan bo'lsak, o'sha davrda musulmonlar yashagan joylardagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoit bilan bog'liq ekanligini ko'ramiz. Chunki bosib olingan joylardagi xalqning barcha urf-odatlari, an'analarini birdaniga yo'q qilib, yalang'och joyda Islomni joriy qilish va uni mahalliy xalqqa singdirish og'ir masala edi. Shu sababli musulmon hukmdorlari va ruhoniylari mahalliy xalqning an'analari bilan hisoblashishga majbur bo'ladilar.

4-talaba: Fundamental islom tarkib topgan joydagi xalqlarning urf-odati va an'analari islomning mag'iz-mag'iziga singib ketdi. Shu sababli xanbaliy mazhabi Arabiston yarim oroli atrofidan boshqa joylarda qo'llab-quvvatlanmadi.

Ammo mazhabni yangidan tiriltirganlar vahhobiylar edilar. Xo'sh, bu mazhablar qanday kelib chiqdi? Agar biz uning ildiziga chuqurroq nazar tashlaydigan bo'lsak, har bir oqimning boshida turgan manfaatdor shaxslar ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan, siyosatdan kelib chiqib Islomga yondoshganligini va boshqalarga ham singdirishga harakat qilganligini ko'ramiz.

5-talaba: Chunki Islom tarqalgan hududlarning hammasida ijtimoiy – iqtisodiy muhit bir xil emas edi. Turli-tuman an'analar, asrlar bo'yi yashab kelgan urf-odatlar mavjud ediki, ularni Islom birdaniga uloqtirib tashlay olmas edi. Ba'zi bir oqimlar esa, Islomning fundamental asoslari

yaratilgan muhitda paydo bo'ldiki, ular boshqa uzoq hududlardagi sharoitga mos kelmasligi tabiiy edi. Shu sababli hanbalizm oqimini hatto Arabiston yarim orolining qo'shnilari ham tan olishmadi. Bu oqim tarafdorlari turli usullar bilan, hatto jangarilik yo'li bilan, uni Islom mamlakatlariga yoyishga harakat qilmoqdalar.

Aslini olganda, hanbalizm fundamentalizmni, aqidaparastlik vahhobiylikni, vahhobiylik esa, diniy ekstremizmni vujudga keltirdi.

6-talaba: Eng muhimi aqidaparastlikning kelib chiqishida chetdan berilayotgan turtki muhim rol o'ynayotganligini, fundamentalizm doimo biron-bir guruhning manfaatiga xizmat qilganlagini bilib olishimiz lozim. Shundagina bizda mustaqil mushohada paydo bo'ladi va mustaqil fikrlash doiramiz kengayadi.

O'qituvchi darsni yakunlaydi. Har bir guruh va o'quvchini baholaydi. Maslahat va uyga vazifa beradi. Buning uchun diniy ekstremizm va fundamentalizmning mamlakatimiz uchun jiddiy xavf ekanligini tushuntirib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida yangi tahrirda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi" Qonunning mohiyatini qisqacha tushuntiradi. Buning uchun u O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida Prezidentimiz I.A.Karimovning so'zlagan nutqi tanish bo'lishi va bu nutqdagi: "Tarbiyachilar, olimlar, domlalar tomoshabin bo'lib o'tirmasligi lozim. Farzandlarimizni kim to'g'ri yo'lga soladi, kim ularning ongini tozalaydi, kim ularga haq gaplarni gapirib, hayotda o'z e'tiqodiga suyanib yashashni o'rgatadi, tarbiyalaydi? Yoshlarning to'g'ri yo'l tanlashida kim birinchi bo'lib yordam berishi kerak, ularga kim tayanch bo'lishi lozim?" degan so'zlarni keltirib, oilada va maktabda bolalarning kimlarga quloq solishi, kimlarga ergashishi, ularning Vatan oldidagi, ota-ona oldidagi burchi qanday ekanligini tushuntiradi. So'ngra, diniy ekstremizm va fundamentalizm xavfi haqida to'xtalib, XX asr oxiridagi dunyo o'zgarishlarini tushuntiradi. Chunki XX asr oxiriga kelib dunyoda, ayniqsa, uning jug'rofiy-siyosiy xaritasida katta

o'zgarishlar bo'ldi. Jumladan, yangi-yangi mustaqil davlatlar paydo bo'lib, jahon hamjamiyatiga kelib qo'shildilar.

2-mashg'ulot. "DAЪVAT" VA "JIHOD" NIMA?

Reja:

1. Xalqimiz orasida da'vatchilarning ko'payishi. Aslida da'vatning nima maqsadda paydo bo'lganligi.

2. Islomda da'vat *nimani anglatadi?*

3. Jihod qachon paydo bo'ldi va uning mohiyati, hozirgi davrda nima maqsadda qo'llanilmoqda?

Darsning turi: Davra suhbati.

Darsning maqsadi. Talabalarga "da'vat" va "jihod" ning asosiy mazmunini, mohiyatini tushuntirish, aslida "da'vat" va "jihod" ning nima maqsadda paydo bo'lganligini ochib berish, voqealarni tushuntirish orqali talabalarning erkin va mustaqil fikrlashlariga erishish, shuningdek, noqonuniy xatti-harakatlarlarga qarshi ularda nafrat hissini tarbiyalash, ilmiy mushohada qilishini o'rgatish.

Darsni jihozlash: Kitoblar, kadoskop va multimediyadan foydalanish uchun yozma materiallar, bo'r, flamester, marker va boshqalar. Sinf taxtasiga quyidagi so'zlar yozilgan plakat osib qo'yiladi: "..nafaqat jinoiy yo'lga adashib kirib qolganlarga, balki ularning qilmishidan xabardor bo'lgan odamlarga ham shuni aytmoqchimanki, hali ham kech emas, bunday odamlarni biz yomon yo'ldan qaytarishimiz kerak. Nega deganda, ular ham kimningdir bolasi, jigarbandi, ular ham o'zbek oilasidan chiqqan yigitlar. Biz buni hech qachon unutmasligimiz va xalqimizni jipslashtirish, farzandlarimizni asrash yo'lidagi bir da'vat, deb bilishimiz kerak".

Islom Karimov

O'qituvchi darsni boshqarib boradi va oldindan talabalarga tarqatma materiallar berib yuboriladi. Dars savol-javob tariqasida o'tadi. Darsda interfaol metodlar keng qo'llaniladi.

O'qituvchi bu darsni o'tish davomida turli xil yig'inlarda, "amri ma'ruf" xatti-harakatlarlarda din peshvolarining iymonu e'tiqodga chorlovchi va'zlari, shuningdek, masjidlarda juma namozidan oldingi va'zlari qanday ma'noda bo'lishini tushuntiradi. Lekin bu va'zxonlikning ba'zan galamislik niyatida vahhobiy oqimidagilar qo'liga tushib qolgan (ayniqsa, ko'p joylarda ular o'z aqidalarini tushuntirishga harakat qilgani) sezildi. Shu sababli talabalar "da'vat" va "jihod" aslida nima ekanligini tushunishlari zarur. Bu o'rinda o'qituvchi din tarixidan xabardor bo'lishi va "Adolat" gazetasining 1998 yil 6 fevralda bosilib chiqqan "Islomda da'vat" maqolasidan va boshqa diniy bilimlardan xabardor bo'lishi zarur.

Savol: "Da'vat" va "jihod"chilar qaerdan kirib kelmoqda. Uning mohiyati nima?

Javob: O'tgan asrning to'qsoninchi yillarida mustaqilligimizni, demokratiyani "har kim xohlagan ishini qiladi" tarzida tushungan ayrim kimsalar kimlarningdir qutqusiga uchib, turli chet mamlakatlarga borib, jamiyatimiz uchun yot bo'lgan G'oyalar ta'siriga tushganlar. Ularning maqsadi – *tinch turmushimizga* raxna solish, odamlar orasida qo'rquv va norozilik tuyg'ularini paydo qilish, "jihod" nomi bilan ko'pchilikning halovatini buzib, insonlarning umriga zomin bo'lish, qonini to'kib, mol-mulkiga egalik qilishdir.

"Vahhobiylar" deb atalmish to'daga mansub guruh tomonidan Namangan viloyatida qilingan vahshiyliklarni O'zbekiston xalqi "zangori ekrat" orqali ko'rib, matbuot sahifalarida o'qidi. "Vahhobiylar" ning kim ekanligi va maqsadi ayon bo'ldi. Ularning nimaga intilayotgani, bu yo'lda kimlarni, qay tarzda qurbon qilayotganliklarini, ularning "daho-da'vatchi"larlari bo'lmish Akmal Haydarov, Hakimjon Solixonov, Qosimjon Hojiev, Qodir Abdurahmonovlar ekran orqali xalqqa qarab o'z tillari bilan aytdilar.

Savol: "Da'vat" chilar kimlar?

Javob: Ayniqsa, "ayol da'vatchi", "o'rus da'vatchi" atalmish qandaydir ayolning paranji yopinib soatlab qiladigan da'vatlari ayrim sodda ayollarning boshini aylantirib, ularni uy-ro'zg'or yumushlari, bola-oila tashvishini yig'ishtirib, ertadan – kechgacha "da'vat" etishu o'tgan-ketgan *mish-mishlarni tahlil qiluvchilarga aylantirib qo'ydi.*

Savol: Aslida, o'zi Islomda da'vat nima? U Respublikamizga qaerdan va qay tarzda kirib keldi? Endigina ozodlikka erishgan, erkini qo'lga olgan xalqimiz uchun "da'vat" va "da'vat" chilar zarurmi?

Javob: "Adolat" gazetasi muxbiri Shahnozaxon Xudoyberdievaning savollariga O'zbekiston musulmonlari Diniy idorasining rahbari, muftiy hazratlari Abdurashid qori Bahromov quyidagicha javob beradilar: "Qur'oni Karim oyatlarida Olloh taolo da'vat o'zi nima, mo'min – musulmonlar da'vat ishlarini qanday holatda olib bormoqliklari kerakligini belgilab qo'ygan. Tarixdan xabaringiz borkim, muqaddas Islom dinimizdan ilgari johiliyat zamonida, elatlar, millatlar, qabilalar o'rtasida nohaq qon to'kish, zulm ishlari sodir bo'lib turardi. Olloh subhona taolo Qur'oni Karim oyatlarida odamlarni ana shunday ishlarga barham bermoqlikni bayon qilib, marhamat qiladiki, Ollohning dinini, Ollohning shariatini, Ollohning kalomi – Qur'onini, Ollohning arkonini mahkam ushlanglar, ya'ni turli qabilalarga, guruhlarga bo'linib ketmanglar. Sizlar Ollohning da'vatini, ya'ni iymon, ixlos da'vatini yodlaringizga olinglar. Bu ulug' da'vat sizlarga berilmasidan avval siz bir-biringiz bilan dushmanlikda, adovatda edingiz. Bu ulug' iymon da'vati tufayli bir-birovlaringizga qalblaringiz ulfat bo'ldi, aka-uka, birodar bo'ldilaringiz. Vaholanki, sizlar ana shunday nohaq qon to'kish, zulm ishlari bilan bo'lib, do'zax otashida yonmog'ingiz mumkin. Olloh sizga iymon ne'matini, Islom ne'matini marhamat qilib, ana shunday qattiq bir azobdan sizlarni qutqardi. Xuddi shuningdek, Olloh o'z oyatlarida sizlarga bayon qiladiki, shoyadkim, siz hidoyat yo'lida bo'lsalaringiz.."

Ushbu oyati karimaning davomida da'vat qanday ekanligini Olloh taboraka bayon qilib qo'ygan: Sizlarning oralaringizda shunday bir ahli salohlar bo'lsinlarkim, ular insoniyatni yaxshilikka chaqiradigan, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatadigan va man qilingan munkar, nopok yo'llardan qaytaradigan xizmatkor da'vat qiladiganlar bo'lsin. Ana shunday zotlar najot soluvchilardan bo'ladilar, deb Olloh taolo marhamat qiladi. Ya'ni da'vatda biror insoniyatni yaxshilikka chaqiradigan, xayrli ishlarga buyuradigan, nopok yo'llardan qaytaradigan kishini da'vat ishlarini bajaruvchi, da'vatchi deyiladi. Ammo Pokistondan kelgan da'vatni, ya'ni Islom dinini niqob qilib, da'vatni o'zlariga vasiqa qilib olib, da'vat deb, insoniyatni noobod yo'llarga chaqirib, insoniyatni terrorchilikka,

qo'poruvchilikka boshlovchilarni biz hech qachon da'vatchi, deb tan olmaymiz. Shu bilan birga bizlarning idoralarimizning ulamoi ikromlari, imom-xatiblari juma kunlari, mo'min-musulmonlar yig'inlarida va ularning xonadonlarida bo'ladigan shaxsiy marosimlarda, alhamdulillo, sha'riy da'vat ishlarini juda ham chiroyli holatda, Qur'oni Karimga va Hadislarga muvofiq holda olib bormoqdalar. Biz chaqirilmagan "da'vatchi" xatti-harakatlarlarni masjidlarda da'vat ishlarini olib borishlariga yo'l qo'ymasligimiz kerak. Bunga O'zbekiston musulmonlari idorasi ulamolari tomonidan maxsus qarorlar ham chiqarilgan. Bu qarorlar Jumhuriyatimizdagi barcha Jome' masjidlariga tarqatilgan, ularning ulamoi ikromlariga ana shunday chaqirilmagan, chet mamlakatlardan, xorijdan kelgan yoki o'zimizning oramizdan chiqib, jamoat yig'ilgan joylarda da'vat kishilarini olib boruvchilarga yo'l bermasligi tushuntirilgan. Ayrim "da'vatchi" erkaklar ta'siriga ularning ayollari, yaqinlari xam kirib, go'yo ayollar orasida da'vat ishlarini olib bormoqlikni ixtiyor etganlar. Endilikda bilib-bilmay da'vat qilishlarga chek qo'yilganini barcha tushunishi zarur.

O'qituvchi bu so'zlarning to'la ma'nosini talabalarga tushuntirishi lozim.

Savol: Namoyish etilgan ko'rsatuvlarning birida aybdorlardan biri "jihod" e'lon qilganliklari, "jihod paytida erkak-ayol farqlanmay qatl qilinishi" haqida gapirdi. Tinch aholiga nisbatan, hech qanday sababsiz, jihod e'lon qilish mumkinmi? Bu haqda Qur'oni Karimda nimalar deyilgan?

Javob: "Qur'oni Karim oyatlarida – deydi muftiy xazratlari, - musulmonlar, mo'minlar toifalari, guruhlari o'rtasida Biron-bir kelishmovchiliklar, bir-biroviga nisbatan urush e'lon qiladigan bo'lsalar, ularni tezlik bilan ittifoqchilikka, murosaga keltirmoq lozim. Agar ikki toifadagi mo'min- musulmonlar bir-birlari bilan urushsalar, tezlik bilan ularning o'rtalarini isloh qilinglar" degan Olloh taoloning amri bor. Hozir tinchlik davrida, alhamdilulloh, endigina qizil imperiyaning beadad asoratlaridan qutulgan bu mustaqil jumhuriyatimizda hamda o'z yo'lini topib olib, tinch hayot kechirayotgan musulmonlarning ongini zaharlab, ularni jihoddek noto'g'ri yo'llarga boshlashlik – juda katta gunoh. Tinch aholiga nisbatan mana shunday ishlarni qo'llashlikni shariatimiz mutlaqo quvvatlamaydi, tan olmaydi. Sizni ishontirib

aytamanki, bu man qilingan ishlardan. Olloh taolo Qur'ondagi oyatlarida siz bilan biz, ya'ni mo'min – musulmonlarga: "Ey, iymon keltirgan ahli mo'minlar! Sizlarning barchalaringiz yoppasiga tinchlik harakatiga kirishinglar. Shaytonning yo'liga ergashmanglar", - deb amr qilgan. Va shu bilan birga ikkinchi oyati karimada ham yaxshilik yo'llarida, taqvo yo'llarida bir-biringizga yordamlashinglar, ko'maklashinglar. Ammo gunoh bo'ladigan, o'rtalaringizda bir adovat paydo qiladigan ishlarda aslo bir-birovingizga yordam bermanglar. Ollohdan qo'rqinglar, deb da'vat qilingan.

Bir guruh vahhobiylik mansub bo'lgan insonlar o'zlari avval shariat ahkomlaridan yetarli xabardor bo'lmaganligi, shu bilan birga nopok yo'lga qadam qo'yganligi uchun o'zining atrofidagi mo'min – musulmonlarga nisbatan zarar etkazib, ularni ham o'zlari yurgan yo'lga boshlashga intilishlarini, albatta, barcha mo'min-musulmonlar qoralaydi. O'atto Qur'oni Karimda: "Dinga birovni zo'ravonlik bilan majburiy holatda kiritishga huquq yo'q" degan oyati karima bor. Vahhobiy oqimiga mansub bo'lgan insonlarning ..mo'min-musulmonlar orasiga nifoq solib, tinchini buzayotganligini eshitib, biz, O'zbekiston musulmonlari diniy idorasi ulamolari va, shu bilan birga, O'zbekistondagi barcha mo'min-musulmonlar bundan nihoyatda afsuslandik. Ana shu razil holatda ish olib borayotganlarning jazosini Ollohning o'zi bersin".

Savol: Jihodning asl mohiyati nima?

Javob: Aslida jihod, gazavot (arab, lug'aviy, g'ayrat qilish, din uchun kurash) Islomda g'ayridinlarga qarshi olib borilgan "muqaddas urush". Bir vaqtlar Islomni yoyuvchilar tomonidan jangga qobiliyatli har bir musulmon "muqaddas urushda" ishtirok etishi shart, deb ko'rsatilar edi. Jihod harakatlaridan oldin "g'ayridinlar"ga Islom diniga kirish taklif etilar, agar g'ayridinlar bunga rozi bo'lsalar, ular ummat qatori sanalar va musulmonlarning barcha huquqlaridan foydalanar edilar, mabodo, bosh tortsalar, ular zimmiy hisoblanib juzya to'lashga majbur etilardilar. O'z vaqtida, ya'ni Islomni yoyishning oldingi davrlarida xukmron doiralar har bir musulmonga g'ayridinlar dunyosini kuch bilan istilo etishni buyuradi, bunday musulmonlar o'z hukmdorlari e'lon qilgan urushda, albatta, ishtirok etishlari kerak, degan diniy majburiyat kelib chiqadi. Jihodda o'lgan odam shahid hisoblanib, to'g'ridan-to'g'ri

jannatga tushar emish, o'ldirgan kishi g'oziy hiosblanib, har qanday gunohlardan halos bo'lar, oxiratda rohat-farog'atda yashar emish. Jihod ilk Islom davridan buyon reaksion rol o'ynab, talonchilik va bosqinchilikni diniy oqlash niqobi bo'lib kelgan. Islomning hozirgi zamon nazariyotchilari "jihod bosqinchilik urushi emas, balki mudofaa urushidir. Dinni tinch yo'l bilan targ'ib qilish usulidir", deb uni oqlashga urinmoqdalar, ba'zi musulmon mamlakatlarida xalq ommasining mustamlakachilarga qarshi kurashlari xam ayni hollarda jihod nomi bilan atalmoqda (masalan XIX asr oxiridagi Sudan, XX asrning 10-20-yillaridagi Liviya, 1920-yildagi Iroq qo'zg'olonlari). Xorijiy sharq mamlakatlarida hozirgi ijtimoiy-siyosiy va mustaqillik jarayonlari ham jihod ishlaridan ikki xil mazmunda: ba'zan rivojlangan harbga qaratilgan harakatlarda, ba'zan demokratik tuzumlarga qarshi reaksion qo'zg'olonlarda foydalanilmoqda.

Vahhobiylar esa, "jihod" shioridan mavjud demokratik tuzumga qarshi Islom davlatini tuzish uchun foydalanmoqdalar. Voqeaning bunday tus olishi nihoyatda xavfli bo'lib, vahhobiy liderlar takrorlaganidek, hatto ota-onasini ayamaslikka qaratilgandir.

ILOVA

O'ZBEKISTONDA VIJDON ERKINLIGINING HUQUQIY ME'YORLARI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDAN:

18-MODDA

«O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar»

31-MODDA

«Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi»

57-MODDA

«Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishni maqsad qilib qo'yuvchi, respublikaning suvereniteti, yaxlitligi va xavfsizligi, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qarshi chiquvchi, urushni, ijtimoiy, milliy, irqiy va diniy adovatni targ'ib qiluvchi, xalqning sog'lig'i va ma'naviyatiga tajovuz qiluvchi, shuningdek, harbiylashtirilgan birlashmalarning, milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati taqiqlanadi»

«VIJDON ERKINLIGI VA DINIY TASHKILOTLAR TO'G'RISIDA»GI QONUNDAN:

3-MODDA. Vijdon erkinligi – fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan Konstitutsiyaviy huquqidir.

Fuqaro o'zining dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishda, diniy rasm-rusmlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lim olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmaydi.

Voyaga etmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek, ularning o'rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o'qitishga yo'l qo'yilmayli.

Dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi mumkin.

5-MODDA. O'zbekiston Respublikasida din davlatidan ajratilgan. Hech bir dinga yoki diniy e'tiqodga boshqalariga nisbatan biron-bir imtiyoz yoki cheklashlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Davlat turli dinlarga e'tiqod qiluvchi va ularga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e'tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishiga ko'maklashadi, diniy va o'zga mutaassiblikka hamda ekstremizmga, munosabatlarni qarama-qarshi qo'yish va keskinlashtirishga, turli konvensiyalar o'rtasida adovatni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'ymaydi.

Davlat diniy konvensiyalar o'rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo'llab-quvvatlaydi. Bir diniy konvensiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

6-MODDA. Davlat organlari bilan diniy tashkilotlarning o'zaro munosabatlarini muvofiqlashtirish hamda vijdon erkinligi va diniy

tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlari ijrosini nazorat qilish vazifasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita zimmasiga yuklanadi. Qo'mitaning huquqiy maqomi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan Nizom bilan belgilanadi.

8-MODDA. Diniy tashkilot O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashayotgan yuz nafardan kam bo'lmagan fuqarolari tashabbusi bilan tuziladi.

Diniy tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida yoki uning joylardagi organlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda o'z faoliyatini amalga oishirish mumkin.

14-MODDA. Diniy tashkilotlar ibodat qilish yoki diniy rasm-rusmlar o'tkazish uchun qulay joylar tashkil etish va ularni saqlab turish, shuningdek, ziyoratg'ohlarni saqlab turish huquqiga egadir.

Ibodat, diniy rasm-rusmlar va marosimlar diniy tashkilotlar joylashgan manzildagi ibodatxonalarda va ularga tegishli hududlarda, ziyoratgohlarda, qabristonlarda, zarur hollarda fuqarolarning ixtiyoriga binoan ularning uylarida o'tkaziladi.

Kasalxonalarda, gospitallarda, keksalar va nogironlar uylarida, dastlabki qamoq va jazoni o'tash joylarida ibodatlar va diniy rasm-rusmlar shu yerdagi fuqarolarning iltimoslariga binoan o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining (diniy tashkilotlarning xizmatidagilar bundan mustasno) jamoat joylarida ibodat liboslarida yurishlariga yo'l qo'yilmaydi.

19-MODDA. Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari diniy maqsadlarga mo'ljallangan buyumlar, diniy adabiyotlar va diniy mazmundagi boshqa axborot materiallarini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishlab chiqarishga, eksport va import qilishga hamda tarqatishga haqlidir.

Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan matbaa nashrlarini, kino, foto, audio, video mahsulotlarini va shu kabi boshqa mahsulotlarni tayyorlash, saqlash va tarqatish qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2003.
2. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. –T.: O'zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. –T.: O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. –T.: O'zbekiston, 1996.
5. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. 5-jild. – T.: O'zbekiston, 1997.
6. Karimov I.A. Havfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild. –T.: O'zbekiston, 1998.
7. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. 7-jild. –T.: O'zbekiston.1999.
8. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. 8-jild. –T.: O'zbekiston, 2000.
9. Karimov I.A. Havfsizlik va tinchlik uchun kurashamiz. 10-jild. –T.: O'zbekiston, 2002.
10. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild. –T.: O'zbekiston, 2003.
11. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –T.: «Ma'naviyat», 2008.
12. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T.: «O'zbekiston»- 2010.
13. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. Toshkent Islom Universiteti - 2005y.
14. Husanov S., Jumaniyozov X., Mirjavxarova D. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari. TKTI – 2005y.
15. Abdullatif qori Hoshimjon qori o'g'li. Zalolatga ketmang! «Hizbut tahrir» fitnasidan ogoh bo'ling. – T.: -Movarounnahr, 2003.
16. Азимов А. Религиозный экстремизм и фундаментализм.–Т., 1998.
17. Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi. –T.: 2002.
18. Bahramov A. Islom va ma'rifat. –T.: Movarounnahr, 2002.
19. Бжезинский З. Великая шахматная доска. –М.: 1999.

20. Juzjoniy A.Sh. Islom huquqshunosligi. –T.: Toshkent islom universiteti, 2002.
21. Zakrulayev A. G'oyalar kurashi. – T. Movarounnahr, 2000
22. Inson huquqlari: Universal xalqaro hujjatlar to'plami. – T.: 1996.
23. Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill. –T.: Adolat, 1992.
24. Islom: bag'rikenglik va mutaassiblik. –T.: Universitet, 1998.
25. Islom va dunyoviy davlat (xalqaro ilmiy-nazariy konferentsiya materiallari). – T.: 2003.
26. Islom. Entiklopediya. –T.: O'zbekiston milliy entiklopediyasi, 2004.
27. Karimov I. Imon va inson. –T.: 1991.
28. Кожушко Э. Современный терроризм: Анализ основных направлений. –Мн.: Харвест, 2000.
29. Komilov N. Islom – ma'rifat dini. –T.: Ma'naviyat, 2000.
30. Межрелигиозное согласие – важное условие углубления демократических процессов в странах Центральной Азии (На примере Республики Узбекистан). Материалы международной конференции. – Т.: 2002.
31. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik – taraqqiyot omili. – T.: 2003.
32. Obidov R., Abdullaev S, Azimov A. Hidoyat va zalolat. –T.: 2003.
33. Otamuratov S., Mamashakirov S., Xolbekov A. Markaziy Osiyo: g'oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. –T.: 2001.
34. Правовое государство – независимость, нация, экономика, идеология, политика. В 4-х томах. –Е.: Адолат, 1994.
35. Radjapova M. Diniy ekstremizm va terrorchilik. – T.: 2000.
36. Рахманов А. Исламское право. Учебник для вузов. – Т.: 2003.
37. Рахматов А. Бдительност – священный долг. –Т.: Узбекистан, 2000.
38. Саидов А.Х. Религиозная толерантност и светское государство в Узбекистане. –Т.: 2002.
39. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha shartnomalar. –T.: Adolat, 2004.
40. Салимов К.Н. Современние проблемы терроризма. –М.: 1999.
41. Taroziy A.M. Olam uzra tarqalgan islom. –T.: 2001.
42. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций? // Полис, №1, 1994.
43. Xusanov S.X., Mirjavxarova D.S. Dinshunoslik (o'quv-uslubiy qo'llanma). – T.: 2004.

44. Xorun Yahyo. Islom terrorni qoralaydi. T.: -Movarounnahr, 2003.
45. Ekstremizm, terrorizm, guruhiy jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari. // Ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –T.: 1999.
46. Yakubov O. Qashqirlar galasi: Terrorizmning qonli izi. – T.: 2000.
47. Юнусова А.Т. Религия и закон. – Т.: Тошкент Ислом университети, 2002.
48. Husniddinov Z. Islom: yo'nalishlar, mazhablar, oqimlar. – T.: Movarounnahr, 2000.
49. Husniddinov Z.M., Abdusattorov A. Islomdagi oqimlar: xorijiylar va shialik. T.: Toshkent islom universiteti, 2003.

MUNDARIJA

Kirish.....3

1-MAVZU: DAVLAT VA DIN. O'ZBEKISTONDA DAVLATNING DIN VA DINIY TASHKILOTLAR BILAN MUNOSABATI.....7
1. Din masalasida mavjud xalqaro me'yor (normalar).....11
2. O'zbekistonda vijdon erkinligining konstitutsion kafolatlanishi.....12
3. Vijdon erkinligi – diniy e'tiqod erkinligidir.....19
4. O'zbekistonda din bilan munosabatning asosiy tamoyillari.....19
5. Mustaqillik: dinga va diniy tashkilotlarga munosabatining o'zgarishi...21
2-MAVZU:EKSTREMIZM VA TERRORIZM-JAMIYAT BARQARORLIGIGA TAHDID.....26
1. Vahhobiylikning yuzaga kelishi va asosiy g'oyalari.....28
2. Diniy fundamentalizm va ekstremizm tushunchalari: mohiyati va mazmuni.....40
3. Missionerlik tushunchasi, mazmuni va mohiyati.....44
4. Bugungi kundagi voqelik.....49
5. Musulmon dunyosi va diniy ekstremizm.....53
3-MAVZU: MUSULMON OLAMINING TERRORIZMGA QARShI KURASHI.....55
1. Diniy ekstremizmning musulmon dunyosi uchun xavfi.....58
2. «Jamoat al-ixvon al-muslimin».....59
3. «Hizbulloh» («Alloh partiyasi»).....62
4. «Al-qoida» («asos»).....63
5. Terrorizmga qarshi kurashda Misr tajribasi.....65
6. Misrning kurash strategiyasi.....66
7. Xalqaro maydondagi harakatlar.....69
4-MAVZU:Markaziy Osiyodagi barqarorlik va havfsizlikka tahdid solayotgan diniy ekstremistik va terroristik tashkilotlar.....70
1. Diniy ekstremizm va terrorizmning Markaziy Osiyo mintaqasida namoyon bo'lishining o'ziga xos xususiyatlari.....72
2. Vahhobiylik va uning «O'zbekistondagi tashkiliy tizimi». «O'zbekiston islom harakatining jamiyat taraqqiyotiga tahdidi».....76
3.Hizbut-tahrir» oqimi va uning mustaqil O'zbekiston taraqqiyotiga tahdidi.....81

4.Mustaqil O'zbekiston taraqqiyotiga tahdid soluvchi boshqa diniy-siyosiy harakatlar.....83
5-MAVZU: DINIY EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHNING XALQARO SIYOSIY-HUQUQIY ASOSLARI.....86
1. Islom konferensiyasi tashkiloti tuzilishi, mohiyati, ustavi va uning islom tartibotini shakllantirishdagi faoliyati.....88
2. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy asoslari.....91
3. O'zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmni oldini olish va unga qarshi kurash borasida olib borayotgan siyosatining mohiyati.....97
Amaliy va seminar mashg'ulotlarini o'tkazish bo'yicha ishlanmalar va tarqatma materiallar.....104
Ilovalar.....120
Foylanilgan adabiyotlar.....123

M.LAFASOV, X.S.JUMANIYOZOV, G.K.MASHARIPOVA,
E.XOLIQOV, E.M.MALLAEVA

DINIY EKSTREMIZM, MISSIONERLIK VA XALQARO TERRORIZMGA QARSHI KURASH

(METODIK QO'LLANMA)

Muharrir: Shukur Qurbon
Dizayner: Bahodir To'xliyev
Texnik muharrir: Asqad Nazarov

Bosishga ruxsat etildi: 13.12.2010.
Qog'oz bichimi 60x84 $^{1}/_{16}$ Hajmi 8,0 b.t.
Adadi 160 nusxa. Buyurtma № 32.

Alisher Navoiy nomidagi
O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti

"BAYOZ" MCHJ matbaa korxonasida chop etildi.
100100, Toshkent sh. Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103-uy.